

V.B.FAYZIYEV, A.H.VAHOBOV

**MIKROBIOLOGIYA
VA
VIRUSOLOGIYA
(VIRUSOLOGIYA)**

ISBN 978-9910-646-53-9



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

V.B. FAYZIYEV, A.H. VAHOBOV

MIKROBIOLOGIYA VA VIRUSOLOGIYA
(VIRUSOLOGIYA)
(darslik)

Chirchiq-2025

UO‘K 578;579

KBK 28.3;28.4

F-85

V.B. Fayziyev, A.H. Vahobov / Mikrobiologiya va virusologi (virusologiya) / darslik. – Toshkent.: “ZEBO PRINT”, 2025. 360 b.

Virusologiya fanidan tayyorlangan ushbu darslik oliy o‘quv yurtlarining “60510100-Biologiya” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan “Mikrobiologiya va virusologiya” fani o‘quv dasturi asosida virusologiya qismi ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tish uchun, shuningdek virusologiya sohasida izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilar va ilmiy-xodim izlanuvchilar uchun tayyorlangan.

Данный учебник предназначен для проведения лекций по части вирусологии на основе учебной программы предмета «Микробиология и вирусология», включенной в учебную программу образовательного направления «60510100-Биология» высших учебных заведений, а также для научных сотрудников, проводящих исследования в области вирусологии.

This textbook on virology is based on the curriculum "Microbiology and Virology", included in the curriculum of higher educational institutions "60510100-Biology" for lectures on virology, and is also prepared for researchers and scientists conducting research in the field of virology.

Tuzuvchilar:

Fayziyev V.B. – CHDPU Biologiya kafedrasi mudiri, b.f.d., prof.

Vahobov A.H. – O‘zMU Mikrobiologiya va biotexnologiya kafedrasi professori, b.f.d., prof.

Taqrizchilar:

B.J. Ahmadaliyev – O‘zR FA Genetika va O‘EB instituti ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

D.T. Jovliyeva – CHDPI Biologiya kafedrasi dotsenti v.b., biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 14-apreldagi 2025 yildagi 136-sonli buyrug‘iga muvofiq darslik sifatida nashr etishga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9910-646-53-9

© Fayziyev V.B. va b., 2025

©“Zebo Prints”, 2025

KIRISH

Tabiatda o'simlik, hayvon, mikroorganizm kabi hujayraviy tuzilishga ega bo'lgan organizmlar bir qatorda hujayrasiz shaklga ega bo'lmagan, ammo hujayraga kirgandan so'ngina tiriklik xususiyatini namoyon qila oladigan viruslar, viroinlar va pirionlar kabi hayot shakllari mavjud bo'lib, so'ngi yillarda ularning tirik organizmlarga keltitib chiqaradigan zararining ortib borishi kuzatilmoqda. Ayniqsa insoniyat tarixida bo'lib o'tgan va juda ko'p sondagi inson va boshqa tirik organizmlarning o'limiga sabab bo'lgan, jumladan, chechak, quturish, gripp va COVID kabi pandemiyalar virusli pandemiyalar hisoblanib, ularga qarshi kurash choralarini olib borish uchun qo'zg'atuvchining biologiyasi, ekologiyasi hamda uning tabiati kabilarni bilish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun so'ngi yillarda tayyorlanayotgan biologiya, meditsina, sanitariya epidemiologiya va o'simliklarni homoya qilish sohasidagi mutaxasislarga ushbu fanni o'qitish muhim sanaladi.

Virusologiya fani biologiya fanlari tarmog'iga mansub bo'lgan yosh fanlardan biri bo'lib, viruslarni o'rganadi. Virus so'zi grekcha - *zahar*, logus – *fan* degan ma'noni anglatadi. Fannining o'rganish obyektlariga viruslar, viroidlar, pirionlar, bakteriofag, mikofag, reketsiya kabilar kiradi. Bu fan *maxsus* va *umumiy* qismlarga, olib boriladigan tadqiqotlari esa *amaliy* va *fundamental* tadqiqotlarga bo'linadi. Fundamental tadqiqodlari esa asosan virus tarkibi va xo'jayin hujayra orasidagi munosabat, virion shakli va arxitekturasi, virus zarrasi tarkibiy qismlarini molekulyar sintez mexanizmi, irsiy axborotni o'tkazish yo'llari va ularning qurilish jarayoni, o'zgaruvchanlikning molekulyar mexanizmi va evolyusiyasining o'ziga xosligini o'rganish

bo'lsa, amaliy tadqiqotlar esa veterinariya va tibbiyot, fitopatologiya fanlari tomonidan ham o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda bu fan viruslarning tarqalishi, kasallantiriladigan organizmlar doirasi, zarari, kasallik alomatlari, diagnostikasi va profilaktika hamda kurash choralarini ishlab chiqish, virus tabiiy o'choqlari, sirkulyasiyasi, epizootiya, pandemiya, epidemiya va epifitotiyalarni yuzaga kelish sabablarini o'rganish ham virusologiya zimmasidagi vazifalardandir. Bu vazifalarni yechishda virusologiya fani boshqa fanlarning metodlari va olingan natijalardan foydalanadi, shu bilan bir qatorda, molekulyar biologiya, proteomika va gen muhandisligi, kimyo, fizika, genomika kabi fanlarning yutuqlaridan keng mashstabda foydalanib kelmoqda.

Virusologiya bir qancha alohida tarmoqlari mavjud bo'lib, ular bugungi kunda alohida fanlarga sifatida shakllangan, bunday fanlarga quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Umumiy virusologiya - viruslarning morfologiyasi, tuzilishi (arxitekturasi), ko'payishi (reproduksiyasi), bioximiyasi, tabiati va genetikasini o'rgansa, tibbiy, sanitariya, veterinariya va fitovirusologiya va qishloq xo'jalik virusologiyalari viruslarning kasallik qo'zgatishi, sirkulyasiyasi, ularni yuqumliligi, diagnostikasi, patogenligi, qo'zg'atadigan kasalliklari, ularni "o'choqlari"larini o'rganadi, epidemiya, epizootologiya, pandemiya va epifitotiyalarni paydo bo'lish qonuniyatlarini o'rganadi va ular natijalari asosida viruslarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqadi.

Veterinariya virusologiyasi – hayvolarni kasallantiruvchi viruslarning xususiyatlarini, diagnostikasi va ularga qarshi davolash choralarini ishlab chiqish kabilar bilan, **meditsina virusologiyasi** -

odamda kasallik qo'zg'atuvchi viruslarni xususiyatlarini, diagnostikasi va ularga qarshi davolash choralarini ishlab chiqish kabilar bilan shug'ullanadi.

Molekulyar virusologiyasi - esa viruslar nuklein kislotalari tuzilishi va funksiyasini, virus genlarining ekspressiyasi mexanizmlarini, organizmning viruslar bilan munosabatining molekulyar mexanizmlari kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib boradi.

Bundan tashqari viruslarning molekulyar tuzilishining o'rganilishi uning gen injeneraiya, molekulyar genetik tadqiqotlarda qo'llanilish imkoniyatini yanada kengaytirdi. Ayrim viruslar, masalan, bakterifaglarining ochilishi biologiyaning zamonaviy bo'limlaridan biri bo'lgan molekulyar virusologiyaning asos solinishiga sabab bo'lgan.

Umuman olganda, bugungi kunda virusologiyaning o'rganish obyektlari spektri juda kengaydi va so'ngi yillarda odam, hayvon va o'simliklarni hamda turli mikroorganizmlarni kasallantiruvchi viruslarning kengayishi ushbu yo'nalishlarda ham tadqiqot ko'lamining ham kengayishiga olib kelmoqda.

1-BOB. VIRUSOLOGIIYANING RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Viruslar haqidagi dastlabki tushunchalar

Insoniyat viruslar bilan juda qadimdan yuzma-yuz kela boshlagan, turli-tuman kasalliklarni boshidan o'tkazgan va ularning qo'zg'atuvchilarini aniqlash bo'yicha izlanishlarini olib borgan. Bu haqdagi ma'lumotlar ko'pgina tarixiy materiallarda o'z aksini topgan. Jumladan, Eduard Djennerning (1749-1823 yy.) chechak kasalligi ustida olib borgan ishlari buning yaqqol isbotidir. Qadimdan chechak kasalligi millionlab odamlarning o'limiga sabab bo'lgan. Bu kasallik va uni emlash haqidagi ma'lumotlar qadimgi Xitoy va Xindistonning qo'lyozmalarida uchraydi. Ilmiy manbalarga ko'ra, birinchi chechak kasalligining epidemiyasi eramizning VI asrida Yevropada, 17 asrida Yer yuziga yoyilgan va juda ko'p aholining nobud bo'lishiga sabab bo'lgan. Masalan, 1707 yilda Ispaniyada 57000 aholidan 17000 odam qolgan, 1617-1619 yillarda Shimoliy Amerikaning Massachusets shtatida aholining o'ndan to'qqiz qismi, 1763 yilda Isthem shahrida 1331 ta odamdanda 4 kishi qoladi. Shuning uchun chechak bilan kurashish dolzarb bo'lib kelgan. Yevropada chechakka qarshi emlash XVII asr o'rtalariga, Turkiya, Uzoq Sharq va Xitoyda emlash (variolatsiya) undan ham erta - qo'llanilgan. Variolatsiyaning bu - yengil formada kasallangan odamdagi chechak suvli yarasi suyuqligidan olib sog'lom odam terisiga yuqtiriladi, natijasida virus yuqtirilgan odamda yengil formada kasallanish kuzatiladi hamda og'ir formadagi chechak bilan kasallanishning oldi olinadi. Ammo bunday holda ham chechakning og'ir turi bilan kasallanish ehtimoli saqlanib qoladi, jumladan emlangan 10% odamlarda o'lim holati saqlanib qolgan.

Ingliz olimi Eduard Djenner o'zi olib borgan kuzatishlari va tadqiqotlari natijasida chechakka qarshi yangicha kurash usulini taklif etdi, ya'ni u sigir chechagi bilan kasallangan sut sog'uvchi ayollarda kasallikning yengil kechishi va ular og'ir formasi bilan kasallanmasligini aniqladi. Djenner 1796-yil may oyida sigir chechagi bilan kasallangan Sara Salmesning yara suyuqligidan chechak bilan kasallanmagan Djeyms Fipsga terisiga yuqtiradi.




Inliz olimi Edvard
Djenner
(1749—1823)

Bolaning emlangan joyida chechakka xos bo'lgan tipik yara (pustula) hosil bo'ladi va u 14 kundan so'ng butunlay yo'qoladi. Undan keyin E. Djenner bolaga haqiqiy chechak yarasidan olib, yuqtiradi. Bola chechak kasalligi bilan umuman kasallanmaydi. Shu vaqtdan boshlab vaksinatsiya qilish g'oyasi tug'iladi va tasdiqlanadi hamda amaliyotga kiritildi. Vaksina atamasi yani lotincha **“vacca”** - sigir degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik 1940-yillarda buzoqlarni chechak virusi bilan kasallantirib chechakka qarshi vaksinani tayyorlangan. 1904-yilda esa chechak virusining o'zi kashf qilingan. Shunday ekan, ilk bora foydali maqsadlarda qo'llanilgan virus bu – chechak virusi hisoblanib, birinchi vaksina chechak virusiga tayyorlangan. Bundan avval ham ushbu ishlar, ya'ni viruslarga qarshi emlash ihlari manbalarga ko'ra qadimgi Xitoyda 1000 yilcha avval chechakka chalingan odamlarning yaralarining maydalangan kukunini nafas yo'li orqali yutish, yoki chechak yara suyuqligi botirilgan paxtani bolalarning qulog'iga qo'yish orqali emlash

ishlari olib borilgan. Ushbu ishning davomi sifatida keyingi qilingan ishlar muvaffaqiyati chechak kasalligining dunyodan yo'qotilishiga olib keldi.

Chechak kasalligidan keyingi vaksina Lui Pasterning (1872-1895



Franszu olimi Lui

yy.) tadqiqotlari natijasida qutirish kasalligiga qarshi tayyorlangan - vaksina bo'ldi. Lui Paster kasallikning yuqumliligidan tashqari boshqa sabablarini bilmasa ham kasallikni qo'zg'atuvchisini yuqumliligini kuchsizlantirish prinsipini - **attenuirlashni** qo'llaydi. Kasallikni qo'zg'atuvchisini kuchsizlantirish uchun


quyondan foydalandi. Buning uchun Lui Paster qutirish virusi bilan kasallanib o'lgan it miya to'qimasini olib quyon miyasiga yuboradi va bu ishni ketma-ket amalga oshirgan. Bu tajribani 100 marta, to quyon miya to'qimalari adaptatsiya qilguncha amalga oshirgan. Keyin quyon miyasi to'qimasidan olib it – terisining ostiga yuborganda u o'rtacha kasallik alomatlarini namoyon qiladi. Bunday qayta tarbiyalangan (attenuirlangan) - qo'zg'atuvchini “yovvoyi” qo'zg'atuvchidan farqlash uchun “fiksirlangan” qo'zg'atuvchi deb ataydi. Keyinchalik Paster kuchsizlantirilgan qo'zg'atuvchining konsentratsiyasini boshqichma-bosqich oshirib inyeksiya qilish yordamida immunitet hosil qilish usulini ishlab chiqadi.

Bosqichma-bosqich kuchsizlantirilgan qo'zg'atuvchi kursini yuborilgan it infeksiya to'liq chidamli bo'lgan. Paster organizmning himoya kuchi mikroblarning kurashi hamda yuqumli kasallikni

rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq deb hisoblaydi. U: “Organizmga kelib chiqadigan har bir kasallik qo‘zg‘atuvchisiga ega, biz organizmning immunitetini ushbu infeksiyon kasallikga nisbatan qarshi kurashiga hamda rivojlanishiga imkon yaratishimiz kerak,” - deydi. Paster qutirgan it tishlagan bolaga 1885-yili “kuchsizlantirilgan” virusni yuboradi va asta sekin konsentratsiyasini oshirib boradi, eng oxirida ine’ksiyada esa haqiqiy patogen virusni bolaga in’eksiya qiladi, bola kasallikdan tirik qoladi. Quturish virusi esa 1903-yili Remlenje tomonidan vaksina tayyorlangandan ancha keyin kashf qilingan.

XIX asr oxiriga kelib gripp, qutirish, sariq isitma, chechak kabi bir qator odam kasalliklarining yuqumli ekanliklari aniqlangan, ammo bu kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilarini bakteriologik metodlarni qo‘llash yo‘li bilan aniqlash imkoni bo‘lmagan. Robert Koxning (1843-1910 yy.) “toza kultura” olish metodikasini mikrobiologiyada qo‘llanilishi eng katta kashfiyotlardan biri sifatida bakterial va nobakterial kasalliklarni farqlash imkoni berdi. 1890-yili 10-chi mikrobiologlar kongressida Kox: “...sanab o‘tilgan kasalliklar umuman boshqa guruh mikroorganizmlar guruhini tashkil qiladi” - deb ta’kidlagan. Chunki mikroorganizmlargina qattiq ozuqa muhitida o‘sib koloniyalar hosil qiladi, ammo sun‘iy ozuqa muhitida o‘smaydigan ayrim kasallik qo‘zg‘atuvchilari mavjudki, ular ozuqa muhitida umuman o‘zini namoyon qilmaydi degan fikrni aytib o‘tadi. Koxning bu bildirgan fikrlari viruslarni ochilishi tasodifiy emasligidan va mikroorganizmlardan tashqari ham kasallik qo‘zg‘atuvchilar mavjudligi haqida tasavvurlar avvaldan mavjudligidan dalolat bergan. Ammo bu


nobakteriyal o'ziga xos original kasallik qo'zg'atuvchilar borligini tajriba yo'li bilan isbotlash kerak edi.




Deyvid Baltimor
1929 y.



Iosif Atabekov
1938 y.



Vadim Agol
1934 y.



Rus olimi Viktor
Jdanov

20-yillar so'ngi 30-yillar boshiga kelib viruslar ham tirik materiya ekanligi aniq bo'ldi va ularni "filtrlanuvchi viruslar" yoki "ultraviruslar" deya nomlana boshlandi, keyinchalik esa bu atamalar o'simlik, hayvon va bakteriya viruslarini birlashtirgan virus so'zi egalladi.

30-yillar so'ngi 40-yillar boshida viruslarni o'rganish ancha ildamlab ketdi va ular


organizm ekanligi haqida tushunchalar shakllana boshlandi. Buning sababi viruslarni ham hayvonlar, o'simliklar, sodda hayvonlar, zamburug'lar va prokariotlar kabi irsiyat va o'zgaruvchanlikga ega ekanligi, ko'payish xususiyati mavjudligi, o'zi yashab turgan tashqi muhit o'zgarishiga moslashishi, tabiiy tanlashni ta'minlovchi biologik

evolyusiyaga ega ekanligi ularning bunday xususiyati ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

60-yillar boshiga kelib viruslarni organizm ekanligi haqidagi konsepsiya eng gullagan davrga keldi, keyinchalik esa bu qarashning o'rniga "virion" tushunchasi kiritilib, virus ham individium deya e'tirof etila boshlangan.

1.2. Viruslarning kashf qilinishi

Viruslarning kashf etilishida mavjudligini aniqlashda tamakining "mozaika" kasalligini 1892-yili D.I.Ivanovskiy tomonidan o'rganishi muhim ahamiyat kasb etdi. O'simliklar olamida D.Ivanovskiydan avval ham yuqumli infeksiyon kasalliklar mavjudligi kuzatilgan. Bunday taqdiqotlar gollandiyalik olim de Friz tomonidan 1883-1884-yillarda "gullarni chiporlanishi" kasalligini aniqlab, bu kasallikni yuqumlilik tabiati mavjudligini aniqlagan, Gollandiyalik olim Mayer 1886-yilda mozaika bilan kasallangan o'simlikdan ajratilgan shira boshqa o'simlikga yuqtirilganda u o'simlikda xuddi avvalgi kasallik alomatiga o'xshash alomatlarning namoyon bo'lishini aniqlaydi va bu kasallikni qandaydir tirik ko'zga ko'rinmas organizmlar yuzaga keltiradi degan fikrni bildirgan.




Rus olimi Dmitriy
Ivanovskiy

Rossiya va boshqa davlatlarda XIX asrda tamakining bu kasalligi qishloq xo'jaligiga katta zarar keltirgan va shuning uchun bu kasallikni

o'rganish maqsadida Ukrainaga olimlar guruhi yuboriladi. Bular bilan Peterburg universiteti talabasi D.I. Ivanovskiy ham bor edi. D.I.Ivanovskiy va V.V.Polovsevlar tomonidan tamakining ikki xil kasalliklari "ryabuxa" (zamburug'lar qo'zg'atadigan) va kelib chiqishi noma'lum bo'lgan mozaikali kasalliklardan iborat ekanligini aniqlaydi. D.I.Ivanovskiy bu kasallik ustida akademik A.S.Faminitsin rahbarligida Nikitskiy nomli botanika bog'ida tadqiqotlarni olib boradi. U mozaika alomatlari mavjud bo'lgan tamaki o'simligidan ajratilgan shirani eng mayda Shamberlen bakteriologik filtridan o'tkazib, filtratni sog'lom tamaki o'simlikka inokulyatsiya qilinganda uning bargida uning mozaika kasalligini keltirib chiqarishini aniqlaydi. Ammo bu yuqumli shirani sun'iy ozuqa muhitiga ekilganda hech qanday koloniya o'sib chiqmaganligini kuzatadi. D.I.Ivanovskiy ushbu olib borgan tadqiqotlari asosida bu kasallikni qo'zg'atuvchisi boshqa mikroorganizmlardan farqlanuvchi tabiatga ega va bakterial filtrdan o'ta oladigan, sun'iy ozuqa muhitida o'smaydigan xususiyatga ega ekan, degan xulosaga keladi. U olib borgan tadqiqotlari natijasida shirani 60-70°C qizdirganda o'z yuqumlilik xususiyatini yo'qotishini aniqlaydi. So'ngi yillarda aniqlangan bu virusning shtammlarining haroratga chidamlilik darajasining oshganligini, ya'ni 80-82°C, ayrim shtammlarida esa 90-96°C ni tashkil etishi aniqlangan. D.I. Ivanovskiy tamakida mozaika kasalligini keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchini "filtrlanuvchi bakteriya" deb nomlaydi va olgan tadqiqot ishlarini o'zining tayyorlagan (1888-yili) dissertatsiya ishiga asos bo'ladi. Olingan natijalarini asosida esa 1892-yili "Tamakining ikki kasalligi haqida" degan kitobda chop etadi.

Viruslarni kashf qilinishida golland olimi Martin Beyerink (1851-1931 yy.) xizmatini ham ta'kidlash lozim, ayrim chet mamlakatlarida uni virusologiya fanining asoschisi deb atashadi. Beyerink ham tamaki mozaikasi kasalligi ustida tadqiqot ishlar olib boradi va D.I. Ivanovskiy tadqiqotlarini qayta tekshirib ko'rdi va u ham o'z ishlarini 1898-yili chop etadi. M.Beyerink filtrlangan mozaika alomatiga ega bo'lgan o'simlik shirasini agar-agar ustiga quyib, ma'lum muddat inkubatsiya qildi, natijada agar-agar yuzasida bakteriya koloniyalari o'sib chiqadi. U bu koloniyalarni agar-agar yuzasidan olib tashlab, ichki qavati



Golland olimi Martin Beyerink

bilan esa o'simliklarni kasallantiradi, natijada sog'lom o'simliklarda kasallik alomatlarining paydo bo'lishini kuzatadi. Beyerink bu ishlaridan kasallikni sababchisi bakteriya emas, balki "qandaydir suyuq substansiya" deb ta'riflaydi va bu qo'zg'atuvchi agar-agar ichiga kira oladigan agentlar ekanligini va uni Beyerink "*contagium vivum fluidum*" ("jidkoe zaraznoe nachalo" – "yuqadigan suyuq substansiiya") deb nomlaydi. U o'z olib borgan tadqiqotlarini D.I. Ivanovskiyni ishlari bilan taqqoslab, mozaika kasalligi alomatlarini keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchi substansiya nobakterial tabiatga ega ekanligini ta'kidlaydi hamda viruslarning kashf etilishi Ivanovskiyni tegishli tan olindi. Shuning uchun bugungi kunda butun dunyoda viruslarni **birinchi kashf qilgan olim sifatida - D.I. Ivanovskiy tan olingan va 1892-yil virusologiya fanining ochilish yili hisoblanadi.**

1.2.1. Bakteriofaglarining kashf qilinishi

1896-yilda Xankin (yoki Xavkin) tomonidan bakteriya viruslari haqidagi birinchi ma'lumot taqdim etilgan. U Paster Instituti solnomasida Hindistonning ayrim daryo suvlari bakteriatsidlik xususiyatiga ega ekanligini qayd etgan. Shuningdek, ushbu xususiyat bakteriya viruslari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildirgan.

1898-yilda N.F. Gamaleya bakteriyalarning ham virus bilan zararlanishini aniqlab, ularni "bakteriolizinlar" deb atadi. U mikrokokklar kulturasida shishasimon tiniqlashish (shaffoflashish) hodisasini kuzatdi va bu agent bakterial filtrdan o'tgandan so'ng ham o'z xususiyatini saqlab qolishini tasdiqladi. 1917-yilda Gamaleya tomonidan dizenteriya bakteriyalarini zararlovchi dizenteriya bakteriofagi kashf qilindi. 1914-1915-yillarda D'Errel va undan mustaqil ravishda Tuort bu hodisalarni o'rgangan holda, ularning tirik agentlar ekanligini ta'kidlashdi va ularni bakteriofaglar deb atashdi. Biroq, o'sha davr olimlari bu fikrni uzoq vaqtgacha qabul qilishmay, bakteriofaglarini fermentlar deb hisoblashgan. Olingan dalillar va kuzatishlar asosida I. Mechnikov bir necha yil oldin "O'ta kichik mavjudotlar biologiyasini o'rganish virusologiya rivojlanishiga olib keladi. Mikrobiologiya takomillashishi esa ko'zga ko'rinmas dushmanlarni aniqlashga va yuqumli kasalliklar qo'rquvini yo'qotishga sabab bo'ladi" deb bashorat qilgan edi. Uning vafotidan (1916-yil) keyin, u aytganidek, virusologiya fani rivojlana boshladi. Viruslarni o'rganishning yangi metodlari qator viruslarning kashf qilinishiga imkoniyat yaratdi.

1.2.2. Hayvon viruslarini ochilishi

Ivanovskiy tamaki mozaikasi kasalligini o'rganishda "bakterial filtr"dan foydalanib, filtrlash metodini qo'lladi va bu yondashuv orqali 10 dan ortiq virusli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi viruslar kashf etildi. Viruslar ochilishidan olti yil o'tib, odam va hayvon viruslaridan biri bo'lgan "oqsim" yoki yashchur virusini Leffler va Frosh kashf qilishdi. Ular yashchurga qarshi immunizatsiya usullarini ishlab chiqish ustida tadqiqot olib borishgan. Leffler va Frosh yashchur bilan zararlangan hayvonlarning shilliq pardalaridan ajratib olingan materialni (aft deb nomlanadi) bakteriyalarni tutib qoluvchi kizelgur filtridan o'tkazib, filtrdan o'tgan suyuqlik yordamida hayvonlarni immunizatsiya qilishgan. Natijada, ushbu suyuqlikning hatto 10^{-2} – 10^{-4} ml (0,001–0,00001 ml) miqdori hayvonlarda yashchur kasalligini qo'zg'atgan. Ushbu tajribalar natijasida aft suyuqligida yorug'lik mikroskopida ko'rinmaydigan, ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan "o'ta mayda kasallik qo'zg'atuvchisi" borligi aniqlangan. Bu yondashuv va natijalar hali tabiati yaxshi o'rganilmagan chechak, skarlatina, qizamiq, toshma tif kabi kasalliklar uchun ham qo'llanila boshlandi. Ivanovskiy, Leffler va Froshning ishlari nafaqat o'simlik kasalliklari, balki hayvon va odam kasalliklarining patogenezi va ularni aniqlash hamda ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu kashfiyotlar zamonaviy biologiyada ham muhim o'rin tutadi va bu ilmiy yondashuvning ahamiyati bugungi kunda ham tasdiqlangan.

1903-yilda Ru shoxli mollar peripnevmoniyasini o'rganib, ushbu kasallik qo'zg'atuvchilarini "ko'rinmas mikroblar" deb atadi. Shu bilan birga, Remlyanje ham bu borada tadqiqot olib borib, mazkur agentlarning

tabiatini o'rganishga e'tibor qaratdi va ularni "filtrlanuvchi mikroblar" deb atashni taklif etdi.

Hasharotlar orqali tarqaladigan "sariq bezgak" kasalligining viruslar tomonidan qo'zg'atilishi aniqlangan. Keyinchalik filtrlanuvchi yuqumli agentlar "filtrlanuvchi viruslar" deb ataladigan bo'ldi. "Virus" so'zi lotincha "zahar" degan ma'noni anglatishi avvaldan ma'lum edi. Mikrobiologiyaning dastlabki davrlarida "virus" atamasi barcha yuqumli agentlar va ular tomonidan ishlab chiqariladigan zaharli moddalarga nisbatan ishlatilgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan yuqumli agentlar va toksinlar orasidagi farq aniqlangandan so'ng, "virus" atamasi faqat yuqumli agentlarni ifodalash uchun qo'llanila boshlandi. Vaqt o'tishi bilan viruslar haqidagi bilimlar asta-sekin yig'ila boshladi. Masalan, Borrel virus bilan zararlangan organizmlarda hosil bo'ladigan "elementar tanachalar"ni o'rgangan, Raus (1911-yil) esa o'smalar hosil qiluvchi viruslarni (masalan, tovuqlar sarkomasi virusi) tadqiq qilgan. Rid esa virus kasalliklarini tarqatishda hasharotlarning roli haqida ilmiy ishlar olib borgan. Biroq, ushbu tadqiqotlar virusologiya fanining jadal rivojlanishiga yetarlicha turtki bera olmadi.

Birinchi jahon urushi oxirida katta epidemiyalar yuz berdi, bu esa virus infeksiyalariga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirdi. Gripp pandemiyasi natijasida 20 million kishi hayotdan ko'z yumdi, letargik ensefalit esa 80 000 odamni zararladi. Ushbu hodisalar ko'plab tadqiqotchilarni virus kasalliklarini o'rganishga jalb qildi. Ammo o'sha davrda gripp kasalligining etiologiyasi bakteriyalar emas, balki viruslar bilan bog'liqligini tasdiqlashning imkoni bo'lmadi. Xuddi shunday, letargik ensefalitning virusini ajratib olishga qaratilgan urinishlar ham

muvaffaqiyatli bo'lmadi. Shu sababli, bu kasalliklar bo'yicha chuqurroq ilmiy tadqiqotlar talab etilgan.

Viruslar haqidagi eksperimental faktlar yig'ilishi viruslarni o'rganish metodlarining rivojlanishiga olib keldi. Viruslarni hujayra to'qimalarida va tovuq embrionlarida ko'paytirish, ularning o'lchamlarini aniqlash, virus yuqqan hujayralardagi elementar tanachalar va kiritmalarni bo'yash usullarining ishlab chiqilishi, shuningdek, ba'zi serologik reaksiyalar kabi metodlar rivojlana boshladi. (Bu metodlar haqida keyinchalik batafsil ma'lumot beriladi). Viruslarning boshqa yuqumli agentlarga nisbatan inson salomatligiga ko'proq zarar keltirishi yaqqol namoyon bo'ldi. Millatlar Ligasining epidemiyalar qo'mitasi 1929-1934-yillardagi hisob-kitoblariga ko'ra, asosiy virusli kasalliklar (gripp, qizamiq, poliomielit, chechak) bilan 25 142 650 kishi kasallangan bo'lsa, asosiy bakterial kasalliklardan faqat 4 072 446 kishi aziyat chekkan. Bu ko'rsatkich virusli kasalliklarning keng tarqalganligini va jiddiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatdi.

1935-yilda L. Zilber tashabbusi bilan Rossiyada Markaziy virusologiya laboratoriyasi tashkil etildi. 1938-yilda bu laboratoriya Butunittifoq eksperimental meditsina virusologiyasi bilan birlashtirilib, 1947-yilda ushbu bazada Meditsina Fanlar Akademiyasi qoshida "Virusologiya instituti" tashkil qilindi. Qisqa vaqt, ya'ni 16 yil ichida Rossiya virusologlari tomonidan ilgari noma'lum bo'lgan viruslar, jumladan, Uzoq Sharq ensefaliti va gemorragik bezgak kabi kasalliklar kashf qilindi. Ushbu viruslarning qo'zg'atuvchilari va epidemiologik xususiyatlari aniqlanib, ko'pgina neyroviruslar, gripp, qizamiq kabi viruslar ham keng miqyosda o'rganildi. Shuningdek, viruslarning tabiati

va immunitetga oid nazariy masalalar bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borildi. Bu yutuqlar Rossiyada virusologiya fanining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Qishloq xo'jaligida virusli kasalliklar jiddiy zarar yetkazgan. Umumiy va o'simlik viruslarini o'rganish bo'yicha V. Rijkov, viruslarning morfologiyasini esa E. Turevich va R. Shenlar muhim tadqiqotlar olib borishdi. Gemorragik bezgakni M. Chumakov, gripp va boshqa yuqumli kasalliklarni esa A. Smorodinsev, V. Solovyov, V. Jdanov, L. Zilber va A. Shubladze kabi olimlar o'rgangan. Shuningdek, ensefalitlarni tadqiq qilishda A. Chumakovning hisssasi katta bo'lib, Uzoq Sharq ensefalitining etiologiyasi va epidemiologiyasi ushbu olimlar tomonidan har tomonlama chuqur o'rganilgan. Ushbu ilmiy yutuqlar virusologiya fanining rivojlanishida va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Keyinchalik odam va hayvon viruslarining turli organlarga nisbatan kasalliklar keltirib chiqarish xususiyatlari o'rganilib, ular guruhlariga bo'linadi. Ushbu guruhlar quyidagilardir:

- **Neyrotrop viruslar:** qutirish, poliomielit, ensefalit va boshqa asab tizimini zararlovchi viruslar.

- **Dermatrop viruslar:** chechak, ospavaksina, so'gal kabi teri kasalliklarini keltiruvchi viruslar.

- **Pnevmotrop yoki respirator viruslar:** gripp, psittakoz kabi nafas yo'llariga ta'sir qiluvchi viruslar.

- **Enterotrop va politrop viruslar:** qizamiq kabi ichak va boshqa organlarni zararlovchi viruslar.

Shuningdek, viruslarning ko‘payish jarayonlari, virion turlarini barqaror saqlash, irsiy belgilarni keyingi avlodlarga o‘tkazish va nobud bo‘lish xususiyatlari chuqur o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar virus biologiyasini yanada chuqurroq tushunishda va ularning hayotiy siklini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1.2.3. Hasharot viruslarini ochilishi

Hasharot viruslarini o‘rganish uzoq vaqt davomida virusologiyaning boshqa bo‘limlari, masalan, odam va umurtqali hayvonlar viruslarini o‘rganishga nisbatan ortda qolgan. Hozirgi vaqtda hasharotlarni zararlovchi viruslar shartli ravishda uch guruhga bo‘linadi:

1. **Haqiqiy hasharot viruslari** – to‘g‘ridan-to‘g‘ri hasharotlarni zararlovchi viruslar.

2. **Hasharotlar oraliq xo‘jayin bo‘lgan odam va hayvon viruslari** – hasharotlar orqali odam yoki hayvonlarga yuqadigan viruslar.

3. **Hasharotlarni zararlovchi o‘simlik viruslari** – hasharotlarni kasallantiradigan va o‘simliklar bilan bog‘liq viruslar.

Hasharot viruslari bo‘yicha birinchi aniqlangan virus ipak qurtining sariq kasalligi virusi bo‘lib, bu kasallik "Bollea stilpotiae" deb nomlangan ipak qurtining poledrozi virusi bilan bog‘liq. 1907-yilda Pravochek kasallangan lichinkalarning gomogenatini sog‘ ipak qurtlarining lichinkalariga yuqumliligini isbotladi. 1947-yilda esa nemis olimi Bergold tayoqchasimon viruslarni kuzatib, bu yo‘nalishda yangi yutuqlarga erishdi. Ushbu tadqiqotlar hasharot virusologiyasining rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi.

1900-1901-yillarda Rid tomonidan chivin va moskitlar orqali yuqadigan sariq isitma (bezugak) kasalligi filtrlanuvchi virus ekanligi aniqlangan. Tadqiqotlar davomida moskitlar yuqumli qonni soʻrib olgach, 2 hafta davomida ularda yuqumlilik xususiyati namoyon boʻlmasligi kuzatilgan. Ushbu davr hasharotlarda virusning reproduksiya qilinadigan inkubatsiya davri ekanligi aniqlandi. Bu kashfiyot viruslarning hasharotlar organizmidagi rivojlanish mexanizmlarini tushunishda muhim qadam boʻldi.

1952-yilda Maramorosh oʻsimlik viruslarining ularning tashuvchisi boʻlgan hasharotlar organizmida koʻpayish xususiyatini aniqladi. U hasharotlarga in'eksiya qilish texnikasidan foydalanib, astra sariq kasalligining uning tashuvchisi boʻlgan olti nuqtali sikadkada (Cicadellidae oilasidan) koʻpayishini isbotlab berdi. Bu tadqiqot oʻsimlik viruslari va ularning tashuvchilari oʻrtasidagi murakkab oʻzaro munosabatlarni tushunishga katta hissa qoʻshdi.

1.3. Virusologiyaning rivojlanish bosqichlari

Tabiiy va boshqa fanlar integratsiyasi asosida erisilgan virusologiya yigʻilgan bilimlar viruslarning tabiatini chuqurroq tushunish imkonini berdi va virusologiya aniq va tezkor ravishda viruslarni organism darajasidan submolekula darajasida oʻrganish imkonini berdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlari Virusologiyaning rivojlanishi viruslarni tadqiqot qilish metodlarini yutuqlari bilan chambarchas bogʻliq.

Virusologiyaning organizm darajasidagi tadqiqotlarining rivojlanishi (XX asrning 30-40-yillar). Asosiy tajribaviy model

sifatida laboratoriya hayvonlari oq sichqon, kalamush, quyon kabi hayvonlardan, asosiy model virus sifatida esa gripp virusidan foydalanildi.

1930-yillarda viruslarni ajratish va identifikatsiya qilish uchun asosiy virusologiya metodi sifatida laboratoriya hayvonlaridan foydalanish keng qo'llanilgan. Masalan, gripp viruslari uchun oq sichqonlar, Koksaki viruslari uchun yangi tug'ilgan sichqonlar, B gepatiti virusi uchun shimpanzalar, onkogen viruslar uchun kaptarlar, ichak viruslari uchun esa gnotobiont cho'chqa bolalari ishlatilgan. Laboratoriya hayvonlaridan viruslarni ajratishda birinchi marta foydalanish 1881-yilda Paster tomonidan boshlangan. U qutirish kasalligi virusini quyonlar miyasiga yuqtirib, virusning kuchsizlantirilgan (attenuirlangan) formasini olgan. Ushbu yondashuvning keng qo'llanilishi 1948-yilda Sayklz tomonidan mialgiya epidemiyasi viruslari guruhini ajratishda emadigan sichqonlardan foydalanilganda avjiga chiqqan.

1931-yilda A. Woodruff va E. Goodpasture viruslarni ajratishda tovuq embrionlaridan foydalanishni taklif qilishdi. Tovuuq embrionlari gripp, chechak, leykoz va tovuqlar sarkomasi kabi viruslarni ajratishda ideal model sifatida ishlatildi. Xorioallantois qobig'i to'qimalarida va allantois suyuqligida viruslarni katta miqdorda to'plash va keyinchalik tozalash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu, avvalgi usullardan farqli ravishda, viruslarni ajratishni sezilarli darajada osonlashtirdi. 1941-yilda G. Hirst tovuq xorioallantois to'qimalarini virus bilan zararlash jarayonida spetsifik simptomlarning hosil bo'lishi yoki viruslarning tovuq yoki boshqa hayvon eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilishi fenomenini kuzatdi. Ushbu xususiyat dastlab gripp virusini o'rganishda aniqlangan bo'lsa-da,

keyinchalik boshqa viruslarga ham xos ekanligi tasdiqlandi. 1932-yilda ingliz kimyogari Elford sun'iy mayda porali kolloid membranalarni kashf qildi, bu esa ultrafiltratsiya metodining rivojlanishiga asos bo'ldi. Ushbu metod yordamida viruslarning o'lchamlarini aniqlash va ular orasidagi farqlarni belgilash imkoniyati yaratildi. Bu kashfiyot viruslarni differensiatsiya qilishda yangi imkoniyatlar ochib berdi.

1935-yilda Stenli tamaki mozaikasi virusini kristallizatsiyalash uchun sentrifugalash metodini qo'lladi, bu esa virusning fizik-kimyoviy tabiatini chuqurroq o'rganishga yo'l ochdi. Hozirgi kunda ham sentrifugalash va ultratsentrifugalash usullari (probirka tagida tezlanish 200 000 g dan oshadi) differensial sentrifugalash texnikasi yordamida viruslarni ajratish va tozalashda keng qo'llanilmoqda. Ushbu usul viruslarning molekulyar xususiyatlarini o'rganishda va ularni toza holatda olishda muhim ahamiyatga ega.

Virusologiya va meditsina virusologiyasi bo'yicha eng katta yutuqlardan biri - bu epidemik ensefalitning kasallik o'chiqlarini aniqlashdan biri hisoblanadi. 1937 yilda birinchi ekspeditsiya L.A. Zilber rahbarligida, E.N.Levkovich, A.K.Shubladze, M.P.Chumakov, V.D.Solovyev va boshqa olimlar bilan birgalikda amalga oshirilgan. Bu o'tkazilgan tadqiqotlarning natijasida kana ensefaliti virusi aniqlandi va bu virusning tashuvchisi – qon so'ruvchi kanalar ekanligi aniqlandi, laboratoriya diagnostikasi, profilaktikasi va davolash metodi ishlab chiqildi. Ushbu davrda olimlar tomonidan gemmorogik isitma virusi aniqlandi va uning diagnostikasi va davolashi uchun preparatlar ishlab chiqildi.

1939-yilda viruslarni o'rganishda birinchi marta elektron mikroskop qo'llanildi, uning ko'rsatish aniqligi 0,2-0,3 nm darajasida edi. To'qimalarning o'ta yupqa kesmalarini olish va ishlatish, shuningdek, viruslarning suvli suspenziyalarini negativ kontrastlash usuli virus va hujayra o'rtasidagi munosabatlarni hamda virionlarning strukturasi (arxitekturasini)ni o'rganish imkonini berdi. Elektron mikroskop yordamida olingan kristallar va psevdokristallar haqidagi ma'lumotlar rentgenostruktura analizi yordamida yanada kengaytirildi. Elektron mikroskopning takomillashtirilishi viruslarni skanerlash orqali ularning ma'lum hajm va shaklini ko'rish imkoniyatini yaratdi. Ushbu texnologiya viruslarning arxitekturasini, ayniqsa, hujayraga kirish jarayonini chuqur va mukammal o'rganish imkonini berdi.

Bu davrga kelib viruslarning asosiy qismlari kashf qilindi. Misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1931-yilda cho'chqa grippi virusi va otlarning g'arbiy ensefaliti viruslari, 1934-yilda parotit virusi, 1936-yilda sichqonlarning sut bezlari raki virusi, 1937-yilda esa kana ensefaliti viruslari aniqlangan.

40-yillarda virusologiyada eksperimental model sifatida gripp, chechak va boshqa viruslarga sezgir bo'lganligi sababli tovuq embrionidan foydalanila boshlandi. Bu usulning virusologiyada qo'llanilishi avstraliyalik virusolog va immunolog olim F.M. Bernetning xizmati katta va u "Virus organism singari" virusologiya qo'llanmasining muallifi hisoblanadi.

1941-yilda amerikalik virusolog Xerst gemoagglutinatsiya hodisasini virus va hujayra munosabati modeli sifatida gripp va eritrositlar asosida aniqladi. 1940-yillar davomida virusologiyada muhim

kashfiyotlar qilindi. 1940-yilda Xogland va uning safdoshlari ospovaksina virusining faqat DNK tutishini isbotlashdi. Shu bilan birga, viruslarning bakteriyalardan farqli jihatlaridan biri, ularda faqat bir turdagi nuklein kislotaning (DNK yoki RNK) mavjudligi ekanligi aniqlandi.

1941-yilda amerikalik olim Xerst gripp virusi modelida gemagglyutinatsiya fenomenini (eritrotsitlarning yopishishi) kashf qildi. Bu kashfiyot viruslarni ajratish va identifikatsiya qilish hamda virus va hujayra o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishning asosi bo'ldi. Gemagglyutinatsiya metodi ko'plab boshqa metodlarning rivojlanishiga zamin yaratdi, jumladan:

- **RGA** (reaksiya gemagglyutinatsiya) – viruslarni aniqlash va titrlash uchun ishlatiladi;

- **RTGA** (reaksiya tormojeniya gemagglyutinatsii) – gemagglyutinatsiyani tormozlash reaksiyasi.

1942-yilda Xerst gripp virusida ferment mavjudligini aniqladi, bu ferment keyinchalik neyraminidaza ekanligi isbotlandi. 1949-yilda esa hayvon to'qimalari hujayralarini sun'iy muhitda o'stirish imkoniyati kashf qilindi, bu virusologiya sohasida yangi imkoniyatlarni ochdi.

1945-yilda Qrim gemorragik isitmasi virusi, 1948-yil Koksaki viruslari kashf qilindi.

Virusologiyaning hujayra dajasidagi tadqiqotlarining rivojlanishi (50-yillar). 1949 yildagi shun'iy ozuqa muhitida hujayra kultruasining yaratish kashfiyoti virusologiya tarixida eng muhim ahamiyat kasb etdi. 1952 yilda Dj.Enders, T.Ueller, F.Robbins hujayra kulturasi metodini ishlab chiqqanligi uchun Nobel mukofotiga sazovor

bo'lishdi. Hujayra kulturasini virusologiyada qo'lanishi katta revolyutsion hodisa sifatida, juda ko'pgina yangi viruslarni ajratib olinishiga, ularni identifikatsiya qilishga, ko'paytirish, ularning hujayra bilan munosabatlarini o'rganishga asos bo'lib xizmat qilgan. Kultural vaksina olish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu imkoniyat polimiyelit virusiga qarshi vaksina yordamida asoslab berilgan. Amerikalik virusolog olimlar Dj.Solkom va A.Seybinom hamda sobiq sovet ittifoqi olimlari M.P.Chumakov, A.A.Smorodinsevlarning hamkorligi tufayli polimiyelitga qarshi tirik va o'lik vaksinalarni ishlab chishi texnologiyasi ishlab chiqildi, sinovdan o'tkazildi hamda amaliyotga joriy etildi. 1959 yilda butun Sobiq sovet ittifoqi bo'yicha 15 mlnga yaqin bolalar tirik polimiyelit vaksinasi bilan emlangan, natijada bolalar orasida polimiyelit virusi bilan kasallanish darajasi tezda kamaydi, kasallikning paralichar formasi yo'qoldi. 1963 yilda M.P.Chumakov va A.A.Smorodinsev davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, Dj.Enderson va A.A.Smorodinsevning o'zaro hamkorligi hujayra kultruasi asosida qizamiqning tirik vaksinasi olindi va qizamiq virusiga qarshi keng mashstabda qo'llanildi hamda infeksiyani kamaytirishga erishildi.

Bundan tashqari enseflit, yashur, quturish kabi kultrural vaksinalar amaliyotga keng mashstabda joriy etildi.

1952-yilda Enders, Ueller va Robinslar hujayralarni o'stirish metodini ishlab chiqqanliklari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi. Ushbu metodning virusologiyada qo'llanilishi viruslarni ko'paytirish orqali vaksinalar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratdi, bu esa virusli kasalliklarga qarshi kurashda muhim qadam bo'ldi.

Hozirgi kunda “attenuatsiyalangan” virus shtammlari asosida o‘stirilgan tirik va o‘ldirilgan vaksinalarni yaratish keng qo‘llanilmoqda. Ushbu vaksinalar qatoriga poliomielit, parotit, qizamiq va qizilcha (krasnuxa)ga qarshi vaksinalarni kiritish mumkin. Bu yondashuv virusli kasalliklarga qarshi samarali profilaktika choralarini ta‘minlaydi.

Poliomielitga qarshi vaksinalar amerikalik virusologlar Sebin va Solk tomonidan ishlab chiqilgan. Sebin poliovirus shtammlarining uchta serotipiga asoslangan attenuatsiyalangan uch valentli tirik vaksina yaratdi, Solk esa o‘ldirilgan uch valentli vaksina ishlab chiqdi. Ushbu vaksinalarni yaratish texnologiyasi Rossiya virusologlari Chumakov va Smorodinsevlar tomonidan yanada takomillashtirildi, bu esa poliomielitga qarshi kurashda muhim yutuq bo‘ldi.

1950-yilda F. Bobbins va J. Enders virusologiyada inqilobiy yondashuvni kashf etdilar — viruslarni ko‘paytirish uchun to‘qima kulturalarini ishlatish metodini ishlab chiqdilar. Ushbu metod har qanday hujayra kulturasini o‘stirish imkoniyatini yaratdi. To‘qima kulturalarining qalinligi bir hujayradan iborat bo‘lib, ular barcha hujayralarni zararlash imkonini berdi va viruslarni maksimal miqdorda ajratish imkoniyatini ta‘minladi, bunda hujayra oqsillari minimal darajada bo‘ladi. To‘qima kulturalarida viruslarni o‘stirish jarayonida virusning sitopatik ta‘siri natijasida hosil bo‘ladigan xarakterli sitopatik o‘zgarishlar — “blyashka”lar yoki dog‘lar asboblarsiz ko‘rish va aniqlash mumkin bo‘ldi. Shuningdek, ko‘p viruslar to‘qima kulturasida o‘sganda gemaadsorbsiya hodisasini (gemagglyutinatsiyaga o‘xshash) namoyon qildi. Ushbu hodisaning spesifik bo‘lishi to‘qima kulturalarida viruslarni titrlash va maxsus zardoblar bilan neytralizatsiya reaksiyalarini amalga

oshirish imkonini berdi. Bu yondashuv virusologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Endilikda, virus turiga qarab hayvonlarning virus kasalligiga nisbatan sezgirligi turlicha bo'lishi kabi chegaralar yo'qoldi. 50-yillarda to'qima kulturalarini qo'llash metodi virusologiyaning barcha tarmoqlarida keng joriy etildi va bu yondashuv avval noma'lum bo'lgan ko'plab viruslarning kashf etilishiga olib keldi.

1952-yilda Dulbekko tomonidan tovuq embrioni hujayralarining monosloyi asosida blyashkalarni titrlash metodi ishlab chiqildi. Ushbu metod virusologiyaga viruslarni miqdoriy aniqlash imkoniyatini kiritdi va tadqiqotlarda yangi yo'nalishlarni ochdi.

Shu davrda bakteriofaglar sohasida ham katta yutuqlarga erishildi, bu mikrobiologiya va virusologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1950-yilda Lvov va hamkasblari lizogen faglar profagining induksiyasini isbotlashdi. 1952-yilda Xershi va Cheyz bakteriofaglarining yuqumliligi uning oqsiliga emas, balki faqat DNK ga bog'liqligini aniqlashdi. Shu yili Sinder va Lederberg umumiy transduksiya hodisasini kashf qilishdi. 1955-1957-yillar davomida Frenkel-Konrat, Vilyams va Singer tamaki mozaikasi virusini rekonstruksiyalangan yuqumliligi saqlangan zarralarini olishga muvaffaq bo'lishdi.

1955-yilda Shaffer va Shverdlar poliomielit virusini kristall holatida olishga erishishdi. Ushbu yillarda quyidagi viruslar kashf qilindi: 1951-yilda sichqonlar leykozi va ESNO viruslari, 1953-yilda adenoviruslar, 1954-yilda qizilcha (krasnuxa) virusi, 1956-yilda paragripp,

sitomegalovirus va respirator-sinsitial viruslar, 1957-yilda polioma virusi, 1959-yilda esa Argentina gemorragik isitmasi virusi.

1957-yilda N. Huxley elektron mikroskop yordamida viruslarni negativ kontrastlash usulini joriy qildi. Bu usul viruslarning ayrim strukturalari va makromolekulalarini aniq farqlash imkonini yaratdi va virusologiyada muhim o‘rin egalladi.

1941-yilda Kuns (A. Coons va hamkorlari) tomonidan antitelolarni flyuoroxromlar bilan markirovka qilish usuli ishlab chiqildi. Ushbu usul lyumenessent mikroskop yordamida hujayrada to‘plangan virus oqsillarining dinamikasini o‘rganish imkonini yaratdi va virusologiya tadqiqotlarida yangi bosqichni boshlab berdi. 1959-yilda S. Singer tomonidan ferritin-kon’yugirlangan antitelolarni qo‘llash virus oqsillarini elektron mikroskopda kuzatishda spetsifik kontrastlash imkonini yaratdi. Shuningdek, sentrifugalashni takomillashtirish, ionalmashish smolalari va boshqa adsorbentlarni qo‘llash, spektroskopiya texnikasini ishlatish virus oqsili va nuklein kislotalarini fraksiyalarga ajratish imkoniyatini taqdim etdi. Radioaktiv izotoplar va avtoradiografiya texnikasi hamda rentgenostruktura analizlarining qo‘llanilishi virusologiyada yanada aniq va ishonchli natijalar olishga yordam berdi. Ushbu yutuqlar viruslarning strukturalari va funksiyasini chuqurroq tushunishga katta hissa qo‘shdi.

Virusologiyaning molekulyar darajadagi tadqiqotlari (60-yillar). Virusologiyada molekulyar biologiya metodlarining keng qo‘llanilishi hamda ular genomining molekulyar biologiya modeli sifatida qo‘llanilishiga olib keldi. Hech qaysi molekulyar biologiyaning kashfiyoti virus modelisiz qilinmagan, ularga genetik kod, hujayra ichi genom ekspressiyasi, DNK replikasiyasi, informason RNK prosessingi

va boshqalarni keltirish mumkin. O'z navbatida molekulyar biologiya metodlarining virusologiyada qo'llanilishi viruslar induvidiumlarning (atama A.Lvov) tuzilishi (arxitekturasini), virusning hujayraga kirishi va reproduksiyasi kabilarni aniqlash imkonini bergan.

1960-yillarga kelib, molekulyar biologiya metodlarining viruslarni tavsiflashda keng qo'llanilishi yangi davrni boshlab berdi. Kimyo, fizika, molekulyar biologiya va genetika fanlaridagi yutuqlar virusologiyaning rivojlanish metodikasining poydevorini yaratdi. Molekulyar biologiyaning deyarli barcha yutuqlari viruslarni model sifatida qo'llash orqali amalga oshirildi.

1967-yilda Kates va Mak Auslan ospovaksina virusining tarkibida DNK-mute (zavisimiy) RNK polimerazani aniqlashdi. 1968-yilda reoviruslar, paramikso- va rabdoviruslarda, shuningdek, Yakobson va Baltimorlar tomonidan RNK polioviruslarida genom oqsili mavjudligi isbotlandi. Keyinchalik, Baltimor va Bostonlar poliovirus genomi RNK-si asosida poliprotein sintezining translyasiyasini amalga oshirishdi.

1960-yilda rinoviruslar, 1963-yilda Avstraliya antigeni (HBsAg) kashf qilindi, bu esa virusologiyada muhim yutuqlardan biri bo'lib, molekulyar biologiya va klinik tadqiqotlar rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Virusologiyaning submolekulyar darajadagi tadqiqotlari (70-yillar). Molekulyar biologiyaning rivojlanishi nuklein kislotalar va oqsillarning birlamchi strukturalarini aniqlash imkonini berdi. DNKni sekvenirlash metodlarining yaratilishi, oqsil aminokislota ketma-ketligini aniqlash imkonini berdi. DNK tutuvchi viruslar genomining genetik kartasini ilk bor olishga erishildi.

1970 yilda D.Baltimor va G.Teminim hamda S.Mizutan RNK tutuvchi onkogen virus genomi tarkibidagi teskari transferaza fermentini aniqlashdi. Matrisada bu ferment yordamida real vaqtda ushbu genining sintezlanishi, iRNK polisomasidan ajartilgan. RNKni DNKga o'tkazib sekvenirlash natijasida undagi ma'lumotni aniqlash imkoni paydo bo'ldi.

1970-yillarda Baltimor bilan bir vaqtda Tyomin va Mizutanilar RNK-tutuvchi onkogen viruslar tarkibida qaytalama transkriptaza (revertaza) fermenti mavjudligini xabar qilishdi. Bu kashfiyot RNK-tutuvchi viruslar genomini o'rganishni real haqiqatga aylantirdi.

Eukariotlar viruslari genlari ekspressiyasini o'rganish molekulyar biologiya sohasida fundamental axborotlarni taqdim etdi. Shu tadqiqotlar natijasida mRNKdagi kep-strukturalarning borligi va ularning RNK translyasiyasidagi roli, mRNKning 3'-oxirida poliadenil kislota ketma-ketligining mavjudligi, splaysing va enhanserlarning transkripsiyadagi ahamiyati hayvon viruslarini o'rganish jarayonida ochildi.

1972-yilda Berg DNK molekulasining rekombinantlarini yaratish haqida ma'lumot chop etdi, bu bilan molekulyar biologiyaning yangi bo'limi – gen injeneriyasi asos solindi. Ushbu texnologiya tibbiyotda muhim oqsillar, masalan, insulin, interferon va vaksinalarni olish imkonini yaratdi.

1975-yilda Keler va Milshteynlar monoklonal antitelalarni (MKA) hosil qiladigan gibrid liniyalarni birinchi bor olishdi. MKA asosida viruslarni diagnostika qilish uchun eng spesifik test-sistemalar ishlab chiqildi.

1976-yilda Blamberg HBsAgni kashf qilgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Shu yillarda gepatit A va gepatit B har xil viruslar tomonidan qo'zg'atilishi tasdiqlandi.

1970-yilda B-gepatiti virusi, 1973-yilda rotaviruslar va A-gepatiti virusi, 1977-yilda esa delta-gepatiti virusi kashf qilindi. 1972-yilda gen injeneriyasi paydo bo'lib, molekulyar biologiyada yangi davr boshlandi. Ushbu yili AQShda P.Berg tomonidan DNKning rekombinant molekulasini olishga erishdi va u gen injineriya erasiga asos solindi. Prokariot va eukariot genomi tarkibiga rekombinat DNKni kiritib juda ko'p miqdorda nuklein kislotalar ham oqsillarni olish imkoni paydo bo'ldi. Bu usulning qulayligi shundaki ushbu usul yordamida meditsinada qo'llailadigan arzon oqsillar (insulin, inteferon) va qishloq xo'jaligi mollari uchun arzon oqsilli ozuqalar olish imkonini berdi.

Bu bosqich mediterrana virusologiyasi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu tadqiqotlar negizida inson uchun katta zarar keltiruvchi uchta keng tarqalgan kasalliklar – gripp, rak va gepatit kabi virusli kasalliklarni va ularga qarshi kursh choralarini olib borish uchun muhim hisoblanadi.

Takroriy holatda takrorlanadigan gripp pandemiyasining sabablari o'rganilgan. Hayvonlar raki virusining hujayrada o'smani kelib chiqaruvchi genom strukturalari o'rganildi va identifikatsiya qilindi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida gepatit A va B viruslari ikkita tur viruslar: ya'ni gepatit A virusi RNK-tutuvchi, pikarnoviruslar oilasiga, gepatit B – DNK tutuvchi, gepadnoviruslar oilasiga mansub viruslar hisoblanishi aniqlangan. 1976 yilda G.Blamberg Avstraliyada yashovchi aborijenlar qonini o'rganib, ularning qonida boshqa odamlar

qoida mavjud bo'lmagan alohida antigen mavjudligini aniqlagan, keyinchalik esa bu antigen gepatit B virusining antigeni ekanligi aniqlangan. Ushbu kashfiyoti uchun G.Blamberg 1976 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

1980-yillarda L.A. Zilber tomonidan o'smalar paydo bo'lishining viruslarga bog'liqligi haqidagi nazariya rivojlandi. O'smalarning rivojlanishiga sabab bo'ladigan virus qismlari onkogenlar deb nomlandi. Virus onkogenlari sutemizuvchilar hujayralarining onkogenetik transformatsiya mexanizmini o'rganishda eng yaxshi model sistema ekanligi tasdiqlandi.

yo‘qotgan. O‘sha davrda buni isbotlash mushkul bo‘lsa-da, hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida bunday holatlarni isbotlash ancha osonlashgan. Shu sababli, o‘simlik viruslarini bioterrorizm maqsadlarida ishlatish imkoniyatlarini va ularning global oziq-ovqat xavfsizligiga ta‘sirini chuqur o‘rganish zarur.

3.3.1. Viruslarni amaliy maqsadlarda ishlatilishi imkoniyatlari

Viruslar kasallik qo‘zg‘atib zarar keltiruvchi biologik mavjudot sifatida tanilgan bo‘lsa-da, ularning ushbu xususiyatlarini foydali maqsadlarda qo‘llash imkoniyati ham mavjud. Olimlar viruslardan turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda foydalanmoqdalar. Masalan, **qorin tifi** va **dizenteriyaga** qarshi bakteriofaglardan foydalanish orqali **fagoterapiya** usuli qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, bakteriyalarning antibiotiklarga qarshiligi oshib borayotgan sharoitda bakteriofaglarni bakteriyalarga qarshi ishlatish virusologiya sohasida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bakteriofaglarni ajratib olish uchun tashqi muhitdan yoki bakteriya kulturasi namunasi bakterial filtrdan o‘tkaziladi. Filtrat sezgir bakteriya uchun mo‘ljallangan oziqa muhitiga qo‘shiladi va belgilangan vaqt va temperaturada inkubatsiya qilinadi. Inkubatsiyadan so‘ng bakteriya o‘smagan bo‘lsa, bu o‘sha oziqa muhitida bakteriofag borligidan dalolat beradi. Keyinchalik oziqa muhitdagi bakteriofaglar bakterial filtrdan o‘tkazilib, tozalangan fag zarrachalari ajratib olinadi. Agar bakteriya o‘ssishi davom etsa, bu muhitda ushbu bakteriyaga mos fag yo‘qligini ko‘rsatadi.

Bakteriyalarni bakteriofagga sezgirligiga qarab **fagotiplarga** ajratish usuli qo'llaniladi. Bu usulda bakteriyalarning fag tomonidan lizisga uchrashiga qarab ularni tiplarga ajratish amalga oshiriladi.

Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: O'rganilayotgan bakteriyalar yoki shtamm **Petri chashkasidagi agar oziqa muhitiga** bir tekisda ekiladi ("gazon" usuli). Keyin bakteriofag tomiziladi va muhit belgilangan sharoitda inkubatsiya qilinadi. Inkubatsiya davri tugagach, **Petri chashkasida hosil bo'lgan steril shaffof dog'lar** ("blyashkalar") hisoblanadi. Dog'larning soni va joylashuviga qarab fag turi (fagovar) aniqlanadi. Bu orqali bakteriyani lizis qiluvchi faglar tiplari ro'yxati belgilanadi. Ushbu usul bakteriyalarning sezgirligini o'rganishda va fagoterapiya yo'nalishini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo'llanilgan texnologiyalar: **«FSMU» metodi**

Texnologiyaning maqsadi: Ushbu texnologiya ishtirokchilarning umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash va qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu texnologiya bilimlarni mustahkamlash va talabalarning tahliliy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

«FSMU» metodi

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab bering va misol keltring
U	• fikringizni umumlashtiring

Topshiriqlar:

1. Viruslarning kelib chiqishi haqidagi qanday fikrlar mavjud FSMU texnologiyasi asosida izohlab bering.
2. Viruslarning ahamiyatini izohlab bering, foydali va zararli tomoni qanday?
3. Viruslarni qanday maqsadlarda ishlatih mumkin?
4. Viruslarning amaliy maqsadlarda ishlatilishini izohlab bering?

Savollar?

1. Viruslarning kelib chiqishi haqida qanday gepotezalar mavjud?
2. Viruslarning qanday ahamiyati mavjud?
3. Viruslarning foydali maqsadlarda qo'llanilishi qachondan va nima maqsadda qo'llanilgan?
4. Qaysi virusologik tashkilotlarni bilasiz va bu tashkilotlar tomonidan qanday ilmiy yangiliklar bo'lgan?
5. Viruslarni qanday maqsadlarda ishlatish mumkin?
6. Bakteriyal viruslarning qo'llanilish imkoniyatlari qanday?
7. Viruslarnig biotexnologiyada qo'llanilish imkoniytlarini izohlab bering.
8. Insoniyat tarixida eng birinchi marta foydali maqsadlarda qo'llanilgan virus qaysi?

4-BOB. VIRUSLAR MORFOLOGIYASI, MORFOGENEZI VA BIOFIZIKAVIY XUSUSIYATLARI

4.1. Viruslarning morfologiyasi

Viruslar tashqi ko‘rinishi, o‘lchamlari va morfologik xususiyatlariga ko‘ra turli xil shakl va tuzilmalarga ega. O‘simlik, odam va hayvon viruslari, shuningdek, faglar va boshqa prokariot hamda eukariot viruslari o‘ziga xos morfologiyaga ega.

Quyida viruslarning shu kungacha o‘rganilgan vakillarini adabiyot, internet manbalari va o‘z bilimlarimiz asosida to‘rt asosiy toifaga ajratib ko‘rsatamiz: tayoqchasimon, ipsimon, sferasimon va murakkab qobiqli tuzilishga ega bo‘lgan viruslar.

a) O‘simlik viruslarining morfologiyasi. O‘simlik viruslarining shakllari haqida ma’lumotlar “Rotamsted tajriba stansiyasi” va “Shotlandiya bog‘dorchilik ilmiy tadqiqot instituti” tomonidan tayyorlangan elektron mikrofotografiyalardan olinadi. Bu materiallar Gibbs va Xarrison tomonidan 1978-yilda Moskva davlat universiteti virusologiya kafedrasi olimlari tomonidan tarjima qilingan va akademik I.G. Atabekovning tahriri ostida chop etilgan “O‘simlik virusologiyasi asoslari” kitobida rasmlar shaklida taqdim etilgan. Mazkur kitobning ilova qismidagi rasmlarga qaraganda, o‘simlik viruslari tayoqchasimon, ipsimon, batsillasimon, sferasimon va boshqa shakldagi zarrachalar sifatida tasvirlangan (10-rasm). Ayrim tayoqchasimon virus zarrachalarida RNK kanali ham yaqqol ko‘zga tashlanadi, bu esa ularning ichki tuzilishini batafsil tushunishga imkon beradi.


b) Faglarning morfologiyasi. Faglarning morfologiyasi ilovadagi chizmada ko‘rsatilgan. Chizmaga qaraganda, ko‘pchilik faglar murakkab

tuzilishga ega ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning zarrachalari bosh va dum qismlardan iborat. Bosh qismi odatda turli o‘lchamdagi geksagonal shaklga ega bo‘ladi. Dum qismlari esa uzun yoki qisqa, ingichka yoki yo‘g‘on bo‘lishi mumkin. Ayrim faglarning dum qismlarida o‘zak (sterjen) qismi va uning po‘stida (chexol) bir nechta fibrillalar mavjudligi kuzatiladi. Shu bilan birga, fagglar orasida yangi o‘rganilgan sferasimon, ipsimon va boshqa shakldagi vakillar ham aniqlangan bo‘lishi mumkin. Bu turli xil shakllar faglarning genetik va morfologik xilma-xilligini aks ettiradi.


v) Odam va hayvon viruslarining morfologiyasi Odam va hayvon viruslarining shakllari ko‘pincha sferasimon, oddiy yoki murakkab tuzilishga ega zarrachalardan iborat. Ular quyidagicha tasniflanadi: Qobiqli va qobiqsiz viruslar: Ba’zi viruslarning qobig‘i mavjud bo‘lib, unda turli ko‘rinishdagi o‘simtalar yoki o‘simtasiz shakllar kuzatiladi. Ushbu viruslarning tuzilishlari va xususiyatlari batafsil ravishda “Odam va hayvon viruslari va kasalliklari” bobida keltiriladi. 11-12-rasmlar ushbu viruslarning shakllari va tuzilishlari haqida to‘liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

g) Amyobalardan ajratilgan mimiviruslarning morfologiyasi. Mimiviruslar morfologiyasi birinchi marta **1992-yilda Acanthamoeba polyphaga** amöbasidan (APMV) ajratib olingan va shu amöba sharafiga nomlangan. Ushbu organizmni ajratib olingan joy – Angliyaning Bredford shahri – sharafiga **Bradfordcoccus** deb atashgan. Dastlab, mimivirus yagona yirik virus deb hisoblangan. Ammo **2011-yil oktabr oyida** undan ham yirik virus — **Megavirus chilensis** kashf etildi (9-rasm). **Mimivirus** diametri taxminan **500 nm** bo‘lib, ancha yirik


viruslardan biri hisoblanadi. **Megavirus** esa mimivirusdan ham kattaroq ekanligi aniqlandi. Bu kashfiyotlar yirik viruslarning xilma-xilligini va ularning eukariot hujayralar bilan aloqasini o'rganishda yangi istiqbollarni ochib berdi.




9-rasm. Mimiviruslar tuzlishi. Mimiviruslarni elektron mikroskopda ko'rinishi



10-rasm. Beda mozaika virusi



11-rasm. Gripp virusining elektronmikrofotografiyasi.



12-rasm. OITS- virusining elektronmikrofotografiyasi.
Kattalashtirilishi 50000 X.

To‘g‘nag‘ichsimon (kolbasimon) viruslar. Bakteriofaglarning **T-guruhi** vakillari (masalan, T-1, T-2) murakkab viruslar guruhiga kiradi. Ularning virus zarrachalari ikki asosiy morfologik qismdan tashkil topgan: **bosh qismi, dum qismi**. Ushbu tuzilma ularga o‘ziga xos shakl va funksional xususiyatlarni beradi (13-rasm). Bu morfologik

xususiyatlar T-guruh vakillarini boshqa viruslardan farqlash va ularning bakteriyalar bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Virus zarrachalarining o‘ziga xos tuzilishi uning asosiy vazifasi — o‘ziga o‘xshash zarrachalarni hosil qilish imkoniyatini ta’minlaydi. **Nuklein kislota** virusning genetik funksiyasini bajarib, genetik axborotni saqlaydi va uzatadi. **Oqsil qismi** esa nuklein kislota tashqi muhitning zararli ta’siridan to‘liq muhofaza qiladi, virus zarrasining avtonomligini ta’minlaydi va uning turg‘unligini oshiradi. Ushbu tuzilma virusning tashqi muhitda uzoq muddat faol bo‘lishiga imkon yaratadi.



13-rasm. T-2 bakteriofagining elektron mikrofotografiyasi

4.2. Virus nukleoproteidining o‘lchamlari

Viruslarning hujayradan tashqaridagi holati, ya’ni **virionlari**, har xil morfologiyaga ega bo‘lishi yuqorida qayd etilgan. Ularning o‘lchamlari ham xilma-xildir va **nanometrlar (nm)** bilan o‘lchanadi. Viruslar ma’lum muhitda o‘z morfologik va funksional xususiyatlarini (yuqumliligi, antigen strukturalari, sedimentatsiya koeffitsienti,

izoelektrik nuqta va boshqa xususiyatlar) optimal ravishda saqlaydi. Quyidagi jadvalda turli viruslarning o'lchamlari keltirilgan (1-jadval):

- **Tamaki mozaikasi virusi (TMV):** Uzunligi 300 nm, eni 18 nm.
- **Kartoshkaning X-virusi:** Uzunligi 450 nm, eni 13 nm.
- **Qant lavlagining sariq virusi:** Uzunligi 1200 nm, eni 10 nm.

Ushbu viruslarning umumiy xususiyati — RNK va oqsildan tashkil topgan bo'lsa-da, ular turli o'simliklarda kasalliklar keltirib chiqaradi. Morfologik jihatdan ular quyidagicha tasvirlanadi: **TMV:** Qattiq, mo'rt, oson sinuvchan zarrachalarga ega. **Kartoshka X-virusi va qant lavlagi sariq virusi:** Uzunliklari TMVdan **1,5–4 barobar** uzun, ammo enlari ingichka. Shu sababli, bu viruslar oson egiluvchan, zarrachalari bir-biriga matashuvchan va bukiluvchanlik xususiyatlariga ega. Bu morfologik farqlar ularning o'ziga xos yuqumlilik va tarqalish mexanizmlariga ta'sir ko'rsatadi.

Sferasimon viruslarning o'lchamlariga nazar tashlasak, ular juda kichik bo'lib, diametri **20-305 nm** oralig'ida o'zgaradi. Bu viruslardan faqat "**Quturish virusi**" va "**Qoramol chechagi virusi**" kattaroq bo'lib, qolgan barcha sferasimon viruslarning diametri odatda **30-50 nm** dan oshmaydi.

Har xil shaklli viruslarning o'lchamlari (1)

Virus zarrachalari	O'lchami (nm)
Tayoqchasimon yoki ipsimon viruslar	300x18
Tamaki mozaikasi virusi	450x13
Kartoshkaning X-virusi	1200x10
Qand lavlagi sariq virusi	
Sferasimon virus zarrachalari	30
Bodring mozaika virusi	25
Arpa sariq pakana virusi	26
Tamaki nekrozi virusi	28
Tupneps sariq mozaikasi virusi	50
Gulkaram mozaikasi virusi	110—120
Quturish virusi	225—305
Qoramol chechagi virusi	27
Poliomielit virusi	20—32
Yashchur(oqsim) virusi	
Bakteriofaglar	47—104
boshchasi	10—225
dumi	
Batsillasimon shakldagi zarrachalar	58X18+52x18+42X18
Beda mozaikasi virusi	380x75
Kartoshka sariq pakana virusi	

Ushbu viruslar minimal viruslar guruhiga kiradi va tarkibida faqat **oqsil** va **nuklein kislotalardan** (DNK yoki RNK) tashkil topgan. Ularning kichik hajmi va oddiy tuzilishi biologik faoliyatlarida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Batsillasimon shakldagi viruslar. "Beda mozaikasi virusi"

batsillasimon shakldagi zarrachalarga kiradi va uning morfologiyasiga nazar tashlaganda, zarrachalari uch xil tipga bo'linishi aniqlangan: **58 x 18 nm, 52 x 18 nm, 42 x 18 nm**. Ushbu zarrachalar o'lchamlari bir-biridan farq qiladi, bu esa virusning morfologik xilma-xilligini ko'rsatadi.

Jadvalda keltirilgan viruslar orasida eng uzun zarracha **"Qand lavlagi sariq virusi"** bo'lib, uning o'lchami **1200 x 10 nm** ni tashkil qiladi. Eng kichik virus esa **yashchur (oqsim) virusi** bo'lib, uning diametri atigi **20–32 nm**.

Jadvaldagi barcha viruslar DNK yoki RNK tutuvchi viruslar hisoblanadi. RNK tutuvchi viruslar orasida ikosaedrik tuzilishga ega bo'lganlari bilan tayoqchasimon yoki ipsimon zarrachalarini solishtirganda, nuklein kislotasi miqdori sezilarli farq qiladi. **Tayoqchasimon va ipsimon viruslar** tarkibida nuklein kislotaning miqdori atigi **5–7%**, **sferasimon viruslarida** esa bu ko'rsatkich **20% atrofida** ekanligi kuzatiladi. Bu farq viruslarning struktura va funksional xususiyatlarida o'z ifodasini topadi.

4.3. Viruslarni strukturasi va molekulyar tuzilishi

Viruslarning tuzilishi va tarkibi. O'simlik viruslarining ko'pchiligi sfera yoki tayoqcha shakliga ega bo'lib, ular oqsilli qobiq va uning ichida joylashgan nuklein kislotadan iborat. Ularning tarkibidagi nuklein kislotaning miqdori turlicha bo'lib, 15-45% atrofida bo'ladi. Spiral simmetriyalı viruslarda bu ko'rsatkich 5%, batsillasimon viruslarda esa 1% ga yaqinlashadi. Ayrim vakillarda 20% ga yaqin lipidlar ham

uchrashi mumkin. Bundan tashqari, virus kristallari tarkibida 50% gacha suv bo'lishi mumkin.

D.I. Ivanovskiy birinchi bo'lib tamaki mozaikasi virusining mozaika alomati mavjud barglaridagi hujayralarda virus kristallarini kuzatgan (Ilova, 16-rasm). Ushbu kristallar erituvchilarda yaxshi eriydi va kasallangan hujayradan amorf holda ajratib olinishi, so'ngra qaytadan kristall shaklida hosil qilinishi mumkin. Har bir kristall millionlab virus zarrachalaridan (ba'zan virus-spetsifik oqsillarni ham o'z ichiga olgan) tashkil topadi.

Tamaki mozaikasi virusining zarrachasi oqsildan tashkil topgan qavat bilan o'ralgan bo'lib, bu qavat **kapsida** deb ataladi. Kapsida esa subbirliklar — **kapsomerlardan** iborat. Har bir virusda kapsomerlar soni doimiy bo'lib, masalan, poliomielit virusida 32 ta, tamaki mozaikasi virusida esa 2130 ta subbirlik mavjud. Kapsida ichida joylashgan nuklein kislotasi **nukleokapsida** deb ataladi. Ba'zi viruslarda kapsida ustidan **qobiq (peplos)** bilan o'ralgan bo'ladi, va bu qobiq **peplomerlar** bilan qoplangan. Peplos tarkibida oqsildan tashqari lipidlar, glikoproteidlar va fermentlar ham uchrashi mumkin.

1955-yilda X. Frenkel-Konrat va R. Uilyams tamaki mozaikasi virusining RNKsini ajratib olib, uni tamaki o'simligiga yuqtirish orqali yangi virus zarrachalarining sintezlanganini isbotladilar. Tamaki mozaikasi virusining oqsili molekulyar massasi 18 000 Da, tarkibi esa 158 ta aminokislota qoldig'idan iborat. Virus zarrachasi oqsil va RNKdan tashkil topgan bo'lib, molekulyar massasi 40×10^6 Da ga teng.

Odam va hayvon viruslari orasida RNK va DNK tutuvchi turlari mavjud. **Poliomielit virusi** faqat bitta RNK molekulasi va oqsildan

iborat. **Gripp virusi** esa 8 ta RNK molekulasi, oqsil, lipid va uglevodlarni o'z ichiga oladi. Gripp virusida eritrotsitlar bilan reaksiyaga kirishuvchi fermentlar, jumladan, **neyraminidaza**, topilgan. **Bakteriofaglarning** dum qismida esa bakteriyalar (masalan, *E. coli*) hujayra po'stini erituvchi **lizotsim fermenti** aniqlangan.

Virion shaklidagi viruslar noqulay tashqi muhit omillariga nisbatan ancha chidamli. Masalan, kartoshka o'simligining **U-virusi** pH 4,5 da inaktivatsiyaga uchrasa, tamaki o'simligining virusi hatto pH 2 ga tushsa ham faol bo'lib qoladi. Virionlarning haroratga chidamliligi pH va shtammga bog'liq. Masalan, tamaki mozaikasi virusining "Qozoq shtammi" pH 7 sharoitida 82°C da parchalansa, "Tomat shtammi" 96–98°C da inaktivatsiyaga uchraydi. Eng chidamli bo'lgan no'xatning S-1 virusi esa 108°C da qisman inaktivatsiya qilinadi.

Ko'pchilik viruslar past haroratga yuqori darajada chidamli hisoblanadi. Masalan: Gripp virusi -70°C da 6 oy davomida faol bo'lib qoladi. Psittakoz virusi esa past haroratda bir yilgacha saqlanadi. Shunga qaramasdan, xona haroratida ushbu viruslar bir necha kun ichida nobud bo'ladi.

Ko'pchilik viruslar tezkor vakuumda quritilganda uzoq muddat davomida saqlanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Masalan, ensefalit virusi vakuumda quritilgan holda **besht yil** davomida faol saqlanishi mumkin. Biroq, ultrabinafsha nurlar viruslarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning yuqumlilik darajasini pasaytiradi va uzoq muddat ta'sir qilinganda butunlay inaktivatsiya qiladi. 1935-yilda amerikalik olim Stenli birinchi bo'lib tamaki mozaikasi virusining sof preparatini ajratib olib, viruslarni kimyoviy va fizikaviy usullar yordamida o'rganish imkoniyatini

ko'rsatdi. Ushbu usullarning qo'llanilishi natijasida viruslarning hajmi, shakli va molekulyar tuzilishi haqida ko'plab muhim ma'lumotlar olindi.


Viruslarning o'lchamini aniqlash uchun turli usullar qo'llaniladi: Filtrlash usuli: Virus zarrachalarini o'lchamlari avvaldan ma'lum bo'lgan kollodiy pardalardan o'tkazish orqali aniqlanadi. Sentrifugatsiya usuli: Yuqori tezlikda (bir daqiqada 30-60 ming aylanish) aylanuvchi sentrifugalarda virus zarrachalarini cho'ktirish yordamida hajm aniqlanadi. Elektron mikroskop: Virus zarrachalarining kattaligi, shakli, nozik qismlari va tuzilishini bir necha ming marta kattalashtirib kuzatish imkonini beradi.

Viruslar murakkabligiga qarab, jonsiz organik materiyalar va jonli bir hujayrali organizmlar o'rtasidagi bo'shliqni egallaydi. Ushbu o'rinda oddiy va murakkab viruslar bilan bir qatorda xlamidozoolar ham joylashadi. Xlamidozoolar tarkibida, hujayrali organizmlar singari, ikkala turdagi nuklein kislota (DNK va RNK) uchraydi. Ushbu guruhning oxirida rikketsiyalar joylashadi. Rikketsiyalar viruslar va bakteriyalar o'rtasida oraliq o'rin egallaydi. Ular sintetik apparatning yo'qligi va hujayra ichida parazitlik qilish xususiyatlari bilan viruslarga o'xshaydi, ammo morfologiyasi, ko'payish usullari va kimyoviy tarkibining murakkabligi bilan bakteriyalarga yaqinlashadi.

Zamonaviy fizik-kimyoviy, fizik va immunokimyoviy metodlar yordamida viruslarning nozik strukturalarini chuqur o'rganish davom etmoqda. Viruslar morfologiyasi va ultrastrukturasini tadqiq qilishda elektron mikroskopning ahamiyati juda katta. Tadqiqotlar natijasida virus zarrachalari – virionlar asosan ikki turga bo'linishi ma'lum bo'ldi: oddiy va murakkab viruslar. Oddiy virionlarning o'z navbatida ikki tipi mavjud:

sferasimon va tayoqchasimon. Tayoqchasimon virionlar esa yana tayoqchasimon va ipsimon turlarga ajratiladi.

1. Oddiy viruslarning tuzilishi (Tamaki mozaikasi virusining misolida): Tamaki mozaikasi virusi (TMV) birinchi bo‘lib kashf etilgan viruslardan biri bo‘lib, oddiy viruslar guruhiga kiradi va mukammal darajada o‘rganilgan. **1933-yilda** amerikalik olimlar Takaxashi va Roulinz TMV tayoqchasimon shaklga ega ekanligini aniqlashdi. Ular sog‘ va kasallangan o‘simlik shiralarini solishtirib o‘rganish orqali ushbu xulosaga kelishdi. Keyinchalik Stenli va boshqa olimlar tamaki mozaikasi virusining sof preparatini o‘rgangan holda, uning uzunligi **300 nm**, eni **18 nm**, va molekulyar massasi **40 000 000 Da** ekanligini aniqladilar. TMV tayoqchasimon shaklli bo‘lib, uzunligi eni bilan solishtirganda 17 baravar katta. Oqsil qavati **2130 ta subbirliklardan** – peptid zanjirlaridan tashkil topgan. Ushbu subbirliklar virus o‘qi atrofida **spiral simmetriya** bo‘ylab tartibli joylashgan (14-rasm, 1, 2). TMV tarkibi har tomonlama o‘rganilib, uning molekulyar og‘irligi bir xil (18 000 Da) bo‘lgan oqsil va molekulyar og‘irligi **2 000 000 Da** bo‘lgan nuklein kislotalardan iborat ekanligi aniqlangan. Virusning nuklein kislotalari oqsil qavati bilan to‘liq himoyalangan bo‘lib, uning tashqi muhit ta’siridan himoyalinishini ta’minlaydi.




14-rasm. Tamaki mozaikasi virusining tuzilishi:

1-virion; 2-virionning ultrastrukturasi; 3-oqsil subbirligi; 4-RNK; 5-virionning bir qavatida joylashgan subbirlklar (1).

Tamaki mozaikasi virusining subbirlklari shunday joylashganki, ular orasida joylashgan RNK to‘liq ribonukleazalardan himoyalangan.

Virus zarrachasining tarkibi **95% oqsil** va **5% nuklein kislota**dan iborat. Garchi nuklein kislota miqdor jihatidan kam bo‘lsa-da, virus zarrachalarining asosiy xususiyatlari aynan unga bog‘liq. Agar kimyoviy yo‘l bilan virus zarrachasidan nuklein kislota ajratilib olinib, sog‘lom tamaki bargiga yuqtirilsa, unda xuddi butun virus zarrachasi yuqtirilgandek kasallik alomatlari paydo bo‘ladi. Biroq, virus oqsilini sog‘lom tamaki bargiga yuqtirish hech qanday kasallik belgilari yuzaga kelishiga olib kelmaydi. Shunga qaramay, kasallantirish jarayonida virusning oqsili ham muhim rol o‘ynaydi. Oqsil nuklein kislota ni tashqi muhitning salbiy ta‘siridan himoyalabgina qolmay, balki kasallantiruvchi hujayra bilan virusning o‘zaro munosabatlarini ta‘minlashda ham katta ahamiyatga ega.

2. Murakkab viruslarning tuzilishi (Gripp virusining sxematik ko‘rinishi misolida): Gripp virusining zarrachasi (**virion**) bir nechta asosiy komponentdan tashkil topgan. U **oqsil pardasi** (kapsid) (15-rasm, 5) va uning ichida joylashgan **nuklein kislotani** (15-rasm, 4) o‘z ichiga oladi. Ushbu tarkibiy qismlar birgalikda **nukleokapsid** deb ataladi. Kapsidni tashkil etuvchi asosiy elementlar **kapsomer** deb nomlanadi. Kapsomerlar bir xil polipeptid zanjirchalaridan hosil bo‘lgan agregatlardan iborat. Nukleokapsid simmetrik tuzilishga ega bo‘lib, ichki qismi nukleoproteid zanjiridan iborat. Nukleoproteid zanjiri o‘z navbatida bir yoki bir nechta oqsil pardasi bilan qoplangan. Virion hujayra membranasidan o‘tish jarayonida "**peplos**" deb ataluvchi tashqi qavat bilan qoplanadi. Peplos qavati chechak, uchuq va miksoviruslar kabi viruslar uchun xosdir. Peplosni tashkil etuvchi elementlar **peplomer** deb nomlanadi va ular hujayra membranasidan kelib chiqqan oqsillardan hosil bo‘ladi.



15-rasm. Gripp virusining sxematik diagrammasi:

1-gemoagglutinin; 2-neyraminidaza fermenti; 3-lipid qobig‘i; 4-RNKning polinukleotid zanjiri; 5-oqsilli qobig‘i.

OITS virusining tuzilishi. 1983-yilda L. Montane OITVni retroviruslar guruhiga kirishini aniqladi. Retroviruslar lipid qobiqqa ega bo‘lib, ularning genomi RNK tipida bo‘ladi. Virion tarkibida **"qaytalama transkriptaza"** fermenti mavjud (hozirgi kunda yana ikkita ferment borligi aniqlangan). Ushbu ferment virus RNKsi asosida DNK nusxalari (**k-DNK**) sintez qiladi va u kasallangan odam hujayrasining genomiga joylashadi.

Virionning shakli sferik bo‘lib, uning tuzilishi murakkabdir. Markazida virus genomini o‘z ichiga olgan nukleoid joylashgan bo‘lib, u ichki oqsillar (p-7, p-9) bilan birgalikda mavjud. Virus genomi esa ikki mustaqil RNK zanjiridan iborat. Nukleoid oqsildan tashkil topgan kapsula bilan o‘ralgan. Virionning tashqi qavati ikkita lipid qavatidan iborat bo‘lib, u virus hujayradan chiqish jarayonida hosil bo‘ladi. Tashqi qavatda membrana bilan bog‘liq glikoproteid gp-41 mavjud bo‘lib, uning uglevod qismi molekular massasiga ko‘ra 41 kDa ga teng. Ushbu glikoproteid tashqi glikoproteid gp-120 bilan bog‘langan bo‘lib, gp-120 virionning o‘simtalari tarkibida joylashgan. O‘simtaning balandligi 9 nm, diametri esa 15 nm ni tashkil qiladi.

Elektron mikroskopda OITS virusi buyraksimon shaklga ega bo‘lib, zarrachaning markazida o‘roqsimon yadrosi mavjud. OITVning diametri odatda 100–140 nm ni tashkil etadi, ammo virus zarrachalari kattaligi 85–200 nm orasida farqlanishi mumkin.

Elektroforez usuli orqali OITV tarkibida molekulyar massasi 24–25 kDa (p-24), 16–18 kDa (p-16) va 12–13 kDa (p-12) bo‘lgan oqsillar mavjudligi aniqlangan. Tashqi glikoproteid gp-120 virion tarkibiga kiradi. gp-41 esa ikki qavatli lipid qobiqni teshib o‘tib, tashqi tomondan

gp-120 bilan bog‘lanadi. Ichki tomonda esa halqasimon uchastkalar orqali "virus skeleti"ga mahkamlanadi. Ushbu murakkab tuzilish virusning hujayraga kirishi va o‘z vazifalarini bajarishda muhim rol o‘ynaydi.

Viruslarning ontogenezida ikkita asosiy bosqich ajratiladi: **hujayradan tashqaridagi** va **hujayra ichidagi** sikl. Shu sababli, virus hayot faoliyatining ikki shakli mavjud bo‘lishi mumkin: **virion** (hujayradan tashqaridagi shakl) va **vegetativ** (hujayra ichidagi shakl).

Virion o‘zining o‘ziga xos arxitekturasiga ega bo‘lib, virusning nuklein kislotasini himoya qilish va uni sezgir hujayraga yetkazish funksiyasini bajaradi. Ushbu shaklning ultrastrukturasini tushunish uchun quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

1. **Oqsil subbirligi:** Polipeptid zanjirining ma’lum shaklda joylashgan asosiy birligi.

2. **Struktura birligi (elementi):** Yuqori darajadagi oqsil ansambli, bir nechta kimyoviy bog‘ orqali birlashgan identik yoki qarama-qarshi subbirliklardan tashkil topgan.

3. **Morfologik birlik:** Elektron mikroskopda kapsid yuzasida ko‘rinadigan o‘simtalar guruhi (**klaster**) bo‘lib, odatda **pentamer (besh birlik)** yoki **geksamer (olti birlik)** shaklida bo‘ladi. Ushbu hodisa **pentamer-geksamer klasterizatsiya** deb ataladi. Agar bu morfologik birlik kimyoviy ahamiyatga ega bo‘lsa, **kapsomer** atamasi ishlatiladi.

4. **Kor (sore):** Nuklein kislotaga bevosita bog‘langan ichki oqsil qobiq.

5. **Nukleokapsid:** Oqsil va nuklein kislota kompleksidan iborat bo‘lib, genomni saqlash shaklini tashkil etadi.

6. **Superkapsid (peplos):** Hujayra lipid membranasidan va virus oqsilidan iborat virion qobig'i.

7. **Matriks:** Superkapsid va kapsid orasida joylashgan oqsil qismi.

8. **Peplomer va tikanlar:** Superkapsid yuzasida joylashgan do'ngliklar yoki o'simtalar.

Viruslarning o'lchamlari juda kichik bo'lib, ular nanometrlar bilan o'lchanadi va turli kattaliklarda uchraydi. **Eng kichik viruslar** qatoriga **parvoviruslar, pikornaviruslar va Qβ fagi** kiradi, ularning o'lchami atigi **20 nm**. **O'rtacha kattalikdagi viruslar**, masalan, **adenoviruslar va koronaviruslar, 100–150 nm** o'lchamga ega. **Eng yirik viruslar** esa **chechak va ospovaksina viruslari** bo'lib, ular **170–450 nm** gacha yetadi. **Mimiviruslar** esa undan ham katta bo'lib, diametri **500 nm** ni tashkil qiladi. Ipsimon o'simlik viruslarining uzunligi turlicha: **450 nm** (kartoshka X-virusi), **550 nm** (kartoshka U-virusi), va **1200 nm** (lavlagining sariq mozaikasi virusi). Shu bilan birga, yirik viruslar – **mimiviruslar, megaviruslar, pandoraviruslar** va boshqalarning uzunligi **2000 nm** gacha yetishi mumkin. Viruslarning xilma-xil morfologik shakllari ularni boshqa prokariot va eukariot mikroorganizmlar kabi juda turli-tumanligini ko'rsatadi. Virus zarralari ikki asosiy turga bo'linadi: **Qobiqli va qobiqsiz virus zarralari**.

Qobiqsiz virionlar uchta asosiy morfologik tipga bo'linadi: **tayoqchasimon (ipsimon), izometrik (sferasimon)** va **to'g'nag'ichsimon (kolbasimon)**.

1. **Tayoqchasimon va ipsimon virionlar:** Oqsil subbirliklari nuklein kislotasi atrofida spiral shaklda, davriy va tartibli joylashadi, natijada **nukleokapsid** deb ataluvchi struktura hosil bo'ladi. Bunday

spiral va tartibli joylashuv oqsil bilan nuklein kislotaning yaqin bog‘lanishini ta’minlaydi va tayoqchasimon yoki ipsimon virus zarrachalarining shakllanishiga olib keladi.

2. Izometrik (sferasimon) virionlar: Bu holatda nuklein kislota oqsil qobiqqa bevosita bog‘lanmaydi yoki bog‘lanish faqat o‘ta harakatchan bo‘lgan kovalent bog‘lar orqali yuzaga keladi. Ushbu turdagi munosabatlar izometrik (sferasimon) virus zarrachalarining shakllanishini ta’minlaydi.

3. To‘g‘nag‘ichsimon (kolbasimon) virionlar: Bu virionlar differensiallashgan, ya’ni bir nechta alohida strukturaviy elementlardan iborat. Ularning asosiy qismlari **izometrik boshcha** va **dum qismi** hisoblanadi. Virus turiga qarab, virionda qo‘shimcha elementlar bo‘lishi mumkin, masalan: mufta, bo‘yin qismi, yoqa, dum sterjeni, dum po‘sti, bazal plastinka va fibrillar. **T-juft bakteriofaglar** eng murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ushbu barcha qismlarni o‘z ichiga oladi.

Virion qismlarida ikki turdagi simmetriya kuzatiladi: **Spiral simmetriya:** Subbirliklar bir-birini takrorlaydi va spiral shaklni hosil qiladi. **Ikosaedrik simmetriya:** 20 yuzli geometrik shaklga ega simmetriya. Agar virion qismlari turli xil simmetriyaga ega bo‘lsa, u holda virus zarrachasi **aralash simmetriya** (masalan, spiral va ikosaedrik simmetriya kombinatsiyasi) deb tasniflanadi (Atabekov).

Makromolekulalarning spiralsimon joylashuvi quyidagi parametrlarni o‘z ichiga oladi: spiralning bitta to‘liq aylanasi joylashgan subbirliklar soni (u), spiral o‘qi bo‘ylab muntazam joylashgan subbirliklar orasidagi masofa (r) va spiral qadami (R). Spiral qadami $R = ru$ formula orqali hisoblanadi. Spiral simmetriyaga ega viruslardan biri

tamaki mozaikasi virusidir. Ushbu virusning nukleokapsidi 2130 ta bir xil subbirlikdan iborat bo'lib, spiral aylanasi 16 $\frac{1}{3}$ ta subbirlik joylashadi, spiral qadami esa 2,3 nm tashkil qiladi.

Ikosaedrik simmetriya esa yopiq qobiqlarni shakllantirishda eng samarali tuzilma hisoblanadi. Ushbu simmetriya shakli kubsimon struktura asosida bo'lib, tetraedr, oktaedr yoki dodekaedr shakllarida bo'lishi mumkin. Ikosaedrning 12 cho'qqisi, 20 yuzasi va 30 qirrasidan iborat bo'ladi. Eng oddiy ikosaedrik kapsid 60 ta struktura elementidan tashkil topadi, lekin murakkab viruslarda bu son **60n** elementga yetishi mumkin.

Struktura elementlarini joylashtirish uchun triangulyasiya raqami (T) joriy qilingan. Bu raqam struktura elementlarining 60 ga bo'linishi orqali aniqlanadi. Masalan, tamaki nekrozi virusida $T = 1$, ko'pgina o'simlik viruslarida $T = 3$ (180 ta subbirlik), Sindbis virusida $T = 4$ (240 ta subbirlik), rotaviruslarda esa $T = 13$ (780 ta subbirlik). Yirik ikosaedrik viruslarda kapsid zich joylashishini ta'minlash uchun subtriangulyasiya yuzaga keladi, bu esa mahalliy joylarda simmetriyaning buzilishiga olib keladi.

Oddiy namunaviy tuzilmaga papovaviruslar misol bo'ladi, ularning kapsidi 72 ta morfologik birlikdan tashkil topgan va har biri uchta oqsil subbirlikdan iborat bo'lib, $T = 7$ ga teng simmetriya turiga ega. Adenoviruslar esa murakkabroq tuzilishga ega bo'lib, kapsidi ansambllar prinsipi bo'yicha shakllangan va $T = 25$ simmetriya turiga ega. Adenovirusning kapsidida pentonlar va ularning asosida fibrillar joylashgan. Kapsidning boshqa qismlari esa geksonlardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hisobda 12 ta penton va 240 ta gekson mavjud. Yengil

dissotsiatsiya sharoitida adenoviruslardan 9 ta geksondan iborat kapsomerlar hosil bo‘ladi.

Eng murakkab virionlar T-juft bakteriofaglarda kuzatiladi. Ularda har xil simmetriya tiplari kombinatsiyasi mavjud. Masalan, T-4 bakteriofagining bosh qismi ikosaedrik simmetriya, dum qismining sterjeni esa spiral simmetriya asosida tashkil topgan. Shu tarzda, T-4 bakteriofagi har xil simmetriya turlarining kombinatsiyasi bilan ajralib turadi.

Qobiqli virionlarning tuzilishi turlicha bo‘lib, ular tayoqchasimon, ipsimon, izometrik shakllarga ega bo‘lishi yoki aniq chizilgan g‘ishtsimon ko‘rinishdagi (masalan, chechak virusi) va pleyomorf (masalan, uchuq va koronaviruslar) shakllarda bo‘lishi mumkin.

Virion qobig‘i (peplos yoki superkapsid) hujayra manbasidan kelib chiqadi va sitoplazmatik membrana, endoplazmatik retikulum, Goldji apparati yoki yadro membranasidan hosil bo‘ladi. Ushbu qobiqqa virus hujayraning membranasidan kurtaklanish jarayonida ega bo‘ladi. Membranaga joylashgan virus glikoproteidlari qobiqning asosiy komponentlarini tashkil qiladi.

Qobiqdagi virus glikoproteinlari virion yuzasidan chiqib turgan tikonlar yoki peplomerlarni hosil qiladi. Ushbu tikonlar tartibga ega bo‘lishi mumkin va bir yoki bir nechta turdagi virus oqsilidan shakllanadi. Masalan, qizamiq virusida bitta turdagi oqsil mavjud bo‘lsa, gripp virusida ikki xil virus oqsillari mavjud. Tikonlar monomer, dimer yoki trimer oqsil tuzilmalaridan iborat bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, virionlarning tuzilishi ikki asosiy belgi bilan tavsiflanadi: qobiqning mavjudligi yoki yo‘qligi va kapsidning

simmetriya tipi. Qobiqli va qobiqsiz virionlar ikosaedrik, spiral yoki ularning kombinatsiyasi asosidagi simmetriyaga ega bo'lishi mumkin.

4.4. Spiral simmetriyaning o'ziga xosligi spetsifikligi va TMV ni strukturasi


Hozirgi kunga kelib olingan eksperimental natijalar asosida oddiy virus zarrachalarining simmetrik tuzilishga ega ekanligini isbotlash mumkin. Kristallografiyaga asoslanib, viruslarning qurilish mexanizmlarini tushuntirishda bir qancha asosiy xususiyatlardan foydalaniladi. Simmetrik jismlarning makondagi joylashuvi o'zgarib, keyin yana dastlabki holatiga qaytishi "simmetrik o'zgarishlar" deb ataladi. Ushbu o'zgarishlar bir necha turga bo'linadi: o'z o'qi atrofida aylanish (rotatsiya), to'g'ri chiziq bo'ylab joylashish (translyatsiya), aylanish va translyatsiyaning kombinatsiyasi (spiral), shuningdek, tekislik bo'ylab aksini hosil qilish (ko'zguli aks).

Tayoqchasimon va ipsimon shakldagi viruslar translyatsion-rotatsion simmetriyaga ega bo'lib, ularning substrukturalari virus o'qi atrofida spiralsimon tartibda joylashgan. Bu viruslarning strukturasi aniqlash uchun rentgenostruktura analizi usuli qo'llaniladi. Tamaki mozaikasi virusining zarrachalari hujayradan tashqarida uch o'lchamli kristallar hosil qilmasa ham, in vitro sharoitda mayda ignasimon kristallar – parakristallar hosil qiladi. Bu parakristallarning ikki o'lchamli joylashuv xususiyati virus zarrachalarining uzunlikdagi farqlari bilan izohlanadi. Yuqori konsentratsiyada virus zarralari suyuq kristall xususiyatiga ega bo'lib, tor joyda parallel joylashishga majbur bo'ladi.

Rentgenostruktura analizi yordamida tamaki mozaikasi virusining zarrasi spiral tuzilishga ega ekanligi aniqlangan. Subbirliklar spiral o'qi

bo'ylab joylashib, zarrachaning ichida erituvchi bilan to'lgan 40 Å lik bo'shliq hosil qiladi. Spiralning bir qadamida 16,34 ta subbirlik joylashadi, spiralning "takrorlash davri" esa 69 Å ni tashkil qiladi. Tamaki mozaikasi virusining zarrasi jami 2130 ta subbirlikdan tashkil topgan bo'lib, har bir subbirlik 158 ta aminokislota qoldiqlaridan iborat va molekulyar massasi 17,530 Daltonga teng.

Virus zarrasi ichida bitta RNK molekulasini spiralsimon joylashib, oqsil subbirliklari tomonidan to'liq himoyalanganadi. Virus oqsili RNKni tashqi ta'sirlardan himoya qiluvchi chuqurchalar hosil qiladi. 1960-yilda tamaki mozaikasi virusining barcha aminokislotalari ketma-ketligi aniqlangan bo'lib, ular orasida asparagin, glutamin, serin, alanin, lizin kabi 16 xil aminokislota turi uchraydi. Ushbu oqsil polipeptid zanjiri spiral shaklni hosil qiladi va RNK bilan o'zaro mustahkam aloqada bo'ladi.



Spiral shaklga ega viruslarning simmetriyasi shundaki, virus zarrachasidagi barcha subbirliklar makonda bir-biriga ekvivalent joylashadi. Tamaki mozaikasi virusining (TMV) zarrachasida, ikkala

uchidagi subbirliklardan tashqari, 2130 ta subbirlikning har biri qo'shni subbirliklar bilan bir xil turdagi bog'lanish hosil qiladi. Ushbu ekvivalentlik printsipli tasvirlanganda, agar subbirliklarni tekislikda joylashgan assimetrik shakllar sifatida tasavvur qilsak va ular tekislikda o'q atrofida burilsa, silindrsimon yoki spiralsimon struktura hosil bo'ladi. Bu struktura bir xil parallel assimetrik subbirliklardan tashkil topadi (ABSDEF) va o'q atrofida joylashgan bo'ladi. (Ilova, 18-22-rasmlar).

Biroq, barcha subbirliklar har doim to'liq o'xshash bo'lavermaydi. Masalan, TMVning Dalem shtammida spiral simmetriya printsipli asosida subbirliklar o'q atrofida spiralsimon joylashgan bo'lsa-da, ayrim subbirliklar juft-juft birlashadi. Bu esa virus zarrachasining umumiy strukturasini deformatsiyaga olib keladi. Natijada, barcha subbirliklar fazoviy jihatdan bir xil ekvivalent bo'lmaydi va kvaziekvivalentlik hodisasi kuzatiladi. Spiral simmetriyaga ega boshqa viruslar haqida esa ma'lumotlar nisbatan kam.

Virus zarrasini dezintegratsiyasi

Virus zarrachasining tuzilishini o'rganish uchun uning tarkibiy qismlarini ajratib olish zarur. Virusni "dezintegratsiya" qilish, ya'ni tarkibiy qismlarga ajratish jarayonida konsentrlangan mochevina, detergentlar, kuchsiz ishqor (pH 10–11), sirka kislotasi (70%), fenol yoki 1–2 M konsentrlangan neorganik tuz eritmalari ishlatiladi.

Tamaki mozaikasi virusining sof preparati karbonat-bikarbonat bufer (pH 10,0)da ikki sutka davomida dializ qilinganda, virus nukleoproteidini 190S substrukturalarga ajratish mumkin. Degradatsiyaning tezligi temperatura, eritma ion kuchi, muhit pH darajasi va virus konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Degradatsiya jarayonida birinchi ajraladigan element – kichik molekulyar ko'effitsient sedimentatsiyasi 4–4,9S bo'lgan A-oqsil. Eritmaning pH darajasi 11,0 va temperatura 5°C bo'lganda, bu komponent molekulyar massasi 17,5–18 ming bo'lgan monomerlarga dissotsialanadi. Bu monomerlar 158 ta aminokislota qoldig'idan iborat yagona polipeptid zanjiridan tashkil topgan.


Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, A-oqsil molekulasi siklik tuzilgan trimerlardan tashkil topgan. Keyinchalik A-oqsil preparatida trimerlardan tashqari dimerlar ham mavjudligi tasdiqlandi. Ishqoriy degradatsiya davomida yana boshqa komponentlar ajraladi, masalan, 8S ko'effitsient sedimentatsiyaga ega ettita subbirlikdan tashkil topgan heptamer agregatlar. Ushbu agregatlar virus korpuskulasidan ajralib chiqadi.

Degradatsiya jarayonida yana 34 subbirlikdan iborat 18–22S agregatlar ajraladi. Bu agregatlar elektron mikroskopda kuzatiladi va markaziy bo'shliqqa ega disk shaklida bo'ladi. Ushbu disklar diametri TMV zarrachasi diametriga mos keladi va har bir diskda 17 ta subbirlik mavjud. Disklar bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda joylashadi va "juft-disk" strukturasini hosil qiladi.

Shuningdek, spiralsimon joylashgan 49 subbirlikdan iborat, 30S ko'effitsient sedimentatsiyaga ega siklik fragmentlar ham ajraladi. Bular juft disklardan farqli ravishda spiralsimon tuzilishga ega. Bundan tashqari, degradatsiya jarayonida kattaroq agregatlar (130–170S) ham hosil bo'ladi.

TMV degradatsiyasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, A-oqsil trimerlari virus zarrachasining bir uchidan ajralishni boshlaydi, so'ngra

kattaroq molekulyar agregatlar ajraladi. Qattiq ishlov berilganda, oqsil zarrachaning ikkala uchidan yoki ba'zan markazidan ham ajralishi mumkin (16-rasm).



16-rasm. Fenol bilan qisman ishlov berilgandan keyin TMV zarrachasidan subbirliklarning ajralib chiqqan holatini elektron mikrofotografiya yordamida kuzatish mumkin. Tasvirda 250 000 martalik kattalashtirish orqali RNK iplarining oqsil subbirliklardan ajralib qolgan uchastkalari, shuningdek, platina bilan qoplangan va ajralib qolgan qismlar aniq ko'rinadi.

Virus oqsilini repolimerizatsiyasi

A-oqsil neytral muhitda eruvchanlik va serologik xususiyatlarini saqlab qoladi hamda muayyan sharoitlarda tayoqchasimon shakldagi agregatlar hosil qiladi. Ushbu agregatlar RNK mavjud bo'lmagan TMV zarrachalariga o'xshash ko'rinadi. Repolimerizatsiya qilingan oqsil proteazalarga nisbatan chidamli bo'lib, elektr maydonida xuddi virus zarrachalari kabi harakat qiladi, ammo A-oqsilning harakati virusnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Oqsil molekulalarining spiralsimon joylashuvi vaqtida ba'zi zaryadlangan monomerlarning zaryadli

guruhlari yashirin holatda qoladi (maskirovka bo‘ladi), bu esa intakt TMV zaryadining A-oqsil zaryadidan farq qilishini ko‘rsatadi. Repolimerizatsiya jarayonida RNKning yo‘qligi oqsilning stabilligini pasaytiradi.

TMV oqsil molekulasining repolimerizatsiya qobiliyati biologiyada kam uchraydigan noyob hodisa hisoblanadi. Shunday qilib, virus zarrachalarini dezintegratsiya qilish orqali uning molekulyar tuzilishini o‘rganish va ajratib olingan oqsil monomerlarini o‘z-o‘zidan yig‘ilish prinsipi asosida qayta tiklash mumkin. Bu jarayon orqali virus oqsillarining o‘xshashlik va farqlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo‘llanilgan texnologiyalar:

«AQLIY HUJUM» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Ushbu texnologiya ishtirokchilarning tezkor fikrlash qobiliyatini, hozirjavoblikni, ma’lumotni o‘zlashtirish va tahlil qilishni, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Uni ma’ruza mashg‘ulotlari jarayonida, mavzuni mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni qayta ko‘rib chiqishda, uy vazifalarini tayyorlashda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil qilishda qo‘llash tavsiya etiladi.

Topshiriqlar:

1. Viruslarning morfologik turlarining farqlanishiga sabab nimada?
2. Ipsimon virulsar nimalardan tuzilgan va ularning qanday turlarini bilasiz?

3. Viruslar ordagida Gram musbat bo'yaladigan turlari ham mavjudmi?

4. Spirall simmetriya tuzilishli viruslarning shakli qanday bo'ladi?

Savollar

1. Viruslarni morfologiyasiga ko'ra nechta guruhga bo'linadi?

2. Tayoqchasimon virus guruhlariga misollar keltirib, ularning xususiyatlarini tushuntiring.

3. Ipsimon virus guruhlariga misollar keltirib, ularning tuzilishini tavsiflang.

4. Sferasimon virus guruhlariga misollar keltirib, ularning xususiyatlarini tushuntiring.

5. Ipsimon virus guruhlariga misollar keltirib, ularning tuzilishini tushuntiring.

6. Tuxumsimon (oval shaklli) virus guruhlariga misollar keltirib, ularning xususiyatlarini tushuntiring.

7. Kolbasimon virus guruhlariga misollar keltirib, ularning tuzilishini tavsiflang.

8. Murakkab virus guruhlariga misollar keltirib, ularning tuzilishini tushuntiring.

9. Turli shakldagi viruslarning o'lchamlari haqida ma'lumot bering, ularni qiyoslab ta'riflang va qaysi birida prokariotlar va viruslarga xos xususiyatlar mujassamlashganligini aniqlang.

10. Gram musbat bo'yaladigan viruslar qanday kashf etilgan va gram bo'yicha bo'yash ulardagi qaysi moddani borligini ko'rsatadi?

11.Oddiy yoki minimal viruslarning tuzilishini tamaki mozaikasi virusi misolida tushuntiring.

12.Tamaki mozaikasi virusining (virionning, oqsil qismining, nuklein kislotalarining) molekulyar massalari va o'lchamlari haqida ma'lumot bering.

13.Spiralsimon shaklli viruslarning subbirlik o'lchamlari qanday va ularning noyob xususiyatlari nimada?

14.Assimetrik figuralarni silindr atrofida qanday qilib joylashtirish mumkin va bu qanday model sifatida ishlatiladi?

15.Tamaki mozaikasi virusida nechta subbirlik bor va ular qanday tartibda joylashadi?

16.Virus rekonstruksiyasida virus uzunligini belgilovchi asosiy faktor nima?

17.Virus rekonstruksiyasi nuklein kislota ishtirokisiz amalga oshganda qanday shakllar hosil bo'ladi?

18.Virus oqsilining repolimerizatsiyasi nimani anglatadi?

19.Gibrid viruslarni olish va uni amalga oshirish jarayoni haqida tushuntiring.

20.Gibrid viruslar yuqtirish jarayonlarida immunlik to'sig'idan o'tishda qanday vazifani bajaradi?

21.Ikosaedr yuzasida nechta oqsil subbirligini simmetrik ravishda joylashtirish mumkin?

22.Monomer subbirliklardan dimer, trimer, geksamer, disk va silindrsimon shakllarning hosil bo'lish jarayonini tushuntiring.

5-BOB. VIRUSLAR BIOKIMIYASI

5.1. Viruslar biokimyosi haqidagi umumiy tushunchalar

Viruslarni bioximiyasi, kimyoviy va strukturaviy tuzilishi, virus va hujayra orasidagi munosabatning molekulyar mexanizmlari professorlar T.I.Tixonenko, I.G.Atabekov, V.I.Agol (1971) (1) larni MGU talabalariga o‘qilgan ma’ruzalarida va bu asosida chop etilgan to‘plam, o‘quv qo‘llanma va darsliklarida hamda jahon adabiyotida ko‘zga ko‘ringan virusologlarni viruslarni o‘rganishdan olgan oxirgi natijalari yangiliklari asosida va ularni ilmiy ishlari natijalari bilan umumlashtirilgan holdagi ma’lumotlari keltirilgan. Viruslarning irsiy material RNK yoki DNK molekulalarida mujassamlashgandir. Ularning DNK va RNKasi strukturasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda umumiy klassifikatsiya: ikki zanjirli DNK va RNK, bir zanjirli DNK va RNK, xalqali, o‘ta spirallashtirilgan formalar uchraydi.

Viruslarga xos xususiyatlardan yana shuni ko‘rsatish mumkinki, virus nuklein kislotalarining birlamchi strukturasi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Virus DNK strukturasi o‘ziga xosligi, ikki zanjirli DNKdagi halqali o‘rinalmashishlar va zanjir uchlaridagi nukleotidlar mo‘lligi (izbtochnost nukleotidov) uchraydi.

Minor asoslarni uchrashi (osnovanie), ularni sintezidagi fermentlari, ekstrakand qismini glyukozalanishi, metillanishi kabilar virusdarga xosdir.

Mazkur mavzu haqida so‘z yuritishdan oldin molekulyar biologiya (virusologiyada) viruslardagi sintetik jarayonni tushunishni osonlashtirishi va ishlatiladigan ba’zi ibora va atamalarni mazmunlarini

bilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi degan niyatda quyidagi ma'lumotlarni keltirishni ma'qul topdik.

Transkripsiya - tirik hujayralardagi DNK matritsada amalga oshadigan ribonuklein kislotani biosintezidir. Bu - fundamental biologik jarayon bo'lib DNK da 4 tipdagi monomer nukleotidlar ketma-ketligida yozilgan genetik axborotni realizatsiyasidagi birinchi bosqich. Transkripsiya fermentlar – DNKga qaram RNK-polimerazalar tomonidan amalga oshiriladi Transkripsiya jarayoni natijasida RNK ning DNK ga komplementar bo'lgan polimer zanjiri sintezlanadi. Translyasiyaning mahsuli bo'lib har xil funksiyaning bajaradigan 4 tipdagi RNK: 1) informatsiya (axborot) yoki m- yoki i- RNK si; 2) ribosoma RNKsi; transport RNKsi; 4) DNK replikatsiyasida xamirturush (zatravka) vazifasini bajaradigan RNK.

DNK ning transkripsiyasi ayrim uchastkalar holatida sintezlanadi (ularga bir yoki bir necha gen kiradi (operon). RNK polimeraza fermenti DNK zanjirini bittasidagi shunday uchastkalarni (promotor) boshlang'ich qismini "taniydi" va unga birikadi, DNK qo'sh bog'ini biri-biridan ajratadi va shu joyidan DNK bo'ylab harakatlanib nusxa olaboshlaydi) hosil bo'layotgan RNK ketma-ket monomer zvenolarni - nukleotidlarni bir-biriga komplementarlik prinsipida bog'laydi. RNK polimerazani harakatiga qarab sintezlanib o'sayotgan RNK zanjiri matritsadan ajralaboshlaydi, fermentni orqasidan qo'sh zanjir qaytadan tiklanaboshlaydi. RNK polimeraza nusxalayotgan uchastkani (terminatsiyalovchi) oxiriga etgandan so'ng RNK matritsadan ajraladi. DNK ning har xil uchastkalarini nusxalari hujayrani, organizmni o'sish jarayonida maxsus oqsillarga muhtojligiga, yashash sharoitini

o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Translyasiya regulyasiyasi mexanizmini yuksak o'simliklarda o'rganish molekulyar biologiyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Informatsiya faqat DNK dan RNK ga o'tibgina qolmasdan buning teskarisi RNK adan DNK aga ham o'tishi mumkin. Bu tipdagi translyasiya RNK tutuvchi o'sma hosil qiluvchi viruslarda uchraydi. Ularni tarkibida hujayra virus bilan zararlangandan so'ng virus RNK sini matritsa qilib komplementar DNK zanjirini sintezlaydigan ferment topilgan. Natijada, ikki zanjirli RNK-DNK gibridi, hamda bu o'z navbatida DNK ga komplementar bo'lgan ikkinchi DNK zanjiri hosil bo'ladi. Paydo bo'lgan boshlang'ich RNK dagi barcha informatsiyani o'zida mujassamlashtirgan ikki zanjirli DNK virus bilan zararlangan hujayra xromasomasiga joylashishi mumkin va xavfli o'smani qo'zg'atishi mumkin. Qaytalama yoki teskari transkriptazani kashf qilinishi L.A. ZilbepHing rakni paydo bo'lishida virus-genetik nazariyasini tasdiqlaydi (G. Tyomin. RNK napravlyaet sintez DNK. "Priroda", 1972, № 9.

Viruslarning irsiy materiali, avvalda aytib o'tilganidek, RNK yoki DNK molekulalarida mujassamlashgandir. Ularning DNK va RNKasi ularning strukturasining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy klassifikatsiya: ikki zanjirli DNK va RNK, bir zanjirli DNK va RNK, halqali, o'taspirallashgan shakllar uchraydi.

Viruslarga xos xususiyatlardan yana shuni ko'rsatish mumkinki, virus nuklein kislotalarining birlamchi strukturasi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

5.2. Viruslarning tarkibiy qismlari

Latent davr davomida hujayra ichidagi virus miqdorini aniqlash qiziqarli natijalarni beradi. Latent davr mobaynida, hujayrada bitta yoki bir nechta fag bo‘lishidan qat’i nazar, u faqat bitta infeksiyon markazga ega bo‘lib, bitta blyashka hosil qiladi. Shu sababli, hujayra ichidagi haqiqiy virus miqdorini aniqlash uchun titrlashdan oldin hujayra parchalanishi lozim. Bunday tajriba o‘tkazilganda, g‘ayrioddiy natija kuzatiladi: latent davrning boshida hujayra yuqumli markaz bo‘lishiga qaramay, uning ichida hech qanday fag aniqlanmaydi. Agar hujayra parchalanmasa, bir necha daqiqadan so‘ng unda bir nechta yangi fag zarralari hosil bo‘lishi mumkin edi.

Demak, infeksiyon jarayonning ma’lum bosqichida zararlangan hujayrada etilgan fag zarralari topilmaydi, ularning paydo bo‘lishi esa latent davrning ikkinchi yarmida boshlanadi (19-rasm). Infeksiyon jarayonning fag aniqlanmagan ushbu bosqichi **eklips davri** (yashirin davr) deb ataladi. Keyinchalik, eklips davrining boshqa viruslarda ham

mavjudligi tasdiqlandi. Virusni biologik agent sifatida tan olish mezonlaridan biri sifatida eklips davri hisoblanadi.



19- rasm. Viruslar tomonidan qo‘zg‘atiladigan infeksiyon jarayon bosqichlarining sxemasi

1 — “bittadan portlatish” usulida olingan virus ko‘payishi egri chizig‘i;

2 —virusni hujayra ichida ko‘payishi. Ordinata o‘qida infeksiyon davrning o‘tish vaqti, minutlarda; Absitsa o‘qida hosil bo‘lgan blyashkalar (yuqumli markazlar) soni

Infeksiyon jarayonning asosiy parametrlarini aniqlashning yana bir usuli mavjud bo‘lib, bunda bitta hujayrani fag bilan zararlash orqali olingan natijalar tahlil qilinadi. Buning uchun fag bilan zararlangan hujayralarni erkin faglardan tozalab, shunday suyultiriladiki, har bir millilitrda bir dona yoki undan kam hujayra bo‘ladi. Shundan so‘ng suyuqlikni alohida probirkalarga bo‘lib quyiladi; ayrim probirkalarda hujayra umuman bo‘lmasligi, ba’zilarida esa ikki yoki undan ortiq hujayra bo‘lishi mumkin. Ko‘pchilik probirkalarda esa bittadan hujayra bo‘ladi. Muayyan vaqt o‘tganidan keyin har bir probirkadagi suyuqlikda virus borligi aniqlanadi.

Ushbu usul **“bitta portlash metodi”** (single burst analysis) deb nomlanadi. Bu metod orqali olingan natijalar **“bir sikllik ko‘paytirish metodi”** natijalariga mos keladi. Ushbu metod yordamida quyidagi xulosalar keltirib chiqilgan:

1. **Hujayra hajmining ta’siri:** Hujayraning hajmi qanchalik katta bo‘lsa, unda hosil bo‘ladigan faglar soni ham shuncha ko‘p bo‘lishi aniqlangan.

2. **Latent davrning farqlanishi:** Har bir hujayrada latent davr davomiyligi o‘zgarib turishi va bu jarayonning vaqt jihatidan farqlanishi qayd etilgan.

Mazkur metod infeksiyon jarayonni chuqurroq tahlil qilish va uning o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

6.1.2. Viruslarni hujayraga kirishi

Viruslar faqat hujayra ichida ko‘payadi, shuning uchun ularning hujayraga kirish qobiliyati bo‘lishi zarur. Hujayra membranasi orqali mayda molekulalarning o‘tishi ham qiyin bo‘lgani holda, molekulyar massasi bir necha millionga teng viruslarning hujayraga kirishi ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Viruslarning hujayraga kirish mexanizmlarini o‘rganish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Virusologik metod. Agar ma’lum miqdorda virus hujayra suspenziyasi bilan aralashtirilsa va so‘ng hujayralar sentrifugalab ajratib olinib, ustki suyuqlikda virus miqdori aniqlansa, hujayraga bog‘langan virus miqdorini hisoblash mumkin. Bunda hujayraga yopishgan va ichiga kirgan virus miqdori aniqlanadi. Ushbu ikki holatni farqlash uchun hujayralar virusga qarshi antizarob bilan ishlov beriladi. Bu jarayonda

hujayra membranasidagi viruslar neytrallanadi va ularning reproduksiyasi to'xtatiladi, infeksiyon markaz yoki blyashkalar hosil bo'lmaydi. Agar virus hujayra ichiga kirgan bo'lsa, antizarob uni ta'sir qilolmaydi, chunki antitelalar hujayra ichiga o'tolmaydi va infeksiyon jarayon davom etadi.

Kimyoviy metod. Kimyoviy usullar viruslarning hujayraga kirishini o'rganishda keng qo'llaniladi. Virusning ma'lum bir komponenti — oqsili yoki nuklein kislotasi radioaktiv izotoplar bilan nishonlanadi. Bunday holda virusning hujayraga adsorbsiyasi, uning tarkibiy qismlarining saylanma kirishi, shuningdek, hujayra fraksiyalari tomonidan virusni bog'lash yoki parchalanish jarayonlari o'rganiladi. Masalan, nuklein kislotalar fosfor (P^{32} yoki N^3) bilan, oqsillar esa uglerod (C^{14}) yoki oltingugurt (S^{35}) bilan nishonlanadi. Zamonaviy asboblarning har bir izotopni aralashmadan alohida ajratib aniqlash imkonini beradi.

Morfologik metod. Yirik viruslar (masalan, faglar va hayvon viruslari) bilan hujayra o'rtasidagi o'zaro ta'sirni elektron mikroskop yordamida o'rganish mumkin. Ushbu usul virus va hujayraning tuzilmasini aniq ko'rish imkonini beradi.

Radioaktiv metod. 1952 yilda Xershi va Cheyz virusning qaysi qismi hujayraga kirishini aniqlash uchun T2 fagi ustida tadqiqot olib borishdi. Buning uchun ichak tayoqchasini radioaktiv fosfor (P^{32}) yoki oltingugurt (S^{35}) bilan boyitilgan oziq muhitida o'stirishgan. Fosfor bilan boyitilgan muhitda fagi nuklein kislotasi nishonlangan, oltingugurtli muhitda esa aminokislotali oqsillari nishonlangan. Ushbu

metod virus tarkibining hujayraga kiradigan qismlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nishonlangan fag ichak tayoqcha bakteriyasi suspenziyasi bilan aralashtiriladi. Fag bilan adsorbsiyalangan hujayralar sekin aylanish tezligida sentrifugalab ajratib olinadi, keyin radioaktiv bo'lmagan oziq muhit bilan suyultiriladi. Ma'lum vaqt o'tgach, Uoring blenderida yuqori tezlikda chayqatilib aralashtiriladi. Bu jarayon natijasida hujayraga kirishga ulgurmagan fag qismlari ajralib chiqadi. Keyin hujayralar yana sentrifugalab ajratiladi va ularning blyashka hosil qilish qobiliyati aniqlanadi. Shu bilan birga, cho'kma usti suyuqligidagi va hujayralardagi radioaktiv fosfor va oltingugurt alohida o'lchanadi.

Bu jarayonda, blender bilan kuchli aralashtirishga qaramay, barcha hujayralar fag bilan kasallanadi va ularning fagni ko'paytirish qobiliyati saqlanib qoladi. Olingan natijalarga ko'ra, oltingugurtning 75-80% cho'kma usti suyuqligida joylashgani aniqlangan. Bu fag oqsilining asosiy qismi hujayraga kirmasligini va infeksiyon jarayon rivoji uchun zarur emasligini ko'rsatadi. Biroq, fosforning asosiy qismi hujayradan ajralmasligi DNKning hujayraga kirishini ko'rsatadi. Demak, fag DNKsi yangi fag zarralari avlodini hosil qilish uchun zarur.

Xershi va Cheyz o'z tadqiqotlari bilan virusning hujayraga kirish mexanizmini aniqlashdi va virusning infeksiyon jarayonini boshlashda nuklein kislotaning asosiy rolini isbotladilar. Ularning tadqiqotlari TMV ni o'rganish bo'yicha Shramm va Frenkel-Konrat kabi olimlarning ishlarini ham qo'llab-quvvatladi. Keyingi tadqiqotlarda aniqlanganki, ayrim bakteriofaglar va viruslar hujayraga nafaqat nuklein kislotani, balki ichki oqsillarni ham olib kiradi.

Adsorbsiya jarayoni. Virusning hujayraga kirishi uning birinchi bosqichi hujayra yuzasiga yopishishdan boshlanadi, bu jarayon adsorbsiya deb ataladi. Ma'lum bo'lishicha, ba'zi viruslar faqat ma'lum hujayra turlariga yopishadi. Masalan, poliomielit virusi faqat primatlarning ayrim hujayralariga adsorbsiyalanadi, ayrim faglar esa faqat erkak (F+) yoki ayol hujayralarga yopishadi. Shu sababli adsorbsiya juda spesifik jarayon hisoblanadi.

Adsorbsiyaga turli tashqi omillar ta'sir qiladi. Masalan, faglar distillangan suvda yoki ortiqcha kislotali yoki ishqoriy sharoitda adsorbsiyalanmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virus va hujayra orasidagi elektrostatik o'zaro ta'sirlar adsorbsiyada hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Har bir hujayra ma'lum miqdorda fagni adsorbsiyalay oladi. Masalan, ichak tayoqchasi bakteriyasi 300 tagacha T-juft faglarni adsorbsiyalaydi, odam to'qimasi madaniyati HeLa esa 500 tagacha pikornaviruslarni qabul qila oladi.

Virus va hujayraning to'qnashuvi tasodifan yuz beradi. Adsorbsiyaning kinetikasi birinchi darajali tenglamaga bo'ysunadi:

$$\log P/P_0 = - \frac{1}{2,3} k \cdot N \cdot t, \quad \text{bu erda,}$$

P_0 – boshlang'ich davrdagi viruslarni soni,

P - ma'lum vaqt t -dan so'ng adsorbsiyalanmagan virusning soni,


N - hujayralar soni,

k - adsorbsiyalanish tezligining konstantasi.

Ko'pincha virus dastlab hujayra yuzasiga qaytarib adsorbsiyalanadi, ya'ni virus-hujayra kompleksi hosil bo'lgandan so'ng,

butun virus yana ajralib chiqishi mumkin. Biroq, ma'lum vaqt o'tgach, adsorbsiyalanish qaytarib bo'lmaydigan bosqichga o'tadi. Bu bosqichda virus va hujayra yuzasida o'zgarishlar, ya'ni modifikatsiyalar yuzaga keladi.

Ba'zi sistemalarda virus tashqi ta'sirsiz o'z-o'zidan hujayra yuzasidan ajralib chiqishi mumkin. Ushbu jarayon elyusiya deb ataladi va u asosan miksoviruslarda kuzatiladi. Elyusiya jarayoni hujayraning ba'zi komponentlarini virusda mavjud neyraminidaza fermenti eritib yuborishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, virusning hujayra komponentlari bilan birga ajralib chiqishi ehtimoli ham bor. Ushbu holat virusning yuqumlilik xususiyatini yo'qotishiga olib keladi.



20-rasm. T-4 fagini *E. coli* ga yopishishi (adsorbsiyasi)(1)

Virus va hujayra retseptorlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish jarayoni muhim ahamiyatga ega. T-juft faglarining hujayraga adsorbsiyalanishi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fag hujayra bilan dum qismi orqali bog'lanadi. Fagning DNKdan mahrum bo'lgan po'sti ham hujayraga adsorbsiyalanish qobiliyatiga ega, bu xususiyat ayniqsa dum qismi va fibrillari uchun xarakterlidir. Biroq, fagning DNKsi va bosh qismi adsorbsiyalanish xususiyatiga ega emas. Bu shuni anglatadiki, agar fagning fibrillari olib tashlansa, u hujayra bilan adsorbsiyalanmaydi.

Demak, fagning fibrillari hujayra bilan bog'lanishni ta'minlaydigan maxsus strukturaga ega. Ushbu tuzilmalar virusning hujayra bilan dastlabki o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun mo'ljallangan va ular virus retseptorlari deb ataladi. Ushbu tushuncha boshqa viruslarga ham tatbiq qilinadi. Masalan, sferik viruslarda retseptor vazifasini virus yuzasidagi ma'lum kimyoviy guruhlar bajaradi, ular hujayra yuzasidagi mos keladigan guruhlar bilan bog'lanadi.

Virus retseptorlarining kimyoviy tarkibi hali to'liq o'rganilmagan. Biroq, virusning po'st oqsilida ma'lum kimyoviy guruhlarini, masalan, sulfidril guruhlarini bloklash yoki aminokislotalardagi aminogruppalarni dezaminirlash virusning adsorbsiyalanish qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi aniqlandi. Shuningdek, fag zarralarining mutatsiyasi tufayli adsorbsiyalanish qobiliyati yo'qolishi mumkin, bu esa virusning yuqumlilik xususiyatining pasayishiga olib keladi.

Hujayra retseptorlari. Hujayraning yuza qismi viruslarning bog'lanishi uchun mas'ul bo'lgan maxsus hujayra retseptorlariga ega. Ushbu retseptorlar hujayraning ma'lum morfologik tuzilmalari bo'ylab joylashgan. Masalan, *Bacillus subtilis* faglari faqat xo'jayin hujayraning


hujjari, ya'ni flagellalariga, *Escherichia coli* ning RNK tutuvchi faglari esa faqat F jinsiy faktoriga ega hujayralar (F-pililarga) adsorbsiyalanadi.

E. coli retseptorlari chuqurroq o'rganilgan va fagna bog'lanadigan tuzilmalar hujayra devorida joylashgani aniqlangan. Hujayra devori uch qavatdan iborat bo'lib, tashqi qatlam lipoprotein va lipopolisaxariddan, ichki qatlam esa mukopeptid polimeridan tashkil topgan.

- T-3, T-4 va T-7 faglar faqat lipopolisaxarid qavatga yopishadi, bunda maxsus L-gala-D-mannoheptoz mavjud bo'lishi shart.
- T-2 va T-6 faglar *E. coli* ning lipoprotein qavatiga birikadi.
- T-5 fag esa hujayradan ajratilgan, hajmi 30 nm bo'lgan markaziy lipopolisaxarid va lipoprotein qavatlardan tashkil topgan tuzilmalarga yopishadi.

Shunga qaramasdan, T-1 fagi uchun maxsus retseptorlarni ajratib olishning imkoni bo'lmagan, lekin u faqat tirik hujayralarga bog'lanishi ma'lum qilingan.

Hayvon hujayralari bilan olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, ba'zi hujayra retseptorlarini ajratib olish imkoni mavjud. Masalan, poliomielit virusi hujayra membranasidagi lipoproteid strukturalarga birikadi. Shuningdek, ba'zi herpes va arboviruslar ham lipoproteidli retseptorlarga ega ekanligi aniqlangan. Gemagglyutinatsiya xususiyatiga ega enteroviruslarning odam eritrotsitlaridagi retseptorlari oqsil, lipid va uglevod qismlaridan tashkil topgan. Miksoviruslarni bog'lovchi hujayra retseptorlari esa yaxshiroq o'rganilgan bo'lib, ular N-atsetilneyramin kislotasidan iborat.



Hujayra retseptorlari, virus retseptorlari kabi, kimyoviy ta'sir yoki mutatsiya natijasida o'zgarishi va yuqumlilik xususiyatini yo'qotishi mumkin. Bu o'zgarishlar natijasida virusga chidamli hujayralar paydo bo'ladi.

O'simlik hujayra retseptorlari esa nisbatan kam o'rganilgan. Masalan, tamaki nekrozi virusini o'simlik bargiga yuqtirish uchun kutikulani jarohatlash zarur bo'ladi. Bu jarayon natijasida o'simlik hujayralarida virusga sezgir retseptorlar ochilishi mumkin.

Umuman olganda, virus va hujayra o'rtasidagi birinchi aloqa virus retseptorlari va hujayra retseptorlari o'rtasidagi reaksiyadir. O'simlik viruslari retseptorlari haqida ma'lumotlar deyarli yo'q, ammo ko'pincha hujayra kutikulasining jarohatlanishi natijasida sezgir qismlar ochilib, virus bilan bog'lanishi va uni hujayraga o'tkazishi aniqlangan. Ushbu "sezgir" qismlar mikroorganizmlar va hayvon hujayralaridagi retseptorlarga o'xshashligi ehtimoli borligi, shuningdek, buni tasdiqlovchi dalillar mavjud.

So'nggi tadqiqotlar o'simlik viruslarining hujayraga kirish mexanizmi haqida quyidagi ma'lumotlarni aniqladi: Virus yoki uning RNKsi o'simlikning bitta hujayrasiga kiradi va unda ko'payadi. Kasallangan hujayrada yangi RNK va oqsillar sintezlanadi, so'ng bu oqsillar RNK bilan birlashadi. Hosil bo'lgan kompleks qo'shni hujayralarga o'tib, ularni ham kasallantiradi. Qo'shni hujayralarga virus RNKsi ikki hujayrani bog'lovchi plazmodesmalar orqali o'tadi. Bu

jarayon virus RNKsining maxsus transport oqsili (TO) bilan kompleks hosil qilishi orqali amalga oshadi.

Virusning aktivlashishi va birinchi kasallangan hujayradan sog'lom hujayraga o'tishi uchun transport oqsili xo'jayin-o'simlik retseptoriga mos kelishi zarur. Bu holat virusning o'zini qulay sharoitda topishiga yordam beradi va uning samarali ko'payishini ta'minlaydi, degan xulosaga kelingan.

Virus va hujayra retseptorlarining o'zaro mos kelishi va ular orasida komplementar uchastkalarining mavjudligi virusning yuqumliligi hamda kasallantiradigan hujayralar doirasini, ya'ni virus tropizmini belgilaydi. Ammo ba'zan virus va hujayra retseptorlari adekvat bo'lmagan sharoitda ham virusni hujayraga kiritish va kasallanishni ta'minlash mumkin. Bu virusning nuklein kislotasi orqali amalga oshiriladi.

Masalan, primatlar avlodiga kirmaydigan hujayralar, jumladan quyon hujayralari, poliomieliit virusiga sezgir emas. Biroq, poliomieliit virusining nuklein kislotasi quyon hujayrasiga kiritilsa, u bir sikl davomida ko'payishi mumkin. Ammo hosil bo'lgan yangi virus zarralari yana quyon hujayralarini kasallantira olmaydi.


Yana bir misol – bakteriya intakt hujayralari nuklein kislotasi orqali kasallantirilishi mumkin emas. Bu holda hujayra devori lizotsim bilan parchalangan protoplastni fag DNK bilan yuqtirish orqali natijaga erishish mumkin. Shuningdek, hujayra retseptorlarining to'sig'ini gibrid viruslardan foydalanib ham bartaraf etish mumkin. Bunday hollarda virus oqsili mos keladigan retseptorlarga ega bo'lgan boshqa virusdan olinadi.

Masalan, poliomieliit virusining RNKsi va Koksaki virusining oqsilidan tuzilgan gibrid virus poliomieliit virusining hujayra to'sig'idan

o‘tishini ta’minlaydi. Shuningdek, yaltirbosh mozaikasi virusining RNKsi tamaki mozaikasi virusining oqsili bilan birlashtirilsa, yaltirbosh mozaikasi virusi odatda kasallantira olmaydigan tamakini kasallantirishi mumkin. Ammo bu faqat bir sikl davomida amalga oshadi va hosil bo‘lgan yangi virus zarralari tamaki hujayralarini kasallantira olmaydi, chunki ularda mos keladigan retseptorlar yo‘q.

Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, virusning hujayraga kirib kasallantirishi uchun uning retseptorlari hujayraning retseptorlari bilan mos bo‘lishi zarur.

Pinotsitoz va unga o‘xshash mexanizmlar hayvon hujayralarida virusning hujayraga kirishida muhim rol o‘ynaydi. Pinotsitoz jarayonida hujayra o‘z atrofidagi muhitda mavjud zarralarni o‘ziga qabul qiladi (“yutadi”) (21-rasm). Ushbu jarayonda hujayra membranasi ichkariga qarab bukilib, virus zarralarini o‘z ichiga olishi mumkin. Virus hujayra membranasiga adsorbsiyalangan holda yoki erkin tarzda bo‘lsa ham, pinotsitoz orqali hujayra ichiga kirishi mumkin. Hujayra ichida hosil bo‘lgan pinotsitoz vakuolasi harakatlanib, yadrogacha yetib borishi mumkin. Virusning hujayraga kirishining bu turi viropeksis deb ham ataladi.



21-rasm. Pinotsitoz jarayonining ketma-ketligi sxemasi (Agol,1970)

Virus zarrasining modifikatsiyasi. Virus zarrasi hujayra yuzasiga yopishganida yoki pinotsitoz vakuolasiga kirganidan keyin, uning tashqi

qobig'i o'zgara boshlaydi. Bu jarayon faglarda dum qismining strukturasi o'zgarishi bilan boshlanadi, boshqa viruslarda esa hujayra fermentlarining ta'siri bilan virusning barcha qismi o'zgaradi. Bu modifikatsiya orqaga qaytmas bo'lib, infeksiyon jarayonning eklips bosqichining boshlanishini bildiradi. Shu bosqichda intakt virus zarrasini hujayradan ajratib olish imkoni bo'lmaydi.

Masalan, poliomielit virusi o'z antigen strukturasi o'zgarishi sababli yuqumlilik xususiyatini yo'qotadi. Shu vaqtda virus shaklini saqlab qolsa-da, nuklein kislotasini saqlaydi. Bunday modifikatsiyalangan virusdan fenol yordamida nuklein kislotasini ajratib olish mumkin. Oqsil va lipidlardan iborat chechak viruslarida tashqi qobiq hujayraning gidrolitik fermentlari (proteaza va lipaza) ta'sirida parchalanadi.

Virus zarrasining modifikatsiyasi infeksiyon jarayonning muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu o'zgarishlar keyingi bosqichda virus nuklein kislotasining ajralib chiqishiga tayyorgarlik bo'ladi.

Nuklein kislotaning ajralishi. Virusning yuqumlilik xususiyati yuzaga chiqishi uchun virus nuklein kislotasi oqsil qobig'idan ajralib chiqishi muhimdir. Infeksiya jarayonining ma'lum bir bosqichida virus nuklein kislotasi to'liq erkin holatga o'tadi.

Bu fikr quyidagi tajribalarga asoslangan: virus bilan kasallangan hujayralarda infeksiyon jarayonning ma'lum bosqichida olingan ekstraktlarda virus nuklein kislotasi nukleazalar tomonidan gidrolizga uchraydi. Bu esa shuni anglatadiki, nuklein kislota erkin holatda bo'lib, endi himoya qiluvchi oqsil qavat bilan qoplangan emas. Aslida esa virus nukleoproteidi tarkibidagi nuklein kislotasi odatda nukleazalar ta'siriga chidamli bo'ladi. Nuklein kislotaning erkin holatga o'tishi infeksiya

jarayonining erta bosqichlarida sodir bo'lishi mumkin yoki ba'zi hollarda kechikishi ham kuzatiladi.

Virus nukleoproteidining deproteinizatsiyasi jarayoni hali to'liq o'rganilmagan, lekin ayrim mexanizmlar aniqlandi. Ba'zi faglarda DNK hujayraga murakkab mexanizmlar orqali kirishi aniqlangan. Hujayraga kirgan virus nukleoproteidi hujayra fermentlari yordamida oqsil qobig'idan ajratilishi mumkin. Ushbu fermentlar virus genomida yoki hujayra genomida kodlangan bo'lishi ehtimoli bor.

Infeksion jarayon boshlanishi uch asosiy bosqichdan iborat:

1. Virusning hujayra yuzasiga adsorbsiyasi.
2. Virus zarrasining modifikatsiyasi.
3. Virus nuklein kislotasining ajralib chiqishi.


Ikkinchi va uchinchi bosqichlar infeksiion jarayonning eklips bosqichini tashkil etadi.

Virus nuklein kislotasining hujayraga kirishiga misollar.

a) T-juft faglar. T-juft faglar uchun birinchi bosqich fagning o'simtasidagi fibrillar hujayra devorining retseptorlariga yopishishidir. Fag adsorbsiyasining tezligi temperaturaga deyarli bog'liq emas, ammo hujayra suspenziyasi muhitining tarkibiy qismlariga juda sezgir. Muhit tarkibidagi ayrim moddalar adsorbsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, ba'zi fag shtammlari hujayraga yopishishi uchun triptofan aminokislotasining mavjudligi zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, triptofan fag o'simtasidagi fibrillarning ma'lum bir aktiv konfiguratsiyasini shakllantirishda ishtirok etadi. Shuningdek, fol kislotasi hosilalari ham fibrillarning aktiv konfiguratsiyaga kirishida muhim rol o'ynaydi. Agar fol kislotasi hosilalari kimyoviy jihatdan

modifikatsiya qilinsa, fagning hujayraga yopishish qobiliyati buziladi. (22-rasm).



22-rasm. T-juft faglar DNKsining hujayraga kirishining asosiy bosqichlari sxemasi

Virus nuklein kislotasining hujayraga kirishi: T-juft faglar misoli. Fag zarrasi hujayra devoriga oltita fibrillasi yordamida yopishadi. Fag o'simtasining bazal plastinkasi hujayra devoridan taxminan 1000 Å uzoqlikda joylashadi. Fibrillar egiluvchan bo'lib, fag zarrasini hujayra devoriga yaqin harakatlanishiga imkon beradi. Broun harakatlari tufayli fag zarrasi hujayra devoriga 100 Å masofada yaqinlashadi. Bu jarayonda bazal plastinka o'simtalarini fagni hujayra devoriga mahkamlaydi. Fibrillar kabi bazal plastinka o'simtalarining uchlari ham retseptor vazifasini bajarishi mumkin, bu esa fagni ikki turdagi retseptorlarga ega deb taxmin qilishga asos beradi.

Keyinchalik fag zarrasi modifikatsiya bosqichiga o'tadi. Modifikatsiyaning ko'zga ko'rinadigan belgisi bazal plastinkaning shakli o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Intakt holatda oltiburchakli shaklda bo'lgan bazal plastinka, modifikatsiyadan so'ng oltiburchakli yulduz ko'rinishini oladi. Shu bosqichda yoki biroz keyin plastinkaning

markazidagi "tiqin" yo'qoladi, bu sterjen kanalini yopib turgan tuzilma bo'lishi mumkin.

So'ng fag o'simtasining po'sti qisqaradi, lekin bu qisqarish mexanizmi hali to'liq aniqlanmagan. Taxminlarga ko'ra, bu jarayon bazal plastinkaning shakli o'zgarishi yoki o'simtadan ajraladigan moddalarning ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Qisqarish oqsillari mushak oqsillariga o'xshash bo'lib, ATF yoki boshqa nukleozidtrifosfatlar orqali energiya bilan ta'minlanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, har bir oqsil subbirligiga bitta nukleozidtrifosfat to'g'ri keladi. Po'st qisqarishi fagning bosh qismini bazal plastinkaga yaqinlashtiradi va bazal plastinka hujayra devoridan taxminan $370 \text{ \AA}$ uzoqlashadi. Natijada tikanlar cho'zilib, qisqa fibrillarga o'xshaydi. Bu jarayon sterjen-o'zakni hujayra devoriga yaqinlashtiradi va u orqali devorni teshadi.

Jarayon davomida fagning yashirin lizotsimi ajralib chiqib, hujayra devorining eng ichki qatlamini parchalab, DNKning hujayraga kirishini osonlashtiradi. Oxirgi bosqichda fag DNK si bosh qismini tark etib, sterjenning ichki kanalidan hujayraga in'eksiya qilinadi. Fag DNK si uzunligi $7 \times 10^5 \text{ \AA}$ va diametri $20 \text{ \AA}$ bo'lib, sterjen kanali diametri $25 \text{ \AA}$ dan o'tadi. DNKning hujayraga kirishi fag bosh qismidagi po'st oqsillarining bosimi orqali amalga oshishi mumkin.

Ospa-ospovaksina viruslari guruhining hujayraga kirish mexanizmi. Bu guruh viruslarining hujayraga kirish jarayoni yuqorida keltirilgan boshqa viruslarnikidan sezilarli farq qiladi. Virus hayvon hujayrasi membranasiga adsorbsiyalanganidan so'ng pinotsitoz jarayoni boshlanadi, natijada virus zarrasi hujayra ichiga kiradi. 20 daqiqadan so'ng hujayraning gidrolitik fermentlari ta'sirida virus zarrasining oqsil

va fosfolipid qobig'i parchalanadi. Bu jarayonning natijasida virus zarrasining markazida joylashgan nukleoid — nukleoproteid ajralib chiqadi.

Pinotsitik vakuolani o'rab turgan membrana parchalangach, nukleoid hujayra sitoplazmasiga o'tadi. Virus bilan kasallanmagan hujayralarning fermentlari virus nukleoididagi DNKni ozod qilishga qodir emas. Virus DNK sining deproteinizatsiyasi infeksiyon jarayonning erta bosqichida shakllanadigan maxsus "echuvchi" ferment yordamida amalga oshadi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virus nukleoidida DNK bilan bog'liq RNK-polimeraza mavjud. Bu ferment hali to'liq ozod bo'lmagan virus DNK matritsasida RNK sintezlaydi. Nukleoid sitoplazmaga o'tgach, virus DNK matritsasida virusga xos informatsion RNK sintezlanadi. Ushbu iRNK ribosomalarda "echuvchi fermentlarni" sintezlash jarayonida ishtirok etadi. Keyinchalik "echuvchi fermentlar" nukleoidni deproteinizatsiya qilib, virus DNK sini ozod qiladi.

Gerpes (uchuq) viruslari guruhining hujayraga kirish mexanizmi. Gerpes viruslarining hujayraga kirish jarayoni to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim olimlar bu jarayonni besh bosqichga ajratadilar:

1. Virusning hujayraga yopishishi: Virus birinchi bosqichda hujayra yuzasiga birikadi.

2. Virus membranasing qisman parchalanishi: Ikkinchi bosqichda virus hujayra bilan aloqada turgan membrana qismi parchalanadi.

3. Hujayra membranasining parchalanishi: Uchinchi virus tegib turgan hujayra membranasini buziladi.

4. Virusning sitoplazmaga o'tishi: To'rtinchi bosqichda virus nukleoproteidi hujayra membranasida hosil bo'lgan yoriq orqali hujayra ichiga, ya'ni sitoplazmaga o'tadi. Bu jarayonda herpes virusi kabi o'lchami katta viruslar pinotsitoz mexanizmini qo'llamasdan hujayraga kirishi mumkin.

5. Virus DNK sining ozod bo'lishi: Oxirgi bosqichda virus nukleoproteidi parchalanib, DNK ajralib chiqadi. Bu jarayon hujayraning kasallanmagan fermentlari yordamida amalga oshiriladi.

Pikornaviruslar: Hujayraga kirish va RNK ozod bo'lish jarayoni

RNK-tutuvchi viruslar, xususan poliomielit virusi, hujayraga kirganda uning RNK-si ozod bo'lib, jarayonni boshlaydi. Hujayra retseptorlari virusni qaytadigan shaklda bog'laydi va bu jarayon quyidagi tartibda amalga oshadi:

1. Virusning qaytma bog'lanishi: Hujayra retseptorlari virus bilan elektrostatik o'zaro ta'sirlar orqali aloqa qiladi. Bu o'zaro ta'sir virus va hujayra retseptorlari yuzasidagi turli guruhlarining qarama-qarshi zaryadlariga asoslangan. Bunda virus hujayraga vaqtincha qaytar shaklda bog'lanadi.

2. Virusni ajratish imkoniyati: Intakt virus yuqori ion kuchi, past pH darajasi yoki mochevina ta'sirida hujayra va virus kompleksidan ajralib chiqishi mumkin. Ushbu bog'lanish qaytma xususiyatga ega bo'ladi.

3. Adsorbsiyaning qaytmas bosqichga o'tishi: Keyinchalik adsorbsiyalangan virus qaytmas bosqichga o'tadi, bu esa haroratning tez pasayishi bilan sekinlashishi mumkin. Ushbu bosqichda virus zarrasi o'z strukturaviy o'zgarishlariga uchraydi.

4. Virus xususiyatlarining o'zgarishi: Virus qobig'i konformatsion o'zgarishga uchraydi, bu esa uning yuqumlilik xususiyatining yo'qolishi, antigennik strukturasi o'zgarishi va proteolitik fermentlarga nisbatan sezgirlikning oshishiga olib keladi. Intakt poliomielit virusi proteolitik fermentlarga nisbatan yuqori chidamlilikka ega, ammo hujayra bilan o'zaro ta'sir davomida bu chidamlilik kamayadi.

5. Virus oqsillarining proteolizi va RNK ozod bo'lishi: Oxirgi bosqichda virus qobig'ining oqsillari proteolitik fermentlar yordamida parchalanadi, natijada virusning nuklein kislotasi hujayra ichida ozod bo'ladi va infeksiya jarayon davom etadi.

Miksoviruslar. Virus hujayraga yopishganidan keyin pinotsitoz jarayoni boshlanadi. Virusning tashqi lipoproteid qavati pinotsitik vakuolada hujayra gidrolitik fermentlari yordamida parchalanadi. Biroq, boshqa fikrlarga ko'ra, miksoviruslarning hujayraga kirishida pinotsitoz bo'lmasligi ham mumkin. Taxminlarga ko'ra, virus va hujayra orasida aloqa o'rnatilishi bilan, ularning membranalari parchalanib, ajralgan nukleoproteid sitoplazmaga o'tadi. Keyinchalik nukleoproteidning qanday deproteinizatsiya bo'lishi noma'lum, yangi "echintiruvchi fermentlarni" hosil bo'lishiga ehtiyoj yo'q deb hisoblanadi.

OITS virusining hujayraga kirish jarayoni. Bu jarayon r-120 oqsilining T-xelper hujayralarining membranasidagi T-4 retseptorlar

bilan bog‘lanishidan boshlanadi. Elektron mikroskopda virus zarrasining T-hujayra retseptorlari bilan birikib, sitoplazmaga botib kirishi yaqqol ko‘rinadi. Avval hujayra membranasining protoplazma ichiga bo‘rtib chiqishi kuzatiladi va virus zarrasi vakuola bilan o‘raladi. Keyinchalik virus qobig‘i erib ketadi. Shu vaqtda virus hujayrada “yo‘qoladi,” uning RNK yoki k-DNKsi o‘ta kichik bo‘lganligi sababli elektron mikroskopda ko‘rinmaydi. Sekin-asta virus replikatsiyasi boshlanadi va kasallangan hujayra membranasida r-120 oqsili paydo bo‘ladi. Ushbu bosqichda virus hosil bo‘layotgan kasal hujayrani molekula darajasida sog‘lom hujayradan farqlash mumkin. O‘tgan vaqt bilan elektron mikroskop yordamida ko‘plab virus zarralarini kuzatish mumkin bo‘ladi. Hozirgi vaqtda kasallangan hujayra membranasida r-120 oqsilining paydo bo‘lishi ushbu xavfli virusga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda qo‘llanmoqda.

Viruslarning hujayradan hujayraga o‘tishi. O‘simlik viruslari zararlangan hujayradan yangi hujayraga plazmodesmalar (hujayralararo ko‘prikchalar) orqali o‘tadi. Hayvon viruslarida esa, antivirus zardobi mavjud bo‘lishiga qaramay, virus bir hujayradan boshqasiga o‘taveradi. Bunday o‘tishlar herpes (uchuq), respirator va boshqa viruslarda uchraydi.

Ajratilgan nuklein kislotalarning hujayraga kirishi. Ajratilgan nuklein kislotalarning hujayraga kirishi yaxshi o‘rganilmagan. Polioviruslarning nuklein kislotalari hujayraga avval juda tez adsorbsiyalanadi va bu jarayon boshqa tashqi omillarga bog‘liq emas. Shu bosqichda RNK o‘z RNK-azaga sezgirligini to‘liq saqlaydi. So‘ngra virus nuklein kislotalari hujayraga kiradi va RNK-azaga sezgirlik

yo‘qoladi. Ushbu jarayon tashqi muhit omillariga (harorat, pH, osmotik bosim va boshqalar) o‘ta sezgir hisoblanadi.

6.2. Virus DNK sining sintezi

Ko‘pgina viruslar tarkibida asosan bitta turdagi nuklein kislota mavjud bo‘ladi. Infeksion jarayon hujayraga kirgan yagona virus zarrasidan boshlanadi, demak, bu jarayon bitta nuklein kislotasi asosida rivojlanadi. Ushbu yagona nuklein kislota hujayrada patologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi va bir vaqtning o‘zida ko‘plab yangi virus zarralarining shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Yangi virus zarralari hujayrada dastlab mavjud bo‘lmagan virus nuklein kislotasi va oqsillaridan iborat. Yangi nuklein kislota va oqsillar sintezi virus reproduksiyasining asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Viruslar bakteriyalardan farqli o‘laroq, ularning tarkibiy qismlari hujayrada alohida-alohida sintezlanadi va yakunda tayyor virus zarrachalariga yig‘iladi. Ushbu jarayon **dis’yunktiv ko‘payish** deb ataladi.

Virusning nuklein kislotalari va oqsillarining sintezi kasallangan hujayraning turli joylarida va turli vaqt oralig‘ida amalga oshadi. Garchi hujayradagi barcha sintetik jarayonlar o‘zaro bog‘liq va bir butun tizimni tashkil etsa-da, ularni osonroq tushunish uchun virus DNKsi, RNKsi va oqsillari sintezining mexanizmlari alohida ko‘rib chiqiladi.

Har bir jarayonda quyidagi masalalarga e‘tibor qaratiladi:

- Virus makromolekulalarining sintezi uchun qaysi substratlar ishlatiladi;

- Bu monomer substratlarni polimer zanjirga birlashtiruvchi fermentlar qanday ishlaydi;
- Matritsa sifatida xizmat qiluvchi nuklein kislotaning maxsus ketma-ketligi substratlarni qanday boshqaradi;
- Virus makromolekulalarining sintez jarayonini boshqarish qanday amalga oshadi.

Hujayra DNK sintezining umumiy sxemasi


Hujayra DNK sintezi uchun asosiy substratlar dezoksiribonukleozidtrifosfatlardir. Ular quyidagilardan iborat: dezoksiadenozintrifosfat (d-ATF), dezoksitimidintrifosfat (d-TTF), dezoksitsitidintrifosfat (d-STF), dezoksiguanozintrifosfat (d-GTF). Nukleotidlar tarkibida besh turdagi azot asoslari uchraydi. Shulardan ikkitasi, adenin va guanin, DNK va RNK tarkibiga kiradi va purin asoslari sifatida tasniflanadi. Timin faqat DNK tarkibida, uratsil esa faqat RNK tarkibida uchraydi. Nukleotidlar tarkibida riboza (RNK uchun) yoki dezoksiriboza (DNK uchun) mavjud. Barcha nukleotidlar fosforni mono-, di- yoki trifosfat shaklida o'z ichiga oladi.

Ushbu struktura elementlari polinukleotid zanjiriga fermentlar kompleksi yordamida birlashadi. Zanjirdagi nukleotidlarning ketma-ketligi ona DNK zanjirida mavjud bo'lgan shifr asosida shakllanadi, bu esa matritsa vazifasini bajaradi. Nuklein kislotalar sintezida matritsa komplementarlik prinsipi asosida ishlaydi.

DNKning yangi molekulalari Uotson va Krik tomonidan tavsiya etilgan model bo'yicha ona molekulasining ikkilanishi (replikatsiyasi) orqali hosil bo'ladi. Ushbu jarayon davomida ona DNK zanjirining qo'sh

spirali sekin-asta ajraladi va despirallashadi. Har bir ajralgan zanjirga komplementar zanjir shakllanadi. Komplementar juftliklar quyidagicha: adenin timin bilan, guanin sitozin bilan juftlashadi. Natijada, ona DNK molekulasidan ikki yangi molekula hosil bo‘ladi, ularning har biri ona molekulasiga to‘liq o‘xshash bo‘ladi.

Bu turdagi replikatsiya usuli **yarim konservativ replikatsiya** deb ataladi, chunki har bir qiz molekula ona molekulasidan olingan bir zanjirni o‘z ichiga oladi.



23-rasm. DNK replikatsiyasining sxemasi (chapda); DNKning yarim konservativ replikatsiya sxemasi (o‘ngda)

Virus DNK si sintezini o'rganish metodlari

Virus DNK si sintezi mexanizmini o'rganish uchun virus DNK sini hujayra DNK sidan farqlaydigan metodlarga ega bo'lish kerak. Bunday metodlarni birqancha guruhlari mavjud.

Virus DNK sini hujayra DNK sindan farqlash usullari

1. **Yuqumlilik.** Virus DNK sini hujayra DNK sindan ajratishning eng samarali usuli — uning yuqumlilik xususiyatini aniqlashdir. Kasallangan hujayralardan yuqumli virus DNK sini ajratish texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Ammo hali barcha turdagi viruslardan yuqumlilikni saqlagan holda virus DNK sini muvaffaqiyatli ajratishning universal usuli ishlab chiqilmagan.

2. **Gibridizatsiya.** Virus DNK si va qiz molekulalarining ona DNK si molekulalariga o'xshashligi sababli gibridizatsiya usuli qo'llaniladi. Bu usulda tadqiqot materialini toza DNK preparati yoki in vitro sharoitida tayyorlangan RNK preparati bilan bog'lanadi.

3. **Fizik-kimyoviy usullar.** Virus DNK sini yuqori darajada tozalangan virus preparatlaridan ajratib olish va uning xususiyatlarini o'rganish mumkin. Ushbu xususiyatlardan foydalanib, tozalanmagan hujayra ekstraktidagi virus DNK sini miqdoriy aniqlash ham mumkin.

4. **Noyob nukleotidlar.** Virus DNK si tarkibida hujayra DNK sida uchramaydigan maxsus asoslar mavjud. Masalan, T-juft bakteriofaglarining DNK tarkibida 5-oksimetilsitozin uchraydi. Shunday qilib, 5-oksimetilsitozin miqdorini aniqlash orqali virus DNK si hajmini baholash mumkin.

5. Molekulyar massa va nukleotid tarkibi. Virus va hujayra DNK lari bir xil asoslardan tuzilgan bo'lishiga qaramasdan, ularni molekulyar massasi va nukleotid tarkibi orqali ajratish mumkin. Saxaroza yoki seziy sulfati zichligi gradientida sentrifugatsiya yoki metillangan albumin kolonkalarida xromatografiya yordamida DNK larni fizik-kimyoviy usullar bilan ajratish mumkin.

6. Nishonlangan DNK o'tmishdoshlari. Virus DNK sining sintez jarayonini kuzatish uchun DNK o'tmishdoshlari, masalan, timidin yoki fosfat izotoplari bilan nishonlanadi. So'ngra ajratilgan DNK preparatining radioaktivligi aniqlanib, virus DNK si mavjudligi baholanadi.

7. Sitologik usullar. Virus bilan zararlangan hujayralarda DNK ning joylashishi (lokalizatsiyasi) aniqlanadi. Hujayra DNK si asosan yadroda joylashadi, ammo sitoplazmada DNK miqdorining oshishi virus DNK sining sintezlanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon gistoximiya va avtoradiografiya yordamida o'rganiladi. Ushbu usul ayniqsa hayvon va odam viruslari bilan ishlaganda samarali hisoblanadi.

Virus DNK si sintezining substratlari

Virus DNK sining xususiyatlari va sintezi

Virus DNK si, xuddi hujayra DNK si kabi, to'rtta asosiy nukleotiddan tashkil topgan: dezoksiadenozinmonofosfat (d-AMF), dezoksitimidinmonofosfat (d-TMF), dezoksisitozinmonofosfat (d-SMF), va dezoksiguanozinmonofosfat (d-GMF). Ushbu nukleotidlar DNK sintezida ishlatiladigan umumiy dezoksiribonukleozidtrifosfatlar (d-ATF, d-TTF, d-STF, d-GTF) orqali ta'minlanadi.

Biroq, ba'zi viruslarning DNK si tarkibida hujayra DNK sida uchramaydigan noyob nukleotidlar mavjud. Masalan:

- **T-juft bakteriofaglar** DNK si tarkibida d-SMF o'rniga dezoksi-5-oksimetilsitidinmonofosfat (d-OMSMF) uchraydi.
- **Bacillus subtilis** ning ayrim faglari DNK si tarkibida d-TMF o'rniga dezoksimetiluridinmonofosfat (d-OMUMF) mavjud.

Bu kabi odatiy bo'lmagan nukleotidlarni o'z ichiga olgan virus DNK si sintezi uchun mos keluvchi noyob nukleozidtrifosfatlar, masalan, d-OMSTF va d-OMUTF zarur bo'ladi. Virus bilan zararlangan hujayralarda ushbu noyob substratlar maxsus jarayonlar orqali hosil bo'ladi.



Virus DNK sining modifikatsiyalari

Ba'zi viruslarning DNK si glyukozil guruhlari bilan bog'langan bo'lib, bu jarayon uchun **uridindifosfat-glyukoza** (UDP-glyukoza) substrat sifatida xizmat qiladi. Ayrim holatlarda virus DNK si tarkibidagi nukleotidlar metillangan bo'ladi, bunda **S-adenozilmetionin** metil guruhlarni manbai sifatida ishlatiladi.

Virus DNK sintezida ishtirok etuvchi fermentlar

T-juft bakteriofaglar bilan zararlangan hujayralar misolida d-OMSTF substratining sintezini ko'rib chiqamiz. Hujayra fag bilan zararlanmagan holatda bu modda mavjud emas. Ammo fag bilan zararlangandan so'ng, hujayra tezda **5-oksimetilsitozin** hosilalarini sintez qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Zararlangan hujayrada dastlabki

daqiqalardan boshlab yangi ferment — **d-SMF oksimetilaza** ishlab chiqariladi. Ushbu ferment quyidagi reaksiyani katalizlaydi:



Virus infeksiyasi davrida oksimetilaza fermenti hosil bo‘lishi va uning ahamiyati

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oksimetilaza fermenti hujayrani kasallantiradigan fag tomonidan olib kirilmaydi. Fag zarrachalarida ushbu ferment mavjud emasligi aniqlangan. Agar fag oksimetilazani olib kirsam, bir mikroob hujayrasida hosil bo‘lgan oksimetilaza miqdori fag miqdoriga teng bo‘lishi kerak edi. Biroq bu tajribaviy ma’lumotlar bilan tasdiqlanmadi.

Normal hujayra ekstrakti fag bilan kasallangan hujayra ekstrakti bilan aralashtirilganda oksimetilaza faolligi o‘zgarmasdan qoladi, bu esa kasallanmagan hujayrada oksimetilaza faolligini bostiruvchi biror modda yoki ingibitor yo‘qligini ko‘rsatadi. Demak, oksimetilaza fermenti fag bilan kasallangan hujayrada yangi hosil bo‘ladi. Ushbu fermentning hosil bo‘lish tezligi yuqori: bir soniyada 9 molekula oksimetilaza sintezlanadi.

Genetik axborot manbai

Oksimetilaza fermentining genetik axboroti fag genomida joylashganligi aniqlangan. Tajribalar davomida oksimetilaza hosil qila olmaydigan mutant faglar va boshqa eksperimentlar yordamida bu gen fag xromosomasidagi 42 gen ichida joylashgani tasdiqlandi.

"Ertagi fermentlar" tushunchasi

Oksimetilaza fermenti misolida boshqa viruslar tomonidan induksiya qilingan fermentlar hosil bo'lishi mexanizmi tushuniladi. Ushbu fermentlar infeksiyon jarayonning birinchi bosqichlarida hosil bo'lib, virus qismlarini sintez qilishda ishtirok etadi, lekin tayyor virus tarkibiga kirmaydi. Ular "ertagi fermentlar" yoki "ertagi oqsillar" deb nomlanadi.


Virus DNK substratlarini sintezida ishtirok etuvchi fermentlar

T-juft fagi bilan zararlangan ichak tayoqchasi hujayralarida virus DNK substratlarining sintezida qatnashadigan fermentlar yaxshi o'rganilgan:

1. **Fosfataza:** d-STF ni d-SMF gacha defosforillaydi, bu jarayon fag DNK si sintezi uchun muhim.
2. **Oksimetilaza:** d-SMF ni d-OMSTF ga aylantiradi.
3. **Dezaminaza:** d-SMF ni d-UMF ga aylantiradi.
4. **Timidilatsintetaza:** d-UMF ni d-TMF ga aylantiradi.

Ushbu fermentlar fag uchun kerak bo'lmagan d-STF ni chetlatib, fag DNK sintezi uchun zarur bo'lgan substratlarni hosil qiladi. Bundan tashqari, kasallangan hujayrada nukleozidtrifosfatlarni fosforillovchi

yangi kinazalar paydo bo'ladi, bu jarayon virus DNK sintezida asosiy ahamiyatga ega.



24-rasm.T-2 fagi bilan kasallangan E.coli hujayrasidagi dezoksiribonukleozidtrifosfatlarni sintezlanish sxemasi

To'q qora strelklar bilan fag induksiyalagan fermentlar katalizlaydigan reaksiyalar ko'rsatilgan. 1 – d-STF ning pirofosfatazasi; 2) d-SMFning oksimetilazasi; 3) d-SMF ning dezaminazasi; 4) d-SMF ning timidilatsintetazasi; 5) kinaza(1)

Bacillus subtilis ni zararlovchi ba'zi faglarining DNK sintezi uchun kerakli substrat — d-OMUTF hosil bo'lishi quyidagi mexanizm orqali amalga oshadi:

Substrat hosil bo'lish jarayoni

Bu jarayonda d-SMF ni d-UMF ga aylantiruvchi **dezaminaza fermenti** faollashadi. Shuningdek, ushbu faglar T-juft fagi oksimetilazasidan farq qiluvchi o'ziga xos **oksimetilaza fermentini** induksiya qiladi. Bacillus subtilis uchun o'ziga xos oksimetilaza d-UMF ni d-OMUMF ga aylantiradi, so'ngra mos kinaza yordamida d-OMUMF fosforlanib **d-OMUTF** hosil bo'ladi.

Qo'shimcha mexanizm sifatida mazkur fag **timidilatsintetaza fermentini** bostiruvchi oqsil ingibitorini sintezlaydi. Bu ingibitor d-TMF ni d-UMF dan hosil bo'lish jarayonini to'xtatib, fag uchun zarur bo'lmagan substratlar sintezini cheklaydi. Agar fag DNKsi tarkibi d-

TMF o'rniga d-UMF dan iborat bo'lsa, noyob substratlar sintezi ancha osonlashadi. Bunda asosiy jarayon d-STF ni dezaminirlash hisoblanadi.

Virus DNK substratlari va fermentlar faolligi

Agar virus DNK tarkibi hujayra DNK tarkibidan farq qilsa, yangi fermentlar faqat noyob substratlar zarur bo'lganda hosil bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga, hujayrada mavjud fermentlar faolligi virus induksiyasi bilan oshadi. Misol uchun, DNK tutuvchi hayvon viruslari (ospovaksina, oddiy uchuq va boshqalar) bilan zararlangan hujayralarda **timidinkinaza** va **timidilatkinaza** fermentlari faollashishi kuzatiladi.

Virus tomonidan induksiya qilingan fermentlar quyidagi jihatlarda hujayra fermentlaridan farq qiladi:

- **Termostabilligi** (haroratga chidamlilik darajasi).
- **Mixaelis konstantasi.**
- **pH ga nisbatan faolligi.**
- **Antigen xususiyatlari.**

Virus fermentlari substratning past konsentratsiyasida ham yuqori tezlikda reaksiya amalga oshirish qobiliyatiga ega.

Substratlar manbai

1. **Hujayra DNK si:** Virus DNK sintezi uchun hujayra DNK si substrat sifatida ishlatilishi mumkin. Bu jarayonda hujayra DNK si dezoksiribonukleotidmonofosfat yoki dezoksiribonukleozidlarga gidrolizlanadi, keyin trifosfatlarga fosforlanadi.

2. **Hujayra ribonukleotidlari:** Virus DNK sintezi uchun substrat manbai sifatida hujayra ribonukleotidlari ham xizmat qilishi mumkin.

6.3. Virus informatsion RNKsi

Yuqorida qayd etilganidek, virus hujayraga kirgandan so'ng, hujayrada ilgari sintezlanmagan yangi fermentlar sintezi boshlanadi. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, virus DNK si hujayrani yangi fermentlarni sintez qilishga "o'rgatadi." Ushbu yangi ferment aminokislotalar ketma-ketligidan iborat bo'lib, polipeptid zanjirlarini shakllantiruvchi oqsildir. Polipeptidlarning tarkibiy ketma-ketligi haqida ma'lumot virus DNK sining ma'lum bir uchastkasidagi nukleotidlar ketma-ketligida kodlangan bo'ladi. Masalan, **oksimetilaza fermenti** T-juft faglar DNK si tarkibida shifrlangan.

Oqsillarni sintez qilishda ribosomalar uchun kerakli axborotni **informatsion RNK (m-RNK)** uzatadi. m-RNK ning nukleotidlar ketma-ketligi unga komplementar bo'lgan virus DNK sidagi nukleotidlar ketma-ketligi asosida shakllanadi. Bu m-RNK ribosomada sintezlanadigan polipeptid zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligini belgilaydi. Fag bilan zararlangan hujayrada hosil bo'ladigan virusga xos m-RNK o'z navbatida **oksimetilaza fermentini** sintezlash uchun mas'ul bo'ladi.

Virus DNK si sintezining fermentlari

Ikki guruh fermentlar ajratiladi: birinchi guruh substratlarni yagona DNK polinukleotid zanjiriga birlashtiruvchi fermentlardan, ikkinchi guruh esa sintezlangan DNK zanjirini qo'shimcha modifikatsiya qiluvchi fermentlardan iborat.

DNK-polimeraza fermenti hujayrada mavjud substratlar yordamida qiz DNK molekulasini sintezlaydi. Bundan tashqari, DNK sintezida turli funksiyalarni bajaruvchi kompleks fermentlar tizimi ishtirok etadi. Birinchisi, har bir ona DNK zanjiriga komplementar zanjir

sintez qiluvchi DNK-polimeraza; ikkinchisi, DNK molekulasida fosfodiefir bog'larini ajratib, bo'shliq (uzilish) hosil qiluvchi endonukleaza xususiyatiga ega ferment; uchinchisi, DNK zanjiridagi fosfodiefir bog'larini tiklovchi polinukleotidligaza. Bundan tashqari, boshqa fermentlarning mavjudligi ehtimoli ham bor.

Virus bilan zararlangan hujayradagi DNK-polimeraza kasallanmagan hujayradagidan bir qancha farqlarga ega, jumladan, ingibitorlarga sezgirli va immunologik xususiyatlari bilan.

Ikki zanjirli virus DNK sining replikatsiyasi

Virus replikatsiyasi natijasida yangi avlodda ona virus DNK belgilari saqlanib qolishi kerak. Virusning replikatsiyasi matritsa sifatida uning DNK molekulasidan foydalanadi, chunki hujayra DNKsi virusga mos keluvchi uchastkalarga ega emas. Uotson-Krik sxemasiga muvofiq ikki zanjirli DNK replikatsiyasi amalga oshadi.

- **Polukonservativ replikatsiya:** Har bir yangi molekula bittadan ona zanjir va bittadan yangi sintezlangan zanjirdan tashkil topadi. Keyingi avlod molekulalarining yarmi ona DNK materialidan tashkil topadi. Shu sababli DNK molekulalari har doim ona materialini qisman saqlab qoladi.

- **Dispersion mexanizm:** Bu mexanizm bo'yicha ona DNK molekulasi kichik bloklarga bo'linib, yangi qiz DNK molekulalarini sintez qilishda ishtirok etadi. Ona DNK fragmentlarining qiz molekulalar orasida taqsimlanishi sentrifugalash va radioaktiv markerlardan foydalanib tasdiqlangan.

DNK replikatsiyasi asosan polukonservativ mexanizm asosida amalga oshadi, ammo ayrim fragmentlar orasida almashinish sodir bo'lishi mumkin. Bu jarayonning jadalligi virus turiga bog'liq: T-juft faglarda lyambda fagidan yuqori.

Virus DNK sintezining sxemasi

Ikki zanjirli virus DNKsi hujayrada ikki asosiy funktsiyani bajaradi:

1. **Transkripsiya:** i-RNK sintezlanadi, u esa ribosomada virusga xos oqsillar sintezida ishtirok etadi.

2. **Replikatsiya:** Hujayrada yangi avlod virus DNK molekulalari sintezlanadi. Bu jarayonda ribosomada sintezlangan fermentlar qatnashadi.

Natijada, har xil virusga xos oqsillar va yangi qiz virus DNK molekulalari shakllanadi.

6.4. Bir zanjirli DNKning replikatsiyasi

Bir zanjirli virus DNK sintezida komplementarlik prinsipi asosiy rol o'ynaydi. Ushbu prinsipga ko'ra, bir zanjirli virus DNKsi ("musbat" zanjir) asosida unga mos keluvchi komplementar ("manfiy" zanjir) molekula sintezlanadi. Yakuniy bosqichda esa yana musbat zanjirlar hosil bo'lishi kerak. Qiz musbat zanjirlar yangi sintezlangan manfiy zanjirlar matritsa sifatida ishlatilishi orqali hosil bo'ladi.

Misol: ϕ X 174 fagining hujayradagi replikatsiyasi

ϕ X 174 fagi DNKsi xalqa shaklida bo'lgan bir zanjirli molekuladan iborat. Fag bilan hujayra zararlangandan so'ng, bu DNK ona molekulasidan farqlanuvchi yangi shaklga o'tadi. Bu jarayonda hosil bo'lgan DNK fizik-kimyoviy usullar yordamida ajratib olinib, uning

xususiyatlari o'rganilgan. Yuqumlilik testlari natijasida bu DNK virus tabiatiga egaligi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalari:

1. Yangi DNKning qovushqoqligi va temperatura ta'sirida optik zichligining o'zgarishi (DNKning "erishi") uni fagning bir zanjirli DNK si bilan emas, balki ikki zanjirli DNK ga mos kelishini ko'rsatdi.

2. Gradient zichlikda sentrifugalash natijasida bu yangi DNK ikki zanjirli DNK uchun xarakterli ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlangan.

3. Nazariy hisob-kitoblarga ko'ra, uning nukleotid tarkibi Chargaff qoidalariga mos keladi, bu esa uning ikki zanjirli DNK ekanligidan dalolat beradi.

Yangi hosil bo'lgan DNK shakli: Bu yangi DNK molekulasi "replikativ shakl" (RF) deb nomlanadi. RF ϕ X 174 fagi uchun xarakterli bo'lib, siklik xalqa shakliga ega ekanligi elektron mikroskop yordamida tasdiqlangan. RF DNK molekulasi uchlaridagi nukleotidlarni uzib tashlashga qodir bo'lgan ekzonukleazalarga nisbatan yuqori rezistentlikka ega.

Ushbu mexanizm ϕ X 174 fagining replikatsiyasini amalga oshiruvchi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, DNK sintezida bevosita ishtirok etuvchi DNK-polimeraza, polinukleotidligaza va endonukleaza kabi fermentlar mavjud. Ularning funksiyalari quyidagilardan iborat: substratlarni yagona zanjirga birlashtirish (DNK-polimeraza), etishmayotgan bog‘larni tiklash (polinukleotidligaza) va kerak bo‘lganda DNK zanjirini uzish (endonukleaza). Ushbu fermentlar virus DNK sintezini amalga oshiruvchi fermentlar deb ataladi.

Virus DNK sintezida zarur substratlarni shakllantirishda ishtirok etuvchi fermentlar, shuningdek, struktura oqsillari ham hujayra ribosomalari orqali sintezlanadi. Hujayradagi transport RNK molekulalari aminokislotalarni virus informatsion RNK sidagi (RNK tutuvchi viruslarda i-RNK vazifasini bir zanjirli virus RNK si bajaradi) kodga muvofiq, birlashtirib, oqsil molekulasini hosil qiladi.

Hujayraning turli qismlarida bir vaqtning o‘zida shakllangan nuklein kislota va oqsillar o‘zaro "o‘z-o‘zidan yig‘ilish" (samosborka) orqali virus zarrachalarini hosil qiladi. Bu jarayon virus oqsilining xos xususiyati bo‘lib, repolimerizatsiya deb ataladi. Agar virus oqsili toza preparatdan ajratib olinib, ma’lum sharoitlarda probirkada saqlansa, bir muddat o‘tgach, u virusga o‘xshash (ammo nuklein kislotasiz) tayoqchasimon zarrachalar hosil qiladi. Ammo bu zarrachalar uzunligi

bir xil emas, chunki uzunlikni boshqaruvchi omil — virus nuklein kislotasi hisoblanadi.

Agar virus oqsili va nuklein kislotasi toza holda ajratilib, qayta birlashtirilsa, uzunligi virusning tabiiy uzunligiga teng, kasallantirish xususiyatiga ega virus zarrachalari hosil bo'ladi. Shu sababli, virus formasini belgilash oqsilga, kasallantirish qobiliyatini va uzunlikni boshqarish esa nuklein kislotaga xosdir.

Hozirda virus oqsilini boshqa bir virus nuklein kislotasi bilan birlashtirish orqali "gibrid" viruslar olish imkoni mavjud. Masalan, arpada chiporlanish kasalligiga sabab bo'luvchi sharsimon virus oqsili tamaki chiporlanish kasalligi virusi RNK si bilan birlashtirilsa, sharsimon "gibrid" virus hosil bo'ladi. Agar bu "gibrid" virus o'simlikka yuqtirilsa, natijada tayoqchasimon tamaki chiporlanish kasalligi virus zarrachalari hosil bo'ladi. Bu "gibrid" virusdagi RNK tamaki chiporlanish kasalligi virusidan olinganligini ko'rsatadi, bu esa virus irsiyatini belgilovchi asosiy omil RNK ekanligini tasdiqlaydi.

Virus zarrachalari hujayraning yorilishi orqali yoki hujayrani shikastlamasdan tashqariga chiqishi mumkin. O'simliklarda virus yoki uning nuklein kislotasi bir hujayradan ikkinchisiga plazmodesmalar orqali o'tadi. Virusning bunday o'tishini ta'minlovchi maxsus transport oqsili mavjudligi aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, viruslarning o'simliklarda ko'payishi va kasallikni keltirib chiqarish jarayoni murakkab. Ushbu jarayonlarning molekulyar mexanizmlarini o'rganish viruslarga turg'unlik yoki sezgirlikni aniqlashga yordam beradi va ularga qarshi ilmiy asoslangan kurash usullarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Viruslarning tabiati. Viruslarning tabiatini aniqlash bo'yicha olimlar turli gipotezalarni ilgari surganlar. Quyida bu gipotezalar qisqacha bayon etiladi:

Sodda shakllardan kelib chiqish. Birinchi gipoteza viruslarning hujayraviy tuzilishga ega bo'lmagan, sodda biologik shakllardan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Bu nazariya ularning evolyutsiyasi jarayonida oddiy tuzilmalarni saqlab qolganini ko'rsatadi.

Degeneratsiyaga uchragan mikroorganizmlar. Ikkinchi gipoteza viruslarning yuqori rivojlangan mikroorganizmlar bo'lib, degeneratsiya jarayonida hujayraviy tuzilish va mustaqil hayot kechirish qobiliyatini yo'qotganligini taklif qiladi.

Hujayra komponentlarining hosilasi. Uchinchisi esa viruslarni hujayralar tarkibidagi komponentlarning ajralishi natijasida yuzaga kelgan deb tushuntiradi. Bu gipoteza ular hujayralardagi genetik materialning mustaqil bo'linishi orqali shakllanganligini tasdiqlaydi.

Viruslarning molekulyar tuzilishi va xususiyatlari. Bioximiyaviy tadqiqotlar viruslarning boshqa organizmlar singari bir xil molekulyar tarkibga ega ekanligini ko'rsatgan. Ammo viruslar genetik moslashuvchanligi jihatidan ancha yuqori darajada turadi. Buning ehtimoli ularning kichik genomga ega bo'lishi va yuqori replikatsiya tezligidir. Bu xususiyatlar viruslarni hayotning boshqa shakllaridan farqlashda muhim o'rin tutadi.

Hayvonlar viruslari yuqori darajadagi genetik moslashuvchanlikka ega bo'lib, ularda komplementatsiya, rekombinatsiya, psevdorekombinatsiya va satelitizm kabi hodisalar kuzatiladi.

Shunday qilib, viruslar hujayrasiz organizmlar hisoblanib, boshqa organizmlardan shakli va xususiyatlarining xilma-xilligi, har xil organizmlarda turli kasallik alomatlarini keltirib chiqarishi, shuningdek, tarkibida faqat bir turdagi nuklein kislotasi mavjudligi bilan farqlanadi. Viruslar o'zida moddiy va tirik organizmlarga xos xususiyatlarni mujassam etgan bo'lib, faqat tirik to'qimalarda ko'payish qobiliyatiga ega. Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirib, viruslarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

“Viruslar organizm, hatto o'ta kichik organizm - mikroorganizm ham bo'lmagan, minimal organizmlar bo'lgan mikoplazmalar, rikketsiyalar va xlamidiylar kabi o'z oqsil sintezlovchi sistemalariga ham ega bo'lmagan, nuklein kislotasining sintezi har xil darajada hujayraga bog'liq bo'lgan, hujayra oqsil sintezi va energetik sistemasiga esa to'la bog'liq bo'lgan va mustaqil evolyusiyaga uchraydigan, avtonom genetik strukturalar bo'lib, tabiatning mikroskopik molekulalarga yaqin qilib yaratgan, o'ziga xos parazitlik qilib yashaydigan, xilma-xil, ko'p sonli guruhlariga ega va Vira saltanatiga birlashgan hayotning hujayrasiz formasidir”.

(Bu ta'rifni virusologiya predmeti qismida ham berilgan, ammo negadir shu bobni oxirida ham eslatish ma'qulga o'xshayapti).

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo'llanilgan texnologiyalar:

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilarning umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash va qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, tahlil qilish hamda xulosalash

ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham zarur vosita hisoblanadi. Bu texnologiya o'quv jarayonini samarali tashkil etishga va o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

«FSMU» metodi

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab bering va misol keltring
U	• fikringizni umumlashtiring

Topshiriqlar:

1. Virus va hujayra orasidagi munosabat turlarini va ahamiyatini FSMU texnologiyasi asosida izohlab bering.
2. Sezgir sistemalar va ularning virusologiyada qo'llanilishining qanday ahamiyati mavjud?
3. Infeksion jarayonning asosiy parametrlarini aniqlashning qanday yo'lari mavjud?
4. Viruslarning hujyaraga kirishining qanday turlari mavjud va uni aniqlashning yo'llarini sanab o'ting?

Savollar

1. Virus va hujayra orasidagi munosabatlarnin xillarini tushuntirib bering.
2. Produktiv infeksiion jarayon deb nimaga aytiladi va uni qanday viruslar amalga oshiradi?

3. Lizogeniya yoki virogeniya nima va ular qanday vaqtlarda hosil bo‘ladi?

4. Fizik virus zarralari deb qanday viruslarga aytiladi va ular qaysi metod bilan aniqlanadi?

5. Yuqumli virus zarralari deb qanday virus zarralariga aytiladi?

6. Yuqumli virus zarralarini aniqlash metodini szlab bering.

7. Viruslarni miqdoriy aniqlash deb nimaga aytiladi? Hayvon viruslarini qanday usullar bilan miqdoriy aniqlanadi?

8. Faglarni qanday qilib miqdoriy aniqlanadi?

9. Fitopatogen viruslarni qanday qilib miqdoriy aniqlanadi?

10. Viruslarni aniqlashda ishlatiladigan sezgir sistemalarni aytib bering?

11. Ishlatiladigan (qo‘llaniladigan) usulga qarab virus 1 ml dagi virus miqdorini, yoki blyashka hosil qiluvchi birlikka qarab (BOE), yoki to‘qima kulturasida bor probirkalarni 50% da sitopatogen ta’sirlarga ega doza (ni), yoki hayvonlarni 50% ni letal holatga olib keladigan miqdorini aniqlashni qanday nomlanadi ?

12. LD₅₀ ni qanday usullarda aniqlanadi ?

13. Infektsion jarayon bosqichlarini aytib bering.

14. “Eklips” nima va u qanday organizmlarda uchraydi?

15. “Diz’yunktiv” ko‘payish deganda nimani tushunasiz?

16. Viruslar tomonidan qo‘zg‘atiladigan infeksiyalar jarayon bosqichlarining ketma-ketligini so‘zlab, tushuntirib bering.

17. $M = \frac{V}{N}$ formulasini tushuntirib bering

18. M - mnojestvennost zarajeniya (yuqish miqdori ko‘pligi) deb nimaga aytiladi? V- nimani va N – nimani bildiradi?

19. YUqtish uchun olingan (vnosimaya va effektivnaya) mnojestvennost zarajeniya deganda nimani tushunasiz?

20. Virus va hujayra retseptorlari deb nimaga aytiladi?

21. Viruslar DNK sini sintezi uchun qanday faktorlar kerak bo‘ladi?

22. Virus DNK si sintezini o‘rganish metodlarini sanab, tushuntirib bering.

23. Noyob nukleotidlarni qanday hosil bo‘lishi va ularni qaysi organizm genomida kodlanganligini ayting?

24. Viruslarni hujayraga kirishi: faglarni hujayraga kirishni aytib bering.

25. Hayvon viruslarini hujayraga kirishini aytib bering.

26. Fitopatogen viruslar hujayraga qanday kiradi, ko‘payadi va harakatlanadi, transport oqsili deb nimaga aytiladi?

27. Birzanjirli virus DNK sining replikatsiyasi?

28. Virus RNK sining konservativ replikatsiyasi?

29. Virus RNK sining yarim konservativ va assimetrik replikatsiyalari haqida ahborot bering.

30. Virus oqsillarining sintezida strukturaviy va nostrukturaviy oqsillar deb nimaga aytiladi?

31. Viruslarni etilishi va hujayradan chiqishi.

7-BOB. VIRUSLAR KLASSIFIKATSIYASI

7.1. Viruslarni klassifikatsiyasining rivojlanish tarixi haqida

Mikrobiologiyada sistematika (taksonomiya) mikroorganizmlarni ma'lum va aniq belgilar asosida tahlil qilib, ularning qarindoshlik munosabatlarini aniqlash va guruhlariga (taksonlarga) ajratish jarayonidir. Mikroorganizmlarning asosiy guruhlarini o'rganishdan oldin, ularni nomenklaturalarga ajratish prinsiplari haqida tushunchaga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Nomenklatura deganda, ma'lum bir sohada ishlatiladigan nomlar (atamalar) tizimi tushuniladi. Har qanday mikroorganizmlarni nomlash va sinflarga ajratish uchun nomenklatura tizimi va taksonomiya ob'ektlarini to'liq bilish zarur.

Aniqlagichda barcha mikroorganizmlar yuqorida keltirilgan taksonlar bo'yicha **Procariotae** dunyosiga (regnum) birlashtiriladi. Bu dunyo o'z navbatida to'rt bo'linga (divisio), bo'limlar esa sinflarga (classis), tartiblarga (ordo), oilalarga (familia), avlodlarga (genus) va turlarga (spesies) bo'linadi.

Mikroorganizmlar odatda hujayra devorining mavjudligi yoki yo'qligi, uning tarkibi va turi asosida bo'limlarga ajratiladi. Keyingi taksonomik kategoriyalar (sinf, tartib, oila, avlod, tur) esa mikroorganizmlarning morfologik, fiziologik, biokimyoviy va boshqa belgilari asosida aniqlanadi.

Viruslar bilan bog'liq holda, ularni sistemalashtirish va taksonlarga ajratish ishlari virusologlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Viruslar haqida ma'lumotlar to'plana boshlagan ilk kunlardan boshlab, ularning klassifikatsiyasini yaratish ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etgan.

Viruslarning hozirgi kun klassifikatsiyasi haqida soʻz yuritishdan oldin, bu sohada olib borilgan dastlabki qadamlarga va bugungi holatga qisqacha toʻxtalish maqsadga muvofiqdir.

D.A. Vasilev va uning hamkasabalarining "Viruslarning klassifikatsiyasi va nomenklaturasi" asarida Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qoʻmitasining zamonaviy talab va oʻzgarishlariga asoslangan viruslar klassifikatsiyasi bayon etilgan. Unda eng muhim zoopatogen viruslarning taksonomik kataloglari keltirilgan. Viruslar **DNK-tutuvchi, RNK-tutuvchi** va hali klassifikatsiya qilinmagan guruhlarga ajratilgan.

Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qoʻmitasining beshinchi maʼruzasida umurtqali va umurtqasiz hayvonlar, oʻsimliklar, zamburugʻlar va prokariotlarga tegishli boʻlgan 164 avlod (24 tasi hali klassifikatsiya qilinmagan), 71 oila, 9 kichik oila va bitta tartibga kiruvchi 3,6 ming virus turlari va subvirus agentlari tavsiflangan.

Maʼruzada zamonaviy taksonomik guruhlar keltirilib, ularda virus yoʻldoshlari (sattelitlar), viroidlar, prionlar hamda hali sinflarga boʻlinmagan viruslar ham tasvirlangan. Elektron versiyada esa amaliy va iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan **30 000 dan ortiq viruslar, ularning shtammlari va subtiplari** haqida maʼlumotlar mavjudligi taʼkidlangan.

Virusologiyada viruslarni klassifikatsiyasi va nomenklaturasi doimiy ravishda takomillashib, yangi viruslarning kashf etilishi va ular haqidagi maʼlumotlarning oʻzgarishi bilan yangilanib boradi. Har safar yangi oila, avlod va virus turlari aniqlanganda mavjud klassifikatsiya yangilanadi va toʻldiriladi.

So‘nggi o‘zgarishlar va yangiliklarni inobatga olib, Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo‘mitasi (MKTV) tomonidan viruslarning universal taksonomik tizimi takomillashtirilgan va kengaytirilgan versiyasi taqdim etilgan (Kartashova, 2007). Ushbu ma’lumotga ko‘ra, MKTV tomonidan 1973-yilda Moskvadagi Xalqaro mikrobiologiya kongressida viruslarning nomenklaturasi va klassifikatsiyasini birlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilingan. Shu vaqtdan boshlab Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo‘mitasi o‘z faoliyatini boshlab, viruslar klassifikatsiyasining universal tizimini shakllantirishga kirishgan.

Mazkur universal tizimda hozirda **3 tartib, 80 ta oila** (30 tasi fitoviruslarga tegishli), va **233 ta avlod** mavjud bo‘lib, ularga hayvonlar, o‘simliklar va mikroorganizmlarga tegishli viruslar kiradi. Ammo, bu tizimda hali to‘liq o‘rganilmagan va tasniflanmagan yuzlab viruslar ham mavjud.

Endi viruslarning tarixiy klassifikatsiyalari va ularni rivojlantirishda asos bo‘lgan kriteriyalar haqida qisqacha ma’lumot beramiz.

7.2. Viruslar klassifikatsiyasining qisqacha rivojlanishi

Virusologiyada viruslarni klassifikatsiyasi va nomenklaturasi doimiy ravishda takomillashib, yangi viruslarning kashf etilishi va ular haqidagi ma’lumotlarning o‘zgarishi bilan yangilanib boradi. Har safar yangi oila, avlod va virus turlari aniqlanganda mavjud klassifikatsiya yangilanadi va to‘ldiriladi.

So‘nggi o‘zgarishlar va yangiliklarni inobatga olib, Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo‘mitasi (MKTV) tomonidan viruslarning universal taksonomik tizimi takomillashtirilgan va kengaytirilgan versiyasi taqdim

etilgan (Kartashova, 2007). Ushbu ma'lumotga ko'ra, MKTV tomonidan 1973-yilda Moskvadagi Xalqaro mikrobiologiya kongressida viruslarning nomenklaturasi va klassifikatsiyasini birlashtirish bo'yicha qaror qabul qilingan. Shu vaqtdan boshlab Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo'mitasi o'z faoliyatini boshlab, viruslar klassifikatsiyasining universal tizimini shakllantirishga kirishgan.

Mazkur universal tizimda hozirda **3 tartib, 80 ta oila** (30 tasi fitoviruslarga tegishli), va **233 ta avlod** mavjud bo'lib, ularga hayvonlar, o'simliklar va mikroorganizmlarga tegishli viruslar kiradi. Ammo, bu tizimda hali to'liq o'rganilmagan va tasniflanmagan yuzlab viruslar ham mavjud.

Endi viruslarning tarixiy klassifikatsiyalari va ularni rivojlantirishda asos bo'lgan kriteriyalar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Umumiy va maxsus virusologiya, shuningdek, umumbiologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan akademik V.M. Jdanov XX asrning 50-yillarida klassik virusologlarning, jumladan K. Endryus, F. Fenner, F. Xolms, A. Lvov, R. Metys, X. Pereyra va P. Vaildilar qatorida "Viruslar taksonomiyasining Xalqaro qo'mitasi"ga abadiy a'zo sifatida saylangan. Uning rahbarligi va faol ishtiroki ostida umurtqali hayvonlar, o'simliklar va hasharotlar viruslarini tasniflash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilgan. Viruslarning klassifikatsiyasida ularning bir-birlari bilan evolyutsion bog'liqligi asosiy kriteriya sifatida belgilangan.

V.M. Jdanov virusologiya taksonomiyasi bo'yicha barcha zamonaviy talablarga mos keladigan ilmiy asoslarni shakllantirishga hissa qo'shgan. U o'zining shogirdlari bilan birgalikda yig'ilgan

materiallar va dunyo ilmiy adabiyotlari asosida viruslarni **Vira** saltanatiga kiritgan.

X.Endryus (1967) o'zining "Virusy pozvonochnykh" nomli ensiklopedik asarida viruslarni ilmiy tasniflashga katta e'tibor qaratgan va ularni **RNK-tutuvchi**, **DNK-tutuvchi** viruslar hamda o'sha davrgacha tasniflanmagan turli guruhlariga ajratgan. Bu guruhlar odam (pikornaviruslar, arboviruslar, miksoviruslar, qutirish virusi, qushlardagi leykoz virusi, sichqonlarda o'smalarni qo'zg'atuvchi viruslar kompleksi), hayvon (adenoviruslar, papovaviruslar, uchuq va chechak viruslari), qushlar (psittakoz virusi) va baliqlardagi kasallik qo'zg'atuvchi viruslarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro Viruslar Nomenklaturasi Qo'mitasi (XVNB) tomonidan tan olingan vaqtda viruslarning 55 ta oilasi mavjud bo'lib, ulardan 20 tasi odam va hayvon viruslarini o'z ichiga olgan edi (hozirgi kunda oilalar soni 80 taga yetgan).

Viruslar tasnifi quyidagi taksonomik darajalar bo'yicha amalga oshiriladi:

- **Tartib** (-virales)
- **Oila** (-viridae)
- **Kichik oila** (-virinae)
- **Avlod** (-virus)
- **Tur** (-virus)

Misol sifatida ayrim viruslarning qaysi olam, tartib, oila, kichik oila, avlod va turga tegishli ekanligi va ularning mezburlari haqida ma'lumot keltiriladi.

Keyinchalik, viruslar klassifikatsiyasida Linney tamoyillarini qo'llash bo'yicha qarama-qarshi fikrlar mavjud edi. Oxir-oqibat, olimlar bir to'xtamga kelib, avval viruslarni ma'lum guruhlariga ajratish, so'ngra ularni umumiy tamoyillar asosida tasniflash kerak degan xulosaga kelishdi. Andrewes va boshqalar, shuningdek, keyinchalik V.M. Jdanov, S.Ya. Gaydamovich, Lwoff, Horne, va ToupHier tomonidan taklif etilgan klassifikatsiyalar o'zaro quyidagicha farqlanadi: birinchisida Linney tamoyillari qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchisida viruslar shartli nomlar bilan atalgan. Biroq, umumiy yondashuv jihatidan ikkala klassifikatsiya ham Xalqaro Viruslar Taksonomiyasi Qo'mitasining (ICTV) birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan ishlab chiqilgan tasnifga mos keladi.

Viruslarni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlar quyidagilar:

1. Nuklein kislotalarining faqat bitta turining mavjudligi – virion tarkibida DNK yoki RNK bo'ladi, ammo ikkalasi birga emas.

2. Avtonom modda almashinuvi yo'qligi – virusning hayoti faqat parazitlik qiladigan hujayraning modda almashinuvi bilan bog'liq.

3. Hujayra tuzilishining yo'qligi – viruslar hujayraviy tuzilishga ega emas.

4. Dis'yunktiv (bo'laklarga ajratilgan) ko'payish usuli – virus komponentlari hujayrada alohida sintezlanadi va keyinchalik o'z-o'zidan yig'ilib, virion hosil bo'ladi.

Viruslar faqat ularga xos bo'lgan xususiyatlarga ega emas, chunki hujayra ichida parazitlik qilish kabi jihatlar boshqa hayot shakllarida ham uchraydi. Ammo yuqoridagi xususiyatlar tufayli viruslar hayvonlar va o'simliklardan tubdan farq qiladi va shu sababli ular mustaqil **Vira**

(viruslar) olamiga ajratildi. Viruslar olamida turli tartiblar, har bir tartib tarkibida oilalar, kichik oilalar, avlodlar va ularning tarkibida virus turlari aniqlangan.

Masalan, adenoviruslar oilasi **Mastadenovirus** avlodini o'z ichiga oladi, ular uchun mezbon organizm sifatida sutemizuvchilar (odamlar) xizmat qiladi. **Aviadenovirus** avlodi esa qushlarda parazitlik qiladi. Yana bir misol, chechak virusi oilasi (**Poxviridae**) ichida **Chordopoxvirinae** kichik oilasi joylashgan. Ushbu tamoyillar asosida boshqa viruslarning klassifikatsiyadagi o'rinlari ham ko'rsatilgan (12-jadval).

Virusologiya sohasidagi yangi tadqiqotlar va kashfiyotlar viruslarning klassifikatsiyasiga qo'shimchalar kiritilishiga va uning takomillashishiga olib keldi. Ilgari muhim hisoblangan klassifikatsiya mezonlariga qo'shimcha yangi mezonlar qo'shildi. Endi viruslarning shakli, virion tuzilishining simmetriyasi, nuklein kislotasining turi kabi xususiyatlar yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Viruslarni shakli, o'lchami, tashqi qobiqning mavjudligi yoki yo'qligi, zarrachadagi nukleoproteidning simmetriya turi, nuklein kislotasi turi kabi xususiyatlarga asoslanib guruhlariga ajratish viruslarni tasniflashning asosiy tamoyiliga aylandi.

Quyida mazkur tasnifning asosiy qoidalari keltirilgan. Ushbu klassifikatsiya virusning nuklein kislotasi turi (RNK yoki DNK), virion tarkibida tashqi qobiqning mavjudligi yoki yo'qligini inobatga oladi. Shuningdek, kapsidning diametri yoki kapsomerlarning xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi. Ushbu xususiyatlarga asoslanib viruslar va ularning guruhlariga nomlar beriladi. Masalan, oq beda mozaikasi virusining RNKdan iborat nuklein kislotaga ega ekanligi, spiral simmetriyaga ega

virion tuzilishi, tashqi qobiqning yoʻqligi va kapsid diametri kabi xususiyatlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

7.1.1. Hayvon, oʻsimlik va bakteriya viruslari

Nuklein kislotalari	Simmetriya Tipi	Tashqi qobiq i(+ -)	Kapsid diametri(A) yoki kapsomeri(K)	Viruslar	Guruh nomlari
RNK	V	-	100—130A	Oq beda mozaikasi, kartoshkaning- X virusi, kaktus virusi, kartoshkaning aukuba virusi, noʻxotni viskonsiya yoʻl-yoʻlligi virusi, bugʻdoy yoʻl-yoʻlligi mozaikasi virusi, lavlagining sariq virusi. Tamaki mozaikasi virusi, yovvoyi noʻxot mozaikasi virusi, bodringning yashil dogʻlanishi virusi, arpaning yoʻl-yoʻl mozaikasi virusi	Oʻsimlik viruslari
		+	170—200A 250A	Gripp, tovuq chumasi, Paragripp virusi, Senday, parotit, shoxli mollar chumasi, itlar chumasi, qizamiq, quturish, Raus sarkomasi, qushlar leykozi	Miksoviruslar, Paramiksoviruslar
RNK	K		32 K 60 K 92 K	TupHeps sariq mozaikasi Pomidor tupi shoxlanishi pakanaligi Poliomielit, Koksaki A va V, ECHO, rinoviruslar Jaroxatlanish oʻsmalari, reoviruslar	Oʻsimlik viruslari PikopHaviruslar, Reoviruslar

DNK	V	+	90-100 A	Ospovaksina, qushlar chechagi, mollar terisi jarohati	Poksviruslar
	K		12 K 42 K 252 K	Fag fX174 Poliomalar, papillomalar, SV40 Adenoviruslar, it gepatiti	Papovaviruslar Adenoviruslar,
			812	Radujnosti dolgonojki	Hasharot viruslari
		+	162 K	Uchuq, suv chechak, psevdobeshenstva	Gerpes virusi
	S	—	100S	T2 va boshqa juft faglar, V. megaterium fagi	Fagi

V – spiral simmetriya, K- kubimon simmetriya, S-aralash simmetriya

So‘nggi tuzilgan klassifikatsiyalarga ko‘ra, viruslar o‘z genetik materialini asosida ikki asosiy turga bo‘linadi: RNK-viruslar va DNK-viruslar. Viruslarni tartiblarga ajratishda quyidagi xususiyatlar inobatga olinadi: nukleokapsidning simmetriya turi, diametri (ikosaedr tipdagi viruslar uchun), kapsomerlar soni (kubimon simmetriya tipidagi viruslar uchun), tashqi qobiqning mavjudligi yoki yo‘qligi va boshqa morfologik va struktura xususiyatlari.

Mazkur mezonlarga asoslanib, umurtqali hayvonlar viruslari quyidagicha guruhlanadi:

- **Vira olami (tipi):** Viruslarning umumiy klassifikatsiyasi.
- **Kichik tiplar (subphyla):** Genetik material turi asosida bo‘linadi.
 - **Deoxyvira** (DNK asosli viruslar):
 - **Sinflar:** Nukleokapsid simmetriyasi asosida, masalan, *Deoxyhelica* (spiral simmetriya) yoki *Deoxycubica* (kubimon simmetriya).

▪ **Tartiblar:** Tashqi qobiqning borligi yoki yoʻqligiga qarab, *Chitovirales* (tashqi qobiq mavjud) yoki *Haplovirales* (tashqi qobiq yoʻq).

▪ **Oilalar:** Nukleokapsid diametri, kapsomerlar soni va boshqa xususiyatlariga koʻra, masalan, *Poxviridae*, *Microviridae*, *Parvoviridae*, *Papillomaviridae*, *Adenoviridae*, *Iridoviridae*, *Inophagoviridae*.

▪ **Ribovira** (RNK asosli viruslar):

◦ **Sinflar:** Nukleokapsid simmetriyasi boʻyicha, masalan, *Ribohelica* (spiral simmetriya) yoki *Ribocubica* (kubsimon simmetriya).

◦ **Tartiblar:**

▪ *Ribohelica* sinfida: *Rhabdovirales*, *Rigidoviridae*, *Flexiviridae*, *Sagovirales*.

▪ *Ribocubica* sinfida: *Gyminovirales*, *Togavirales*.

◦ **Oilalar:** Har bir tartibda bir qancha oilalar mavjud, masalan, *Dolichoviridae*, *Protoviridae*, *Pachyviridae*, *Leptoviridae*, *Mesoviridae*, *Adroviridae*, *Myxoviridae*, *Paramyxoviridae*, *Stomatoviridae*, *Napoviridae*, *Reoviridae*, *Arboviridae*.

Mazkur tartib va sinflar doirasida har bir oilaning oʻziga xos xususiyatlari aniqlangan boʻlib, ular jadval koʻrinishida tavsiflangan (3-jadval).

Hayvon viruslari sistematikasi (S. YA. Gaydamovich, 1965)

Olami, tip (Phylum)	Kichik tip (Subphyla)	Sinflar	Tartiblar	Oilalar
	Irsiy material	nukleokapsid simmetriyasi	Tashqi qobig'ining bor-yo'qligi	Nukleokapsid diametri, kapsomer va hokazolar
Vira	Deoxyvira	Deoxyhelica	Chitovirales	Poxviridae
		Deoxycubica	Haplovirales	Microviridae, Parvoviridae, Papillomaviridae, Adenoviridae, Iridoviridae, Inophagoviridae, Herpesviridae
		Deoxybinala	Peplovirales, Urovirales	Phagoviridae
	Ribovira	Riboheleica	Rhabdovirales, Rigidoviridales	Dolichoviridae, Protoviridae, Pachyviridae, Leptoviridae, Mesoviridae, Adroviridae, Myxoviridae, Paramyxoviridae, Stomatoviridae
			Flexiviridales	Napoviridae
			Sagovirales	Reoviridae
		Ribocubica	Gyminovirales	Arboviridae
			Togavirales	

7.2.1. Virus nuklein kislotasining tipi va zanjirlar sonlariga asoslangan klassifikatsiya

Mazkur klassifikatsiyaga ko'ra, barcha viruslar o'z nuklein kislota turiga qarab ikkita asosiy guruhga bo'linadi: **Dezoksiviruslar (DNK asosli)** va **Riboviruslar (RNK asosli)**. Ushbu guruhlar o'z navbatida quyidagicha tasniflanadi:

1. Dezoksiviruslar:

- Ikki zanjirli DNK (ikkizanjirli DNK) viruslari.
- Bir zanjirli DNK (birzanjirli DNK) viruslari.

2. Riboviruslar:

- Ikki zanjirli RNK (ikkizanjirli RNK) viruslari.
- Bir zanjirli RNK (birzanjirli RNK) viruslari.

Keyingi bo‘linishlar virusning struktura xususiyatlari asosida amalga oshiriladi:

- **Virionning tuzilishi:** Nukleokapsidning simmetriya turi (spiral yoki kubsimon).
- **Qobiqqa egaligi:** Tashqi qobiqning mavjudligi yoki yo‘qligi.

Mazkur tasnif 4-jadvalda batafsil keltirilgan bo‘lib, unda har bir guruhning xususiyatlari alohida ko‘rsatilgan.

4-jadval

Virus nuklein kislotasining tipi va zanjirlar sonlariga asoslangan klassifikatsiya turi

Viruslar			
Dezoksiviruslar		Riboviruslar	
1. Ikki zanjirli DNK	2. Birzanjirli DNK	1. Ikki zanjirli RNK	2. Birzanjirli RNK
1.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 1.1.1. Tashqi qobiqsiz:	2.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 2.1.1. Tashqi qobiqsiz:	1.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 1.1.1. Tashqi qobiqsiz:	2.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 2.1.1. Tashqi qobiqsiz:

adenoviruslar	Kilxam	O'simliklarning	poliomielit
1.1.2.Tashqi	kalamushi	jarohatli	virusi ,
qobiqli:	virusi,	o'smasi	enteroviruslar,
uchuq-	adenosatellitlar	viruslari	rinoviruslar
viruslari			2.2. Spiral
1.2. Aralash			simmetriya tipi:
simmetriya:			2.2.1. Tashqi
T-juft			qobiqsiz:
bakteriofaglar			Tamaki
1.3. Aniq			mozaikasi
simmetriyaga			virusi
ega			2.2.2. Tashqi
bo'lmagan:			qobiqqa ega:
chechak			gripp viruslari,
viruslari			qutirish, RNK-
			tutuvchi
			onkogen
			viruslar


7.3. Baltimor klassifikatsiyasi

Baltimor klassifikatsiyasi bugungi kunda viruslarni tasniflashning eng zamonaviy tizimi hisoblanadi, chunki u viruslarning barcha xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan. Bundan avvalgi klassifikatsiyalar asosan viruslarning morfologik xususiyatlari yoki ular qo'zg'atadigan kasalliklarga asoslangan edi. 1971 yilda Nobel mukofoti

sovrindori Devid Baltimor tomonidan taklif etilgan ushbu klassifikatsiya, viruslarni mezbon hujayrada mRNK (oqsil sintezi uchun matritsa vazifasini bajaruvchi RNK) hosil qilish mexanizmlariga asoslanib, 7 guruhga ajratadi (28-rasm).

Viruslar replikatsiya va oqsil sintezi uchun avvalo zararlangan hujayrada mRNK hosil qilishi zarur. Har xil tipdagi viruslar o'zlarining genetik materiallari turi (RNK yoki DNK), nuklein kislotasi zanjirlarining soni (bir yoki ikki ipli), shuningdek, ikki ipli DNK sintezini amalga oshirish uchun qayta transkripsiya (reverse transcriptase, RT) fermentidan foydalanish zaruriyatiga qarab, mRNKni turli mexanizmlar yordamida hosil qiladi.

Ushbu tasniflashni osonlashtirish uchun viruslar tomonidan hosil qilingan mRNK molekulasini (+)onRNK (oqsil sintezini amalga oshiruvchi kodlovchi RNK) deb atash qabul qilingan. (+)onRNK ning komplementar zanjirchasi esa (-)onRNK yoki kodlamaydigan RNK zanjirchasi deb yuritiladi.



28-rasm. Viruslarning Baltimor bo'yicha klascifikatsiyasi

^xdn - ikki zanjirchali(iz); on – bir zanjirchali(bz)

Baltimor klassifikatsiyasi viruslarni turli mexanizmlariga ko'ra guruhlaydi. Bu tasnif genetik material (RNK yoki DNK), zanjirlarning soni (bir yoki ikki ipli) va hujayra ichida oqsil sintezi uchun mRNK hosil bo'lish usuliga asoslanadi. Viruslar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

I. Ikki zanjirli DNK (izDNK) viruslari. Masalan, uchuq, chechak va adenoviruslar. Virus DNK-si hujayraning DNK-ga bog'liq RNK-polimerazasi yordamida mRNK sintez qiladi. Virus oqsillari sintezlanadi va yangi genom hujayraning DNK-polimerazasi orqali ko'payadi. Yig'ilgan virus zarralari hujayradan chiqadi va infeksiyon sikl yakunlanadi.

II. Bir zanjirli DNK (bzDNK) viruslari. Masalan, parvoviruslar. Virus DNK-si hujayrada ikki zanjirchali DNK shakliga qayta tiklanadi. Keyinchalik, I guruh mexanizmi asosida jarayon davom etadi.

III. Ikki zanjirli RNK (izRNK) viruslari. Masalan, rotaviruslar. Virus RNK-si bilan birga virusning RNK-polimerazasi ham hujayraga kiradi. (+)bzRNK sintezlanadi, bu oqsillar sintezi va yangi (-)bzRNK hosil qilish uchun ishlatiladi. Ikki zanjirli genom hosil qilinadi va yangi virionlar shakllanadi.

IV. (+)bzRNK viruslari. Masalan, poliomielit, A gepatiti, tamaki mozaikasi viruslari. Virus mRNK-si hujayraga kirishi bilan oqsil sintezi boshlanadi. RNK-polimeraza fermenti orqali yangi mRNK sintezlanadi, oqsillar yig'ilib, tayyor virionlar hosil bo'ladi.

V. (-)bzRNK viruslari. Masalan, gripp, qizamiq, qutirish viruslari. Virus o'zi bilan RNK-polimeraza fermentini olib keladi, bu (-)bzRNK

dan komplementar (+)bzRNK sintezlaydi. Virus oqsillari va yangi (-)bzRNK sintezlanadi, ular virion tarkibiga kiritiladi.

VI. (+)bzRNK-RT viruslari (retroviruslar). Masalan, ba'zi onkoviruslar, OITS virusi (VICH). Virus RNK-si qayta transkriptaza yordamida (-)bzDNK va keyin ikki zanjirli DNKga aylantiriladi. DNK dan mRNK va oqsillar sintezlanadi. Tayyor virionlar shakllanib, hujayrani tark etadi.

VII. Ikki zanjirli DNK-RT viruslari. Masalan, B gepatiti virusi. Virus DNK-si hujayraning RNK-polimerazasi yordamida (+)bzRNK sintezlaydi. RNK dan qayta transkriptaza fermenti yordamida virus DNK sintezlanadi va yangi virionlar shakllanadi.

Mazkur klassifikatsiya viruslar hayot siklining barcha asosiy jihatlarini o'z ichiga oladi, biroq viroidlar uchun mos emas, chunki viroidlar faqat bir zanjirli RNKdan iborat bo'lib, bu turli xususiyatlarga ega.

7.4. O'simlik viruslarining klassifikatsiyasi, nomenklaturasi va ba'zi kasalliklari

Yuqorida qayd etilganidek, Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo'mitasi (MKTV) universal taksonomiya tizimiga ko'ra, hozirgi kunda viruslar uch tartibga, 80 oilaga (shu jumladan, 30 o'simlik viruslari oilasiga), 233 avlodga bo'linadi. Shuningdek, hali tasniflanmagan yuzlab viruslar ham mavjud.

MKTV tomonidan tavsiya etilgan viruslar taksonlari:

1. **Tartib (Order):** Viruslarni umumiy xususiyatlari asosida farqlanuvchi oilalarni birlashtiradi. Tartib nomi **"-virales"** qo'shimchasi bilan belgilanadi. Hozirda MKTV uchta viruslar tartibini tasdiqlagan:

- **Caudovirales,**
- **Mononegavirales,**
- **Nidovirales.**

2. **Oila (Family) va kichik oila (Subfamily):** Viruslarni umumiy xususiyatlariga ega, lekin boshqa oilalardan farqlanuvchi avlodlarni birlashtiradi.

- Oilalar **"-viridae"**,
- Kichik oilalar **"-virinae"** qo'shimchalari bilan ajratiladi.

3. **Avlod (Genus):** Umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqa avlodlardan farq qiladigan viruslarni birlashtiradi. Avlod nomiga **"-virus"** qo'shimchasi qo'shiladi.

4. **Tur (Species):** Klassifikatsiyaning asosiy va eng muhim birliklaridan biri bo'lib, ekologik nisha va replikatsiya chizig'iga ega bo'lgan politipik kategoriya sifatida ko'riladi. Virus turi quyidagicha ifodalanadi:

"Virus turi — bu politipik toifaga ega bo'lgan va muayyan ekologik nishani egallaydigan, shuningdek, o'z replikatsiya chizig'iga ega bo'lgan viruslar sinfidir."

O'simlik viruslari: Ko'pincha xalqaro amaliyotda o'simlik viruslari inglizcha nomlar bilan ataladi.

Viruslarni taksonomiyaga ajratish uchun quyidagi belgilar va usullar ishlatiladi:

- Morfologiya (shakli va tuzilishi),
- Fizik-kimyoviy va fizik xususiyatlar,
- Genetik materialning turi (RNK yoki DNK),
- Genom hajmi (asos juftlari soni),
- Genom zanjirlarining soni,
- Oqsillar, lipidlar va uglevodlarning xususiyatlari,
- Antigen xususiyatlari va serologik yaqinlik,
- Tabiiy xo‘jayin spektri,
- Tarqalish usuli va tashuvchilari bilan bog‘liqlik,
- Patogenlik,
- To‘qimalar tropizmi,
- Patologiya, gistologik va sitologik o‘zgarishlar.

Viruslarni tadqiq qilishda yuqoridagi mezonlar asosida zamonaviy usullar qo‘llaniladi.

O‘simlik viruslarini tasniflash ishlari ularning morfologiyasi aniqlanmasdan oldin boshlangan. Fitovirusologiyaning tarixiga nazar tashlasak, 1927-yilda D. Djonson birinchi marta sistematikani taklif qildi. Unga ko‘ra, viruslarni belgilashda xo‘jayin o‘simlik nomiga “virus” so‘zi qo‘shilib, aniqlangan tartib raqami berildi. Masalan, tamaki mozaikasi virusi “tamaki virusi 1” deb nomlandi, undan keyin aniqlanganlar esa “tamaki virusi 2” va hokazo deb belgilandi. Ammo bu usulda, bir guruhga hech qanday umumiylikka ega bo‘lmagan viruslar kiritilishi mumkinligi aniqlangan.

Keyingi bosqichda viruslarni tasniflashda hasharot-tashuvchilariga asoslanildi. Biroq bir virus bir necha tashuvchiga ega bo‘lishi yoki turli viruslar uchun bitta tashuvchi mavjudligi sababli bu yondashuv keng

qo‘llanilmadi. Keyinchalik, o‘simliklarda yuzaga kelgan simptomlarning o‘xshashligiga qarab tasniflashga urinishlar bo‘ldi, ammo har xil viruslar bir xil simptomlarni keltirib chiqarishi aniqlangach, bu usul ham samarasiz bo‘ldi.

1935-yilda Stenli viruslarni kristall shaklda olish usulini ishlab chiqdi va viruslarni ikki guruhga — **Kristallobiote** va **Plazmobiote** — ajratdi. 1937-yilda K. Smit D. Djonsonning tasniflash tizimini takomillashtirib, viruslarni o‘simlik avlodi nomi bilan belgilashni taklif qildi. Masalan, tamaki mozaikasi virusi **Nicotiana virus 1** deb ataldi. Virus shtammlarini belgilashda virus nomiga qo‘shimcha harflar kiritish taklif qilindi, masalan, **Nicotiana virus 1A**.

1939-1948-yillarda F. Xolms viruslarni binomial nomenklatura bo‘yicha tasniflashni taklif qildi. U barcha viruslarni umumiy prinsip asosida birlashtirib, ularni uch tartibga ajratdi:

1. **Phagineae** (bakteriofaglar),
2. **Phitophagineae** (o‘simlik viruslari),
3. **Zoophagineae** (hayvon viruslari).

Ammo bu tasniflash ham viruslarning barcha xususiyatlarini qamrab ololmadi.

1966-yilda A. E. Protsenko viruslarni tuzilishi va imkoniyatlariga asoslanib tasniflashni taklif qildi. U fitopatogen viruslarni **Ribonukleoproteinales** sinfiga birlashtirib, ularni oila, avlod va turlarga ajratdi. Masalan, tamaki mozaikasi virusi **Bacilliaformae** oilasiga, **Virotrix** avlodiga kiritilib, **Virotrix ivanowskii Ryzkov** deb nomlandi. Viruslar **Vira** olamiga kiritilib, ular **Dexyvira** va **Ribovira** bo‘linmalariga ajratildi.

1971-yilda B. D. Xarrison va boshqalar fitoviruslarni tasniflash uchun 50 ta belgi ishlatishni taklif qildi. Ular fitoviruslarni MKTV talablariga asoslanib 26 guruhga ajratdilar. Viruslarni guruhlariga ajratishda har bir guruhning tipik vakili va uning asosiy xususiyatlari ko'rsatilgan bo'lib, guruh nomi ushbu tipik vakil nomi bilan ataladi. Masalan, tamaki mozaikasi virus guruhi **tobamoviruslar guruhi** deb nomlandi.

Gibbs va Xarrison fitoviruslarni bir nechta guruhlariga ajratib, har bir virus guruhini va uning xususiyatlarini kriptogrammalar orqali belgilashdi. Shu tarzda fitoviruslarning tasnifi boyib bordi va yanada mukammallashdi.

7.5. O'simlik viruslari sistematikasi

O'simlik viruslari tabiatda keng tarqalgan bo'lib, qishloq xo'jaligida sezilarli zarar keltiradi. Virus bilan zararlangan o'simliklarning hosildorligi va sifati keskin pasayadi. Fitoviruslar turli qishloq xo'jalik ekinlari va daraxtlarga zarar yetkazadi, jumladan: g'o'za, jo'xori, bug'doy, arpa, sulis, tamaki, pomidor, kartoshka, sholg'om, rediska, raps, karam, sabzi, tok, shaftoli, gullar, dorivor o'simliklar va boshqalar. Viruslarning ayrim turlari orasida bir zanjirli RNK tutuvchi (masalan, tamaki va pomidor mozaikasi viruslari), ikki zanjirli RNK tutuvchi (sholi pakanasi virusi), DNK tutuvchi (gulkaram va kartoshka gul mozaikasi viruslari) viruslar ma'lum. Masalan, faqat g'o'za viruslari dunyo bo'yicha 18 dan ortiq turga ega, kartoshkaning esa 20 ga yaqin virus kasalligi aniqlangan. Viruslarni ajratish, ularning xususiyatlarini

o‘rganish va ularga qarshi kurash choralari ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

I.G. Atabekov viruslarni morfologik tuzilish va murakkablik darajasiga qarab guruhlariga ajratishni taklif qilgan. Keyinchalik, A. Gibbs va B. Harrison (1976) tomonidan yozilgan **“Plant Virology: The Principles”** kitobi I.G. Atabekovning tahriri ostida 1978-yilda rus tilida **“Osnovy virusologii rasteniy”** nomi bilan nashr etilgan. Kitobning **“Ba’zi viruslar va viruslar guruhlari”** bo‘limida asosiy o‘simlik viruslari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu viruslar nuklein kislotalarining turlari, virion tuzilishi, ularning murakkabligi, virus yuqtiruvchi xo‘jayinlari, tarqatuvchi hasharotlari va boshqa xususiyatlari kriptogramma shaklida berilgan.

Viruslar quyidagi guruhlariga bo‘lingan:

1. **Spiral simmetriya asosida tuzilgan tayoqchasimon va ipsimon viruslar.**
2. **Izometrik viruslar.**
3. **Batsillasimon va sharsimon viruslar.**
4. **Viroidlar.**

Kriptogrammalar har bir virusning asosiy xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ular 4 juft va 8 simvol yordamida ifodalanadi, hali aniqlanmagan xususiyatlar esa yulduzcha (*) bilan belgilangan. Ushbu tasniflash tizimi o‘simlik viruslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Kriptogrammada quyidagi elementlar bo‘lib, virus xususiyatlari harflar - simvollar orqali belgilanadi. Har bir kriptogramma 4 juft simvollardan iborat:

1. **Birinchi juftlik:** Virus genomining nuklein kislotasi turi va molekula zanjirlarining sonini ifodalaydi:

- RNK (R) yoki DNK (D) asosiy tiplar sifatida belgilanadi.
- Zanjirlar soni quyidagicha belgilanadi:
 - 1: bir zanjirli;
 - 2: ikki zanjirli.

2. **Ikkinchi juftlik:** Nuklein kislotaning molekulyar massasi (daltonlarda, millionlar miqyosida) va virus zarrachasidagi nuklein kislotalarining foiz miqdorini ko'rsatadi.

- Bu qiymat yuqumli virus zarrachasi tarkibini ifodalaydi.
- Agar virus genomining strukturasida bir nechta fragmentlar bo'lsa, barcha fragmentlarning umumiy xususiyatlari yig'indisi hisobga olinadi.

3. **Uchinchi juftlik:** Virion shakli va nukleokapsidning tuzilishini ifodalaydi.

- Virusning umumiy shakli quyidagi belgilar bilan ko'rsatiladi:
 - S: sferasimon;
 - E: parallel tomonli uzunchoq shakl;
 - U: ikki uchi yumaloq va tomonlari parallel uzunchoq shakl;
 - X: murakkab tuzilma.

4. **To'rtinchi juftlik:** Virusning kasallantiradigan xo'jayin turi va virus tashuvchilarining turi ifodalanadi.

• **Xo'jayin turlarini belgilovchi simvollar:**

- **A:** Suvo'tlari (*Algae*);
- **V:** Bakteriyalar (*Bacterium*);
- **Fu:** Zamburug'lar (*Fungi*);

- **I:** Umurtqasiz hayvonlar (*Invertebrate*);
- **M:** Mikoplazma (*Mycoplasma*);
- **S:** Urug‘lik o‘simliklar (*Seed plant*);
- **V:** Umurtqali hayvonlar (*Vertebrate*).

• **Virus tashuvchilarining turlarini belgilovchi simvollar:**

- **Al:** Oq qanotlilar (*Aleyrodidae*);
- **Ar:** Shiralar (*Aphididae*);
- **Sl:** Qo‘ng‘izlar (*Soleoptera*);
- **Di:** Pashsha va chivinlar (*Diptera*);
- **Ne:** Nematodlar (*Nematoda*);
- **Rs:** Psillidlar (*Psyllidae*);
- **O:** Virus tashuvchilarsiz tarqaladi yoki kasallanish tashqi muhit

orqali sodir bo‘ladi.

*- bu virus xususiyati haqida axborot yo‘q

7.5.1. Spiral simmetriya prinsipida tuzilgan tayloqchasimon va ipsimon viruslar

1. Tobraviruslar (R/1 :2,3/ 5 +0,6 - 1,3/ 5:E/E :S/ Ne).

Bu guruhning vakili tamaki barglarida shaldirash alomatlarini keltirib chiqaruvchi *Tobacco Rattle Virus* hisoblanadi. Virus zarralari tayloqchasimon shaklga ega bo‘lib, ko‘plab vakillari o‘simliklarga mexanik yo‘l bilan yuqadi va turli o‘simlik oilalarini zararlaydi.

2. Tuproq orqali yuqadigan bug‘doy mozaikasi virusi (*Wheat mosaic virus*, R/1:2/(5):E/E:S/Fu) Shimoliy Amerikada bug‘doyga katta zarar keltirgan. Hozirda bu virusga chidamli navlar yetishtirilmoqda. Kartoshka o‘sish nuqtasini jingalaklashtiruvchi virus (*Mop-top virus*,

R/1:*/E/E:S/Fu) esa G'arbiy Yevropada tarqalgan bo'lib, uning virionlari tamaki mozaikasi virusiga o'xshaydi. Ushbu virus zarrachalarining uzunligi odatda 100–160 nm, ba'zan 300 nm gacha yetadi. Virus o'simliklarni kam zararlaydi va zamburug'larning zoosporalari orqali tarqaladi.

3. Tobamoviruslar [R/1:2/ 5:E/E :S/ O].

Ushbu guruh tamaki mozaikasi virusi (*Tobacco mosaic virus*), tomat mozaikasi virusi, turli dukkakli o'simliklar viruslari, shuningdek, qovoqsimonlar va kaktuslar viruslarini o'z ichiga oladi. Eng keng tarqalgan vakil tamaki mozaikasi virusi bo'lib, uning zarrachalari uzunligi 300 nm, eni esa 18 nm ni tashkil qiladi. Ushbu virus ko'plab o'simliklarga mexanik yo'l bilan yuqadi va mozaika hamda nekroz kabi simptomlarni keltirib chiqaradi.

4. Kartoshkaning X virusi guruhlari [R/1:2,2/6:E/E :S/ O].

Bu guruhga kartoshka X virusi, oq yonqichqa mozaikasi virusi va boshqa viruslar kiradi. Virionlarining uzunligi 480-580 nm bo'lib, ular egiluvchan iplardan tashkil topgan. Ushbu viruslar o'simliklarga mexanik yo'l bilan ham, hasharotlar orqali ham yuqishi mumkin. Zararlangan o'simliklarda mozaika simptomlari kuzatiladi. Nekroz simptomlarini keltirib chiqaradigan o'simlik sifatida *Gomphrena globosa* (qulupnay gul) misol bo'la oladi.

5. Karlaviruslar guruhi [R/1:*/6:E/E:S/Ar].

Ushbu guruh viruslari "5-virusi" nomi bilan tanilgan bo'lib, chinnigul latent virusi (*carlavirus: carnation latent virus*), kartoshkaning M va S viruslari va yana boshqa sakkizta virusni o'z ichiga oladi. Ushbu viruslarning zarrachalari uzunligi 650 nm bo'lgan to'g'ri iplardan tashkil

topgan. Viruslar oʻsimliklarga mexanik yoʻl bilan oson yuqishi mumkin, baʼzilar esa shiralar orqali tarqaladi.

6. Potiviruslar guruhi [R/1:3,5/5:E/E:S/Ar].

Y-guruhiga mansub viruslar (*potyvirus: potato virus Y*) qatorini tashkil qiladi. Bu guruh qishloq xoʻjaligida katta zarar keltiruvchi, noʻxot va loviya mozaikasi kabi viruslarni oʻz ichiga oladi. Virus zarrachalarining uzunligi 730-790 nm ni tashkil qiladi. Ushbu viruslar mexanik usulda va shiralar yordamida samarali tarqaladi.

7. Qant lavlagining sariq virusi [R/1:4,5:E/E:S/Ar] va sitrus oʻsimliklar viruslari [R/1:*/*:E/E :S/Ar].

Ushbu guruh qishloq xoʻjaligiga katta zarar yetkazuvchi sitrus oʻsimliklari viruslarini oʻz ichiga oladi, ularning zarracha uzunligi 2 mkm ni tashkil etadi. Qant lavlagining sariq virusi esa 1,2 mkm uzunlikda boʻladi. Shuningdek, guruh tarkibiga mevali daraxtlar viruslari, jumladan, olma, bargina va sariq dogʻlar viruslari ham kiradi, ularning zarracha uzunligi 600–700 nm atrofida.

7.5.2. Izometrik zarrali viruslar

8. Kukumoviruslar guruhi [R/1:1,3/19+0,8/19:S:S/Ar]

Bodring mozaikasi virusi (Cucumber mosaic virus) va unga yaqin tomat aspiromiyasi viruslari izometrik shaklga ega boʻlib, zarrachalarining diametri 30 nmni tashkil etadi. Ushbu viruslardan ajratilgan RNK toʻrt fragmentdan iborat boʻlib, ularning molekulyar massasi $0,4 \times 10^6$ dan $1,25 \times 10^6$ gacha. Virusning yuqumliligini saqlab qolish uchun uchta yirik fragmentning mavjudligi muhim. Bodring mozaikasi virusi 40 ga yaqin yopiq urugʻli oʻsimliklarni kasallantiradi, bu esa oʻsimliklarda mozaika

va ba'zan nekroz shaklidagi zararli simptomlarni keltirib chiqaradi. Virus mexanik yo'l bilan hamda shiralar yordamida tarqaladi.

9. Timoviruslar guruhi. [R/1:2/37:S/S :S/S1]

Bu guruhning asosiy vakili tuproqning sariq mozaika virusi (tymovirus: turnip yellow mosaic virus) bo'lib, virionlarining diametri 25-30 nmni tashkil etadi. Ushbu viruslarning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, ba'zi zarrachalari nuklein kislotasiga ega bo'lmaydi va shu sababli kasallantirish qobiliyatiga ega emas. Virus mexanik usulda yoki ba'zan qo'ng'izlar yordamida tarqaladi.

10. Komoviruslar guruhi [R/1:2,3/34+1,5/28:S/S :S/CI]

Guruh o'z ichiga mol no'xoti mozaikasi virusi (cowpea mosaic virus), redis mozaikasi virusi va boshqa shunga o'xshash viruslarni oladi. Virionlarning diametri 25–30 nmni tashkil etadi. Ba'zi zarrachalar nuklein kislotasiz bo'lsa, boshqalarida nuklein kislotaning miqdori 28–34% ni tashkil qiladi. Ushbu viruslarning barchasi mexanik usulda yoki qo'ng'izlar yordamida tarqaladi.

11. Nepoviruslar guruhi [R/1:2,4/43+1,4-2,1/30--40±Σ2,8/46):S/S:SNe]

Bu viruslar nematodlar (Nematoda) yordamida tarqaladi. Ularning zarrachalari ko'p qirralik poliedr shaklida bo'lib, diametri 30 nmni tashkil qiladi. Ushbu guruh vakillariga tok va ko'plab mevali daraxtlar kasalliklari viruslari, shuningdek, tamaki va tomat barglarida xalqali dog'lar hosil qiluvchi viruslar kiradi.

12. Tamaki nekrozi virusi [R/1:1,5/19:S/S :S/Fu]

Bu viruslarning zarrachalari sharsimon shaklga ega bo'lib, diametri 26 nmni tashkil etadi. Ular mexanik usulda oson tarqaladi va kasallangan

o'simliklarda nekrozlar hosil qiladi. Tabiiy sharoitda esa ular zamburug'larning zoosporalari yordamida tarqalishi mumkin.

13. Yo'ldosh-virus R/1:0,4/20:S/S :S/Fu

Bu juda mayda virus bo'lib, uning diametri atigi 17 nmni tashkil qiladi. U ko'payish jarayonida tamaki nekrozi virusi bilan birga uchraydi. Virus mexanik usulda oson tarqaladi va tamaki nekrozi virusiga o'xshab zamburug'larning zoosporalari orqali ham tarqalishi mumkin.

14. Brom viruslar guruhi [R/1:1,1/23+1,0/22+0,7/21:S/S:S/*]

Ushbu guruhga yaltirbosh mozaikasi virusi kabi sharsimon shaklli viruslar kiradi, ularning diametri taxminan 25 nmni tashkil qiladi. Genomlari uchta fragmentdan iborat. Virus mexanik yo'l bilan oson yuqadi, ammo tabiiy tarqatuvchilari hali aniqlanmagan.

15. Tombasviruslar guruhi [R/1:1,5/18:S/S :S/*]

PomidopHning pakana shoxlanish virusi va yana to'rtta virus ushbu guruhga kiradi. Ularning zarrachalari taxminan 30 nm diametriga ega bo'lib, bir-biridan kattaliklari bilan farq qiladi. Bu viruslar mexanik yo'l bilan oson tarqaladi, ammo ularning tarqatuvchisi noma'lum. Guruhning ayrim vakillari tuproq orqali ham tarqalishi mumkin.

16. Kartoshka bargining buralishi virusi va shunga o'xshash viruslar [R/1:2/*:S/S :S/Ap].

Ushbu guruhga kartoshka bargining buralishi virusi va loviya bargining buralishi virusi kabi bir qator viruslar kiradi. Virionlarining diametri 25 nm ni tashkil etadi. Bu viruslarning hech biri mexanik yo'l bilan yuqish qobiliyatiga ega emas. Ular shiralar orqali persistent usulda tarqaladi. Ayrim olimlarning fikricha, bu viruslar shiralar organizmida ham ko'payishi mumkin.

17. Ikki va undan ortiq beqaror zarrachali viruslar.

Ko'pgina mevali daraxtlar viruslari ushbu guruhga kiradi. Ularning zarrachalari diametri 20-35 nm bo'lib, tarkibida 15-20% RNK mavjud. Bu viruslarning ayrimlari o'simlik changlari yoki urug'lari orqali yuqadi, ammo ularning tarqatuvchilari hali aniqlanmagan. Virionlari uch xil zichlikka ega bo'lib, turli zarrachalardan tashkil topgan. Fraksiyalarga ajratilmagan virus preparatidan uch xil asosiy va ikki minor RNK fragmenti ajratilgan. Ushbu viruslar serologik jihatdan olma mozaikasi virusiga yaqin. Ma'lum bo'lgan ayrim vakillar **ilarviruslar** (ilarvirus: izometrik beqaror zarralar) guruhiga kiritiladi.

18. No'xot shaklining o'zgarishi mozaikasi virusi. [R/1:1,6/28+1,3/28:S/S :S/Ap]

Bu guruh viruslari dukkakli o'simliklarni kasallantiradi va barglarida mozaika va deformatsiya kabi simptomlar hosil qiladi. Ikki qismlik genomga ega. Shiralar va o'simlik shirasi yordamida sog' o'simlikka o'tadi. Zarrachalarining ko'pgina xususiyatlari viruslarinikiga o'xshaydi.

19. Kaulimoviruslar guruhi [D/2:4,5/16:S/S :S/Ap]

Ushbu guruhning eng yaxshi o'rganilgan vakili gulkaram mozaikasi virusidir (**caulimovirus: cauliflower mosaic virus**). Uning nuklein kislotasi DNK turiga kiradi. Bu virusning serologik xususiyatlari kartoshka guli mozaikasi virusiga o'xshash bo'lib, zarrachalarining diametri 50 nm ni tashkil qiladi. Gulkaram mozaikasi virusi bir o'simlikdan ikkinchisiga mexanik usulda va shiralar orqali yuqadi. Ushbu virus dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan.

20. Beda jarohati shishi virusi va unga o'xshash viruslar.

[R/2:Σ10-16/11-22:S/S :S,I/Au]

Beda jarohati shishi virusi, sholi pakanalashishi virusi va jo'xorining g'adir-budur pakanalik virusi bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Ularning izometrik zarrachalarining diametri 70 nm ni tashkil qiladi va zarrachalar bir qancha fragmentlardan iborat ikki zanjirchali RNKni o'z ichiga oladi. Shakli va virion tarkibi bo'yicha bu viruslar reoviruslarga o'xshash. Ushbu viruslar sikadkalar yordamida tarqaladi, va ularning tashuvchi hasharotlar organizmida ko'payishi ularga xos xususiyatlardan biridir.

21. Tomat zarhallanishi (bronzalashishi) virusi.

(R)/*:*/*:S/*:S/Th

Ushbu viruslar tripslar yordamida tarqaladi. Kasallangan o'simliklarda mozaika va nekroz belgilari kuzatiladi. Viruslar mexanik usulda boshqa o'simliklarga oson o'tadi, ammo o'simlik shirasida barqarorlikka ega emas. Zarrachalari 80 nm diametriga ega bo'lib, tarkibida lipidlar mavjud. Ushbu viruslar o'z xususiyatlariga ko'ra hayvon viruslariga o'xshashlikni namoyon qiladi.

8.4.3. Zarrachalari batsillasimon yoki o'qsimon shaklli viruslar

22. Beda mozaikasi virusi. R/1(1,1/16)+(0,8/16)+(0,7/16):U/U :S/Ap.

Ushbu viruslar batsillasimon shaklga ega bo'lib, to'rt xil uzunlikka ega zarrachalardan iborat. Eng katta zarrachaning uzunligi 58 nm, eni esa 18 nm ni tashkil etadi. Zarrachalar RNK ning uch xil fragmentini o'z ichiga oladi, va ularning yig'indisi virus genomini tashkil qiladi. Virus

mexanik usulda yuqadi, shuningdek, nopersistent usulda shiralar yordamida ham tarqaladi. Kasallangan o'simliklarda mozaika yoki xalqali dog'lar shakllanishi kuzatiladi. Ushbu virus guruhi kukumoviruslar guruhiga yaqin bo'lganligi bilan ajralib turadi.

23. Kakao shoxlarining deformatsiyasi virusi. */*:U/U:S/Cc.

Ushbu viruslar batsillasimon shaklga ega bo'lib, diametri 28 nm ni tashkil qiladi. Zarrachalarining uzunligi o'zgaruvchan bo'lib, odatda 100-150 nm atrofida bo'ladi. Virusning asosiy tashuvchisi hitovkalar (qalqonsimonlar) bo'lib, virus ularning organizmida rivojlanish siklini o'tadi. O'simlik shirasida virus beqaror va mexanik usulda boshqa o'simlikka yuqishi qiyinchilik tug'diradi. Kasallangan o'simliklarda mozaika paydo bo'ladi va shoxlarning haddan tashqari o'sishiga olib keladi. Virus asosan Janubiy Afrikada tarqalgan bo'lib, kakao o'simligiga katta zarar yetkazadi.

24. Rabdoviruslar guruhi. [R/1:4/2:U/E:S,I,V/Ap,Au,Di,O]

Bu viruslar batsillasimon shakldagi zarrachalarga ega bo'lib, murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi. Ularning eni 50-100 nm, uzunligi esa 200-300 nm oralig'ida bo'ladi. Zarrachalar tashqi tomondan oqsil-lipid membranasi bilan qoplangan. Nukleokapsidi spiralsimon shaklga ega bo'lib, oqsil va RNK dan tashkil topgan. Ushbu guruhga baliq (masalan, forel), hasharotlar (drozofil) va hayvonlarda (masalan, quturish) kasalliklarni qo'zg'atuvchi viruslar kiradi.

7.5.3. Viroidlar

O'simliklarda virusga o'xshash kasalliklarni yuzaga keltiruvchi viroidlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nukleoproteid hosil

qilmaydi. Viroidlar bir o‘simlikdan boshqasiga mexanik usulda oson tarqaladi. Ularning RNK molekulyar massasi 50,000 dan 125,000 Dalton gacha bo‘ladi. Eng yaxshi o‘rganilgan viroidlardan biri "kartoshkaning dugsimonlashishi viroidi" bo‘lib, 1972-yilda Diner tomonidan aniqlangan. Shuningdek, xrizantema o‘simligining pakanalashishi kasalligiga ham viroid sabab bo‘lgan.

V.M. Jdanovning 1990-yilda chop etilgan **"Evolyusiya virusov"** kitobida viruslar oddiydan murakkabgacha bo‘lgan tuzilishga ega tamoyiliga asoslangan klassifikatsiya keltirilgan. Ushbu yondashuvda viruslarning evolyutsion rivojlanishi prion va viroidlardan boshlab, murakkab virus tuzilishlariga o‘tish jarayoni orqali ko‘rsatiladi. Klassifikatsiyada virionlarning morfologiyasi (masalan, tayoqchasimon, izometrik, o‘qsimon shakllar), qobiqli yoki qobiqsizligi, genomning pozitiv yoki negativ bo‘lishi, shuningdek, nuklein kislota tiplari asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

V.M. Jdanov (1914–1987) taniqli virusolog va epidemiolog bo‘lib, 1960-yildan boshlab ishlagan. U D.I. Ivanovskiy nomidagi Virusologiya instituti direktori sifatida faoliyat yuritgan va 1958-yilda chechak virusini yo‘q qilish bo‘yicha global dastur mualliflaridan biri bo‘lgan.

(RNK yoki DNK, bir zanjirli yoki ikki zanjirli), zarrachadagi nuklein kislota bir (monopartit), ikki (bipartit), ko‘p qismlardan (multipartit) tuzilganligi ko‘rsatilgan:

A. Prionlar

B. Viroidlar

V. RNK-tutuvchi viruslar

1. Birzanjirli RNK

1.1. Qobiqsiz

1.1.1. Monopartitlar

1.1.1.1. Izometrik

PicopHaviridae, Caliciviridae, Nudaurelia ¥, Leviviridae, MCDV,

Tymovirus, Luteovirus, Tombasvirus, Sobemovirus, Necrovirus (1-10)

1.1.1.2. Tayoqchasimonlar

Slosterovirus, Carlavirus, Potzvirus, Potexvirus, Tobamovirus,(11-15)

1.1.2. Bipartitlar

1.1.2.1. Izometrik

Dianthovirus, Comovirus, Nepovirus, PEMV, Nodaviridae, TMV

1.2.2.2. Tayoqchasimonlar

Tobravirus (22)

1.1.3. Multipartitlar

1.1.3.1. Izometrik

Cucumovirus, Bromovirus, Harvirus (23-25)

1.1.3.2. Tayoqchasimonlar

Hordeivirus (26)

1.1.3.3. Aralashlar ALMV (27)

1.2. Qobiqlilar

1.2.1. DNK sintezisiz

1.2.1.1. Pozitiv genomli

Togaviridae, Flavoviridae, Coronaviridae, TSWV(28-31)

1.2.1.2. Negativ genomli

1.2.1.2.1. Uzluksiz genomli

Paramyxoviridae, Rhabdoviridae (32-33)

Genomi fragmentlardan iborat

Orthomyxoviridae, Brevyaviridae, Arenoviridae(34-36)

1.2.2. DNK sintezli

Retroviridae (37)

2. RNK ikkizanjirli

2.1. Qobiqsiz (bez obolohek)

2.1.1. RNK uzluksiz

Totiviridae (38)

2.1.2. RNK bisegmentli

Partitiviridae, Biphaviridae (39-40)

2.1.3. RNK trisegmentli

Trisegmentli mikoviruslar (41)

2.1.4. RNK multisegmentli

Reoviridae (42)

2.2. Qobiqli

Syctoviridae (43)

G. Plazmidlar

D.DNK-tutuvchi viruslar

1. Birzanjirli DNK

1.1. Qobiqsiz

1.1.1. Izometrik

Mycroviridae, Parvoviridae (44-45)

1.1.2. O'qsimon

Mikoplazmalar fagi (46)

1.2. Qobiqli

Plasmoviridae(47)

2. DNK ikkizanjirli

2.1. Qobiqsiz

2.1.1. Monopartitlar

Papovaviridae, Adenoviridae, Iridoviridae, Myoviridae, Styloviridae, Podoviridae, Tectoviridae (48-54)

1.2.1. Multipartitlar

Polydnaviridae (55)

2.2. Qobiqli

Plasmaviridae, Hepadnaviridae, Baculoviridae, Herpesviridae (56-59)

2.3. Murakkab tuzilishga ega

Poxviridae

Yuqorida keltirilgan viruslar klassifikatsiyasi, shuningdek, oilalar, avlodlar va virus guruhlari, asosan Met'yuz tomonidan 1982-yilda chop etilgan klassifikatsiya va nomenklatura asosida tashkil etilgan (26). Ushbu tasnif, keyinchalik V.M. Jdanov tomonidan yanada takomillashtirilib, viruslarning tuzilish murakkablashuvi tamoyili asosida guruhlarga ajratilgan. Shuningdek, bu klassifikatsiya so'nggi taksonomik guruhlarga boyitilib, zamonaviy talablarga mos holda to'ldirilgan (18).

Virusologiyada viruslarning klassifikatsiyasi va nomenklaturasi doimiy ravishda yangilanib, takomillashtirilmoqda. 1973-yilda Moskvada o'tkazilgan Xalqaro mikrobiologiya kongressida viruslar nomenklaturasi va klassifikatsiyasini tartibga solish bo'yicha Xalqaro Qo'mita muhim qadamlar tashlab, uni rivojlantirdi. Shu yili ushbu qo'mita "Xalqaro Viruslar Taksonomiyasi Qo'mitasi" (MKTV) deb nomlandi.

MKTV tomonidan ishlab chiqilgan universal taksonomiya tizimiga ko'ra, viruslar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

- **Tartib (Order):** Bir-biridan tartib va oila xususiyatlari bilan ajralib turadigan umumiy tavsifga ega oilalarni birlashtiradi. Tartib nomi "-virales" suffiksi bilan tugaydi. Hozirda MKTV tomonidan uchta tartib tasdiqlangan: **Caudovirales**, **Mononegavirales**, **Nidovirales**.

- **Oila (Family) va Kichik Oila (Subfamily):** Umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan va boshqa oilalardan farqlanuvchi avlodlarni o'z ichiga oladi. Oilalar "-viridae", kichik oilalar esa "-virinae" suffikslari bilan belgilangan.

- **Avlod (Genus):** Umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan va boshqa avlodlardan farqlanadigan guruhlarini o'z ichiga oladi. Avlod nomlari "-virus" suffiksi bilan tugaydi.

- **Tur (Species):** Viruslarning klassifikatsiyalash tizimidagi eng muhim ierarxik birlik. Virus turi politipik kategoriya sifatida qaraladi, ya'ni bu kategoriya o'ziga xos ekologik nisha va replikatsiya liniyasiga ega bo'lgan viruslarni birlashtiradi.

Virus turi quyidagicha tavsiflanadi: **"Virus turi politipik kategoriya (sinf) bo'lib, u replikatsiya qiluvchi liniyani tashkil etadi va maxsus ekologik nishani egallaydi."**

MKTB ko'pgina hollarda o'simlik viruslarini xalqaro inglizcha nom bilan atashni qabul qilgan. Hozirgi kunda viruslarni taksonomiya qilish maqsadida ularning morfologiyasi, fizikaviy-kimyoviy va fizik xususiyatlari, genomi (nuklein kislotasining turi), genomining o'lchami (juft asoslar soni), nuklein kislotasi zanjirlari soni, oqsil, lipid va uglevodlarning xususiyatlari, antigen xususiyatlari, serologik yaqinligi, tabiiy xo'jayin spektri, tarqalish usuli, tarqatuvchilar bilan aloqasi, patogenligi, to'qimalarga tropizmi, patologiyasi, gistologik va sitologik xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy metodlar qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda MKTB tomonidan 30 ta fitovirus oilasi tasdiqlangan. Ushbu oilalar orasida **Geminiviridae** va **Caulimoviridae** bir zanjirli va ikki zanjirli DNK-genomga ega bo'lgan viruslarni o'z ichiga oladi. Qolgan fitoviruslarning ko'pchiligi RNK-genomli bo'lib, ularning aksariyati bir zanjirli pozitiv RNK (+bz RNK) ga ega. Fitoviruslarning oila va avlodlari nuklein kislotasi va uning tarkibiy qismlariga asoslangan holda tavsiflanadi. Bu haqda I.A. Kartashova (2007) tomonidan batafsil ma'lumot berilgan.

Quyida ushbu klassifikatsiyaning asosiy jihatlari keltirilgan. Unda 30 ta fitovirus oilasidan 13 tasining — DNK-tutuvchi va RNK-tutuvchi viruslar oilalari, avlodlari va ularning tipik vakillarining tavsifi keltiriladi.

7.6. DNK-tutuvchi viruslar

1. Caulimoviridae oilasi

Ushbu oila ikki zanjirli DNKga ega bo'lib, replikatsiya jarayonida qaytalama transkripsiya bosqichidan o'tadi.

Caulimovirus avlodi: Tipik vakili — **Cauliflower mosaic virus (CaMV)**, ya'ni gulkaram mozaikasi virusi. Izometrik zarrachalarining diametri 50 nm, virionning molekulyar massasi 20 millionni tashkil etadi. Bu avlodga mansub viruslarning tabiiy xo'jayin-o'simlik spektri nisbatan tor bo'lib, faqat ma'lum turdagi o'simliklarni zararlaydi. Kasallangan o'simliklarda simptomlar mozaika yoki dog'lar shaklida yuzaga keladi. Ko'pgina hollarda hujayralar tizimli tarzda zararlanadi.

Tarqalishi: Viruslar tabiatda asosan persistent usulda, ya'ni shiralar orqali yuqadi. Bundan tashqari, mexanik inokulyatsiya usuli bilan ham o'simliklarni zararlashi mumkin. Kasallangan o'simliklarning hujayralarida virus kiritmalari hosil bo'ladi. Ushbu kiritmalar yorug'lik mikroskopi yordamida ko'rinadi. Virus zarrachalari kiritmalarda to'planib, ba'zi hollarda hujayra yadrosida yig'iladi.

Avlod vakillari:

- Gulkaram mozaikasi virusi,
- Chepichka o'simligi qizil xalqa dog'liligi virusi,
- Xrenning latent virusi,
- Zemlyanikaning tomirlarining hoshiyalanishi virusi,
- Artishokning dog'lanishi virusi.

Shuningdek, ushbu avlodga bo'ztikan xol-xollanishi virusi va 4-zubturus virusi kabi turlar ham kirishi mumkin.

Caulimoviridae oilasi tropik gullarga mansub bir qancha o'simliklarni zararlaydigan boshqa virus avlodlarini ham o'z ichiga oladi.

2. Geminoviridae oilasi

Bu oilaga bir molekula xalqali DNK (bzDNK) ega bo'lgan viruslar kiradi. Virionlarining o'lchami 18x30 nm bo'lib, 22 kapsomerli, to'liq bo'lmagan ikosedr tuzilishidan tashkil topgan.

Mastrevirus avlodi. Tipik vakili: Maize streak virus (MSV) – jo'xori shtrixliligi virusi. Xususiyatlari: Xo'jayin-o'simlik spektri tor, asosan donli o'simliklar oilasiga mansub o'simliklarni zararlaydi. Virus persistent usulda sikadkalar yordamida yuqadi, mexanik inokulyatsiya yo'li bilan yuqmaydi.

Vakillari: Jo'xori, tariq, shakarqamish chiziq-chiziqliligi viruslari, yaltirbosh chiziq-chiziqliligi virusi, paspalum, tamaki sariq pakanaligi virusi, bug'doy pakanaligi viruslari. Ehtimoliy vakillar: Ekiladigan tariq chiziq-chiziqliligi virusi, no'xot xlorotik pakanaligi virusi.

Curtovirus avlodi. Tipik vakili: Beet curly top virus – lavlagining tepasini jingalakliligi virusi. Xususiyatlari: 44 oilaga mansub 300 dan ortiq o'simliklarni zararlaydi. Persistent usulda yuqadi. Ehtimoliy vakillari: Tomat bargining buralishi virusi, tomat tepasining jingalaklashishi virusi.

Begomovirus avlodi. Tipik vakili: Bean golden mosaic virus (BegMV) – loviyaning tillarang mozaikali virusi. Xususiyatlari: Ikki pallali o'simliklar ichida tor xo'jayin-o'simlik spektriga ega. Oqqanotlar (Bemisia tabaci) orqali tarqaladi. Ba'zi viruslari mexanik inokulyatsiya yordamida yuqadi.

Vakillari: Avlod 48 turdan iborat bo'lib, 9 ta ehtimoliy vakillarni o'z ichiga oladi.

Nanovirus avlodi. Tipik vakili: Subterranean clover stunt virus (SCSV) – yerosti bedasining pakanalashishi virusi. Xususiyatlari: Virionlari sharsimon, qobiqsiz, diametri 20 nm. O'simlik o'sishini

to‘xtatib, pakanalashishga olib keladi. Shiralar yordamida tarqaladi. Vakillari: Banan tepa qismining shoxlanishi virusi. Ehtimoliy vakillar: Kokos barglarining chirishi virusi.

7.7. RNK tutuvchi viruslar

Ikki zanjirli (iz) RNK-tutuvchi viruslar

3. Reoviridae oilasi

Bu oilaga bir nechta o‘simlik va hayvon viruslari kiradi. Viruslarning virionlari ikosaedrik shaklga ega bo‘lib, diametri 60-80 nm ni tashkil qiladi. Ularning ichki "yadrosi" bir qancha oqsil qavatlar bilan o‘ralgan.

Vakillari:

- **Fijivirus avlodi:** Tipik vakili – Fidji kasalligi virusi.
- **Phytoreovirus avlodi:** Tipik vakili – jarohatli o‘sma virusi.
- **Oryzavirus avlodi:** Tipik vakili – sholini chigallashgan yoki taralmagan (to‘zg‘igan) karlik virusi. Tarqalish xususiyatlari: Ushbu viruslar asosan sikadkalar (*Delphacidae*) orqali persistent usulda yuqadi. Latent davr hasharot tanasida ikki haftagacha davom etadi. Ba'zi hollarda virus transovarial yo‘l bilan ham tarqalishi mumkin.

3. Partitiviridae oilasi

Alhacriptovirus avlodi. Tipik turi: "Oq bedaning yashiringan virusi 1" (*Clover cryptic virus 1*). Yunoncha "kryptos" so‘zi "yashiringan" degan ma‘noni bildiradi. Shu sabab, o‘zbek tilida "Oq bedaning yashiringan virusi 1", rus tilida esa "Маскированный вирус белого клевера" deb atalishi mumkin. **Xususiyatlari:** Virionlari ikosaedr shaklida, qobiqsiz. Diametri: 30–40 nm. Samarali immunogen bo‘lib, diffuziya testlarida bitta precipitatsiya chizig‘ini hosil qiladi. Virus o‘simlikda latent holatda bo‘ladi. Tarqalishi: Urug‘ orqali.

Embrionga tuxum hujayra va changlari orqali hujayra bo‘linishi jarayonida o‘tadi, degan taxmin mavjud. **Vakillari:** 16 ta tur aniqlangan. Yana 10 ga yaqin tur ushbu avlodga kiritilishi ehtimol qilinmoqda. Asosan dukkaklilar oilasi va ayrim sabzavotlarni kasallantiradi.

Betacryptovirus avlodi. Tipik turi: "Oq bedaning yashiringan virusi 2" (Clover cryptic virus 2). **Xususiyatlari:** Virionlari ikosaedr shaklida, qobiqsiz. Diametri: 30–40 nm. Fitoviruslar va zamburug‘ viruslari bilan serologik yaqinlik kuzatilmagan. Virus o‘simlikda latent holatda bo‘ladi. Tarqalishi: Asosan urug‘ orqali amalga oshadi. **Vakillari:** 4 ta tur aniqlangan. Yana bir tur ("Oq bedaning yashiringan virusi 2") ushbu avlodga kiritilishi ehtimol qilinmoqda.

Varicosavirus Avlodi. Tipik turi: Latuk salatining tomirlarini kattalashib ketishi virusi (Lettuce vein enlargement virus). Xususiyatlari: Virionlari tayoqcha shaklida. O‘lchami: $18 \times 300\text{--}340$ nm. **Tarqalishi:** Olpidium sp. turiga mansub zamburug‘lar orqali. **Ehtimoliy vakil:** Tamakining pakanalashishi virusi.

BzRNK (-)- tutuvchi viruslar

5. Rhabdoviridae oilasi. Bu oila **Mononegavirales** tartibiga kiradi.

Cytorhabdovirus avlodi (tipga xos tur – latuk-salati nekrotik sariqligi virusi)

Nucleorhabdovirus avlodi (tipga xos tur – kartoshkani sariq pakanaligi virusi).

Virionining uzunligi 100–430 nm va diametri 45–100 nm.

O‘simliklarni kasallantiruvchi viruslar ko‘pincha batsillasimon yoki o‘qsimon shaklda bo‘ladi. Batsillasimon virionning tashqi yuzasida uzunligi 5–10 nm, dimaetri 3 nm li glikoprotein tabiatli o‘simtalar

(peplomerlar) bor. Ichki nukleokapsidini diametri 30-70 nm bo'lib spiral simmetriyali strukturaga ega. Agar virusni ko'ndalang kesmasini negativ bo'yab ko'rilsa yaqqol ko'rinadi.

Rabdoviruslar keng o'simlik spektriga ega, ammo har bir virus chegaralangan xo'jayin o'simliklar spektriga ega. Ko'pgina rabdoviruslar sikadalar, delfatsidlar yoki shiralar, ba'zilar kanalar, kloplar tarqaladi va o'simlik shirasi bilan tarqaladi. Bu viruslar persistent tarqaladi (replikatsiyasi tarqatuvchi-hasharotda bo'ladi).

Cytorhabdovirus avlodi 8 tur virusni o'z ichiga oladi: arpa sariq pakanaligi virusi, suli barglarini tilimliligi virusi, shimoliy bug'doy mozaikasi virusi, bug'doyini amerika shtrixli mozaikasi virusi, latuk-salatini sariq nekrozi virusi, zemlyanikani bujmayishi mozaikasi virusi, brokkolini sariq nekrotik virusi, osot virusi.

Sitorabdoviruslar sitoplazmada replikatsiyalanadi, viruslarning morfogenez jarayoni esa endoplazmatik retikulumda amalga oshadi.

Nucleorhabdovirus avlodi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kartoshkaning sariq pakanaligi virusi,
- Jo'xorining mozaikasi virusi,
- Baqlajonning xol-xol pakanaligi virusi va boshqa o'xshash viruslar.

Nucleorhabdoviruslar asosan o'simlik yadrosida to'planib, yirik granulyar kiritmalar hosil qiladi, bu joy replikatsiya uchun mos bo'lishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan rabdoviruslar oilasidan tashqari, ular bilan morfologik o'xshashlikka ega bo'lgan, ammo ehtimoliy ravishda ushbu oilaga kiritilishi mumkin bo'lgan 58 ta boshqa rabdovirus mavjud. Ushbu

fitorabdoviruslar turli o'simlik oilalarini zararlaydi. Quyidagi virus turlari rabdoviruslar oilasiga kirishi mumkin:

- Sitrus o'simliklarining moxov kasalligi virusi,
- *Dendrobium* barglarini tilimlanishi virusi.

Bu ehtimoliy guruhlar hali to'liq tasdiqlanmagan, lekin o'xshash xususiyatlari asosida rabdoviruslar oilasiga kiritilishi mumkin.

6. Bunyaviridae oilasi

Tospovirus avlodi (tipik turi — tomatning dog'li so'lish virusi), **Tenuivirus** avlodi (tipik turi — sholining shtrixliligi virusi), **Orhiovirus** avlodi (tipik turi — sitrus o'simliklarining psorioz virusi) ushbu guruhga kiradi.

Bu oilaga nafaqat o'simlik viruslari, balki bir qancha hayvon virus avlodlari ham kiradi. Viruslarning morfologiyasi o'zgaruvchan bo'lib, ular sferasimon yoki pleomorf shaklga ega bo'lishi mumkin. Zarrachalar diametri 80–120 nm, tashqi yuzasida esa qalinligi 5 nm bo'lgan lipid qobiqli, uzunligi 5–10 nm bo'lgan glikoproteid o'simtalar joylashgan. Odatda lipid qobiq hujayraning Goldji apparati membranasidan kelib chiqadi, kam hollarda esa boshqa hujayra membranasidan hosil bo'ladi.

Virusning nukleokapsidasi spiral simmetriyali bo'lib, diametri 2–2,5 nm, uzunligi esa 200–3000 nm atrofida bo'ladi.

Ushbu oilaning barcha viruslari bo'g'imoyoqli hasharotlarda replikatsiyalanadi. Masalan, **Tospovirus** avlodiga balzaminning dog'li nekrozlanishi virusi va tomatning dog'li so'lish virusi kiradi. **Tospoviruslar** qariyb 50 oilaga mansub 300 dan ortiq o'simlik turini zararlaydi. Ular 9 tur tripslarda persistent usulda tarqaladi.

Tenuivirus avlodining xo‘jayin o‘simliklari donli o‘simliklar oilasiga mansub bo‘lib, ushbu avlodga jo‘xori shtrixligi virusi, sholini oq dog‘li virusi va sholini shtrixliligi viruslari kiradi. **Tenuiviruslar** polupersistent usulda delfatsidlar yordamida tarqaladi, ba‘zan transovarial yo‘l bilan ham yuqishi mumkin.

Ophiovirus avlodi viruslari esa mexanik usulda yuqadi, ammo donli o‘simliklarni kasallantirmaydi.

BzRNK(+)-tutuvchi viruslar

1. Sequiviridae oilasi

Sequiviridae avlodi (tipik turi – pastorakning sariq dog‘liligi virusi) va **Weikavirus** avlodi (tipik turi – sholi tungrosining sferasimon virusi) zarrachalari izometrik shaklga ega bo‘lib, diametri 30 nm. Ushbu viruslarning tabiiy xo‘jayinlari cheklangan, ya‘ni ular faqat muayyan o‘simliklarni kasallantiradi. Viruslar yarim persistent usulda tarqaladi, va ko‘pincha sikadkalar orqali yuqadi.

Sequiviridae avlodiga qoqi o‘tning sariq mozaikasi virusi kiradi. **Weikavirus** avlodiga esa jo‘xorining xlorotik pakanaligi virusi va sholi tungrosining sferasimon virusi mansubdir.

8.Tombusvirus oilasi

Tombusvirus avlodi (tipik turi – pomidor pakanaligi virusi) yetti boshqa avlodni ham o‘z ichiga oladi.

Virionlari ikosaedr shaklida bo‘lib, 180 oqsil subbirlikdan tashkil topgan va diametri 28-35 nm. Ushbu avlod viruslarining xo‘jayin o‘simliklari bir pallali va ikki pallali o‘simliklardan iborat. Infeksiya ko‘pincha ildizlarda joylashib, o‘simlikni tizimli kasallantirganda

barglarda xol-xol dog‘lar, burilishlar va deformatsiyalar kuzatiladi. Ba‘zi holatlarda virus simptomsiz infeksiya keltirib chiqarishi ham mumkin.

Hamma viruslar mexanik usulda va vegetativ tarqaladi. Ba‘zilari kontakt usuli orqali yoki urug‘lar yordamida yuqadi. Tabiiy muhitda infeksiya suvli joylar va tuproq orqali, tashuvchilar ishtirokisiz ham tarqalishi mumkin. Ayrim viruslar esa zamburug‘lar yoki qo‘ng‘izlar yordamida tarqaladi.

9. Luteoviridae oilasi

Luteovirus avlodi (tipik turi – arpani sariq pakanaligi virusi) va **Polerovirus** avlodi (tipik turi – kartoshka bargini buralishi virusi) quyidagi xususiyatlarga ega:

Virionlari geksagonal shaklda, diametri 25-30 nm, ikosaedr simmetriyasi asosida tuzilgan. Lyuteo- va poleoviruslar antigen jihatidan aktiv bo‘lib, ularning xo‘jayin spektri odatda bir oila o‘simliklari bilan cheklangan. Ushbu viruslar shiralar yordamida sirkulyativ usulda tarqaladi: floemadan gemotselga, so‘ngra gemolimfa orqali so‘lak bezlariga o‘tadi. O‘simliklarda floemada lokalizatsiyalanadi, to‘qimalarda nekroz keltirib chiqaradi, o‘sishni susaytiradi, xlorofillni yo‘qotadi va barglarni sarg‘aytiradi.

Bu avlodga quyidagilar kiradi: arpani sariq pakanaligi virusi, loviya bargini buralishi virusi, sabzi bargini qizarishi virusi, lavlagini g‘arbiy sariq virusi, soyani pakanaligi virusi, tamakini nekrozli pakanaligi virusi, va pomidor tepa qismini sarg‘aytiruvchi virus. Bundan tashqari, 14 ta virusning ushbu avlodga kiritilishi mo‘ljallangan.

Tymovirus avlodi (tipik turi – tupHepsni sariq mozaikasi virusi) baqlajon mozaikasi virusi, yeryong‘oq sariq mozaikasi virusi, va fizalis

mozaikasi viruslarini o'z ichiga oladi. Ushbu viruslar keng tarqalgan bo'lib, mexanik usulda va qo'ng'izlar yordamida yuqadi. Infeksiya natijasida sariq mozaika yoki xol-xol dog'lar shakllanishi kuzatiladi.

10. Bromoviridae oilasi

Alfamovirus (tipik turi – beda mozaikasi virusi), **Bromovirus** (tipik turi – yaltirbosh mozaikasi virusi), va **Cucumovirus** (tipik turi – bodring mozaikasi virusi) quyidagi xususiyatlarga ega:

• Zarrachalar tuzilishi:

- **Bromovirus** va **Cucumovirus** avlodlariga kiruvchi viruslarning zarrachalari sferasimon bo'lib, diametri 26-35 nm.
- **Alfamovirus** avlodiga mansub viruslarning zarrachalari batsillasimon bo'lib, diametri 18 nm, uzunligi 30-57 nm.

• Tarqalishi:

Ushbu oilaga kiruvchi viruslar juda keng tarqalgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligida ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab o'simliklarni kasallantiradi. Viruslar o'simlik shirasini inokulyasiyasi orqali tarqaladi. **Cucumovirus** va **Alfamovirus** avlodlari shiralar yordamida tarqaladi, ba'zi hollarda esa urug' va gul changlari orqali yuqishi mumkin.

Bu viruslar o'simliklarda mozaika va boshqa zararli simptomlarni keltirib chiqarib, hosildorlikni sezilarli darajada kamaytiradi.

11. Comoviridae oilasi

Comovirus (tipik turi - sigir no'xoti mozaikasi virusi-1), **Nepovirus** (tipik turi - tamakining xalqali dog'lanishi virusi), va **Fabavirus** (tipik turi - dukkaklilar so'lishi virusi-1) avlodlari quyidagi xususiyatlarga ega:

Zarrachalar

tuzilishi:

Virionlari ikosaedrik simmetriyaga ega bo'lib, diametri 28-30 nm.

Xo'jayin spektri: **Comoviruslar** xo'jayinlari tor spektrga ega, asosan dukkakli o'simliklarni kasallantiradi (15 tur virus). **Nepoviruslar** ancha keng spektrga ega bo'lib, 28 tur virusni o'z ichiga oladi, jumladan tok bo'g'inlarining qisqarishi va tokning sariq mozaikasi viruslari. **Fabaviruslar** keng spektrga ega bo'lib, dukkakli o'simliklar va boshqa o'simlik turlarini zararlaydi. **Tarqalishi:** **Comoviruslar** asosan qo'ng'izlar yordamida tarqaladi. **Fabaviruslar** shiralar orqali yuqadi. **Nepoviruslar** ko'pincha nematodalar yordamida tarqaladi va urug' orqali yuqish xususiyatiga ega. Ushbu uch avlodning hamma vakillari mexanik inokulyatsiya yordamida tarqalishi mumkin. **Simptomlar:** Simptomlar turlicha bo'lib, ular o'simliklarda mozaika, dog'lanish, so'lish va boshqa fiziologik buzilishlarni keltirib chiqaradi.

12. Potyviridae oilasi

Potyvirus avlodi (tipik turi – kartoshkaning U virusi) va boshqa avlodlar: **Potyvirus avlodi:** **Virionlar:** Ipsimon yoki tayoqchasimon, uzunligi 680-900 nm, diametri 11-13 nm, spiral simmetriyali, spiral qadami 3,4 nm. **Genom:** Bir a'zoli, uzunligi 650-900 nm. **Tarqalish:** Nopersistent usulda yuqadi, ba'zilar urug' yordamida tarqaladi. **Xo'jayin spektri:** Tor, o'rtacha yoki keng bo'lishi mumkin. **Simptomlar:** O'simlikda mozaika, deformatsiyalar. **Vakillari:** Loviyani sariq mozaikali virusi, jo'xorini pakana mozaikali virusi, lola gultojbarglarining rang-baranglashishi virusi, soya mozaikasi virusi. **Turlari:** 77 ta tur virus.

Tritimovirus avlodi: **Tipik turi:** Bug'doyni tilimli mozaikasi virusi. **Xo'jayin spektri:** Asosan donli o'simliklar. **Rymovirus avlodi:** **Virionlar:** Ipsimon va egiluvchan, o'lchami 690-720 x 11-15 nm.

Xo‘jayin spektri: Graminea oilasiga mansub o‘simliklar. **Tarqalish:** Kanalar (Eriphydae), mexanik inokulyatsiya va urug‘ orqali. **Vakillari:** Arpa mozaikasi virusi, suli nekrotik xol-xolliги virusi.

• **Bymovirus avlodi: Virionlar:** Oson egiluvchan, o‘lchamlari 250-300 nm va 500-600 nm, diametri 13 nm, ikki a‘zoli genom. **Xo‘jayin spektri:** Donli o‘simliklar; spektri tor. **Sitoplazmatik xususiyat:** Kasallangan hujayralarda kristalsimon va amorf kiritmalar hosil qiladi. **Vakillari:** Arpani sariq mozaikasi virusi, arpani kuchsiz mozaikasi virusi. **Umumiy xususiyatlar: Morfologiya:** Ipsimon yoki tayoqchasimon, diametri 11-15 nm. **Genom:** Bir a‘zoli (650-900 nm) yoki ikki a‘zoli (250-300 nm va 500-600 nm). **Tarqalish usullari:** Mexanik inokulyatsiya, urug‘ va ba‘zan kanalar yordamida. **Xo‘jayin o‘simliklari:** Donli va boshqa qimmatli qishloq xo‘jalik ekinlari.

Tobamovirus avlodi. Tobamovirus avlodining tipik vakili tamaki mozaikasi virusi (TMV) bo‘lib, zarrachalari uzunligi 300 nm va diametri 18 nm. Xo‘jayin o‘simliklar spektri o‘rtacha yoki keng bo‘lib, virus kontakt yo‘li bilan va ba‘zida urug‘lar orqali yuqadi. Kasallangan o‘simliklarda kristallik kiritmalar hosil qiladi. Virus dunyo bo‘ylab keng tarqalgan. Ushbu avlodga TMV, bodringni yashil xol-xollashishi mozaikasi virusi, tomat mozaikasi virusi (L-shtamm), bulg‘or qalampirining kuchsiz xol-xolliги virusi (S-shtamm) va lansetsimon zubturus mozaikasi virusi kiradi.

Tobravirus avlodi. Tobraviruslarning tipik vakili tamaki bargini shaldirashiga sabab bo‘luvchi virusdir. Zarrachalari to‘g‘ri trubkasimon shaklda bo‘lib, spiral strukturaga ega, spiral qadami 2,5 nm. Ikki xil zarracha mavjud: uzunlari (180–215 nm) va qisqalari (46–115 nm), diametri esa 21,3–23,1 nm. Xo‘jayin o‘simliklari bir pallali va ikki pallali o‘simliklardan iborat. Viruslar nematodlar (Trichodorus va Paratrichodorus avlodlari) tomonidan tarqatiladi va nematodlar ichida

uzoq vaqt saqlanadi. Ayrim o'simliklarning urug'lari ham viruslarni yuqtiradi. Viruslar ba'zida o'simliklarni tizimli, ba'zida esa lokal ravishda kasallantiradi. Ushbu avlodga tamakini pakana virusi va no'xotni erta qo'ng'irlashishi virusi kiradi.

Hordeovirus avlodi. Hordeoviruslarning tipik vakili arpani shtrixli mozaikasi virusidir. Virionlari tashqi qobiqsiz, qattiq tayoqchasimon bo'lib, o'lchamlari 20 x 110–150 nm, spiral simmetriyaga ega, spiral qadami 2,5 nm. Ushbu viruslar g'alla va ba'zi labgullilarni kasallantiradi. Tarqatuvchi hasharotlari hozircha noma'lum. Viruslar urug', gul changlari va kontakt orqali yuqadi.

Vitivirus avlodi. Vitiviruslarning tipik vakili tokni A-virusi bo'lib, ushbu avlod 1997 yilda Trichovirus avlodidan genom tuzilishi va biologik xususiyatlariga asoslanib ajralgan. Virionlari ipsimon, oson egiluvchan, o'lchamlari 800 x 12 nm. Bu viruslar faqat tok o'simliklarini kasallantiradi va ularning tanasida chuqurchalar va ariqchalar hosil qiladi. Viruslar payvandlash, ekish materiallari va chuvalchanglar yordamida yuqadi, mexanik usulda esa kasallik o'tishi qiyin. Ushbu avlodga tokni A-virusi, tokni V-virusi va tokni D-virusilari kiradi.

Ushbu oilaga quyidagi avlodlar ham kiradi: furovirus, pomovirus, pekluvirus, benivirus, kapillovirus, va trixovirus. Ular har biri o'ziga xos morfologiya va tarqalish xususiyatlariga ega bo'lib, turli o'simliklarni kasallantiradi.

13.Closterovirus avlodi

Crinivirus avlodi. Tipik turi – salat jeltuxasi yuqumli virusi. Virionlari ipsimon va oson bukiluvchan bo'lib, uzunligi 850–2200 nm, diametri 12 nm. Spiral simmetriya asosida tuzilgan, spiral qadami 3,4–3,8 nm. Genomi ikki molekula RNKdan iborat. Xo'jayin o'simliklari tor doirada. Viruslar o'simlik barglarida sarg'ayish yoki qizarish, barglarning buralishi, ichga botishi, yog'och qismining ariqchalashishi

va floemaning nekrozlanishi kabi simptomlar hosil qiladi. Mexanik inokulyatsiya yordamida yuqishi qiyin, urug‘ orqali kamdan-kam yuqadi. Tabiatda yarimpersistent usulda shiralar, oqqanotlar va psevdokoksid chuvalchanglar yordamida tarqaladi.

Klosterovirus avlodi. Tipik turi – lavlagi jeltuxasi virusi. Virionlari uzunligi 1200–2200 nm, genomi bir molekula RNKdan iborat. Viruslar yarimpersistent usulda shiralar va chuvalchanglar orqali yuqadi. Ushbu avlodga lavlagi jeltuxasi virusi, lavlagining sariq pakana virusi va sabzi barglarini sarg‘aytiruvchi viruslar kiradi.

Carlavirus avlodi. Tipik turi – chinnigulning latent virusi. Virionlari ipsimon, biroz bukilgan shaklda, o‘lchamlari 620–700 x 12–15 nm, spiral qadami 3,4 nm. Xo‘jayin o‘simliklar tor spektrda, ammo eksperimental kasallanishda kengroq doiradagi o‘simliklarni zararlashi mumkin. Viruslar mexanik yo‘l bilan oson tarqaladi, ko‘plari shiralar yordamida yarimpersistent usulda yuqadi. Ayrim viruslar oqqanotlar yoki urug‘ orqali tarqaladi. Kasallangan o‘simliklarda viruslar hujayra membranalarida oldida X-tanacha kabi kiritmalar hosil qiladi. Avlodga chinnigul latent virusi, kartoshka M va S viruslari, no‘xot dog‘lanishi virusi, chesnok mozaikasi virusi va boshqa 29 tur viruslar kiradi.

Potexvirus avlodi. Tipik turi – kartoshkaning X-virusi. Virionlari ipsimon shaklda, biroz bukilgan, o‘lchamlari 470–580 x 13 nm, spiral qadami 3,3–3,7 nm. Viruslar o‘simliklarda mozaika yoki halqasimon dog‘lar hosil qiladi. Tabiiy xo‘jayinlari chegaralangan. Viruslar mexanik va kontakt yo‘li bilan oson yuqadi, tarqatuvchilari noma’lum. Ushbu avlodga kartoshka X-virusi, kartoshka aukuba-mozaikasi virusi, lola X-virusi va boshqa tur viruslar kiradi.

Foveavirus avlodi. Tipik turi – olma daraxtining chuqurchalashishi virusi. Virionlari ipsimon va spiral simmetriyali, uzunligi 800 nm, diametri 13 nm. Viruslar o‘simlik hujayralarining sitoplazmasida lokalizatsiyalanadi, payvandlash va ekish materiallari orqali yuqadi,

ammo tarqatuvchilari aniqlanmagan. Avlodga olma daraxti chuqurchalashishi virusi va olcha halqali dog‘lanishi virusi kiradi.

Allexivirus avlodi. Tipik turi – piyozning (shalot) X-virusi. Virionlari ipsimon, o‘lchamlari 750 x 13 nm. Viruslar tabiiy sharoitda kanalar yordamida tarqaladi. Ushbu avlodga piyoz X-virusi, chesnok A-virusi va chesnok S-viruslari kiradi.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo‘llanilgan texnologiyalar:

«AQLIY HUJUM» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilarning tezkor fikrlash, hozirjavoblik, axborotni o‘zlashtirish va xulosalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiya o‘quv jarayonida bilimlarni samarali o‘zlashtirishni ta‘minlaydi va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Topshiriqlar:

1. Viruslarning klassifikatsiyasi qanday qonuyatlar asosida amalga oshiriladi?
2. Viruslarning qanday klassifikatsiya turlari mavjud va bugungi kungacha nechta virus klassifikatsiyag solingan?
3. Kriptogramma nima va u qanday ahamiyatga ega?
4. Baltimor klassifikatsiyasi nimaga asoslangan?

Savollar

1. Viruslar kalssifikatsiyasi va mikroorganizmlar klassifikatsiyasi orasida qanday tafovutlar mavjud?
2. Viruslar klassifikatsiyasi bo‘yicha qaysi olimlar ish olib brogan?

3. Viruslar klassifikatsiyasining rivojlanish bosqichlarini izohlab bering?
4. Virus nuklein kislotasining tipi va zanjir soniga qarab viruslar qanday klassifikatsiyalanadi?
5. Baltimor klassifikatsiyasi nimga asoslanadi?
6. O'simlik viruslarining klassifikatsiyasi, nomenklaturasini izohlab bering?
7. O'simlik viruslari sistematikasi qanday prinsiplarga asoslangan?
8. Atabekov klassifikatsiyasi nimalarga asoslangan?
9. Kriptogramma nima va uning ahamiyati qanday?
10. Spirall simmetriya asosida tuzilgan virulslarni izohlab bering.

8-BOB. VIRUSLAR GENETIKASI

8.1. Viruslar genetikasi haqida umumiy tushunchlar

XX asrning buyuk kashfiyotlari bu – irsiyat birligining (gen) kashf qilinishi, irsiyatning xromosoma nazariyasining yaratilishi, mikroorganizmlar genetikasining biokimyosi va prinsipini “bitta gen – bitta oqsil” yaratilishi, F.Jakob va J.Manolar tomonidan prokariotlar genlari regulyasiyasining ochilishi, Dj.Uotson va F.Kriklar tomonidan DNK molekulasi qo‘sh zanjirdan iboratligining kashf etilishi asosida klassik va molekulyar genetikaning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bu esa o‘z navbatida irsiyat va o‘zgaruvchanlik qonuniyatini molekulyar va submolekulyar darajada o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hujayra genom tuzilishi. Genom tarkibida biopolimerlar (oqsillar va RNK)ni kodlaydigan struktura genoaktivligiga ta‘mlari va struktura genlari funksiyasini boshqaradigan regulyator genlar mavjud bo‘ladi. Regulyasiya jarayoni regulyator genlar oqsil mahsulotlari ya‘ni repressorlar tomonidan amalga oshadi va bu struktura genlari aktivligiga ta‘sir qiladi. Transkripsiyani boshqaradigan genlarning regulyator uchastkalari va promotor hisoblanadi hamda RNK-polimeraza birikadigan spesifik qismini aniqlab beradi.

Eukariot hujayralar genlarining xarakterli tomoni ular strukturasining mozikali ekanligi va bu qism ma‘lumot beruvchi hisoblanadi. Gen tarkibida bir molekula oqsilni kodlaydigan qismdan tashqari hech qanday axborot saqlamaydigan yoki boshqacha qilib aytganda hozirgi davrda translyatsiya qilinmaydigan qismlari ham

mavjud bo‘ladi. Shunday qilib, genlarning odlanadigan qismi – *ekzon*, kodlanmaydigan qismlari esa *intron* deb ataladi.

Translyatsiya jarayonlarida gennining barcha qismi ekzon va intron ham o‘qiladi. Undan so‘ng iRNKning shakllanishi kuzatiladi. Bu jarayonda shakllangan birlamchi transkriptdan intron qismi olib, ekzon qizmlari esa tikiladi. Natijada birlamchi transkriptdan iRNK shakllanadi. Bu jarayon ekzonlarning tikilishi ya‘ni *splaysing* (inglizcha *splice* - birlashtirish) deb atakadi.

Splaysing jarayoni ilk maroataba DNK saqlovchi hayvon adenoviruslari va SV40da aniqlangan. Prokriotlarda uchraydigan ko‘p miqdorda va bir qator uzun va qaytariluvchi, ya‘ni gen bo‘ylab aralashib ketadigan nukleotid ketma-ketligi uchramaydi. Bular ko‘chib yuruvchi genetik elementlar ya‘ni transpozonlar deb yuritiladi. Bu genlar tarkibida qo‘shni genlar transkripsiya jarayoning tezlashtirib yuboradi.

Umuman olgan, hujayra genom tuzilishi ham murakka tuzilma hisoblanib, hujayra va tiri organism hayotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Hujayra oqsil sintezi tizimiga javobgar bo‘lgan bu tizimda juda ko‘p fermentativ jarayonlar kuzatiladi va bu jarayonlar natijasida moddalar almashunuv kuzatiladi. Hujayrada kechadigan bunday jarayonlarni tushunish hujayra va patogen, shu jumladan virus bilan bo‘ladigan aloqadorlikni hamda hujayra ichidagi jarayonlarni tushunish imkonini beradi.

Virus genom strukturasi. Viruslar molekulyar genetiklarning eng sevimli obyekti hisoblanadi, chunki uning genomi eukariot genomidan 10^6 marta kichik hisoblanadi. Bir qator viruslarning genetik apparati, masalan, SV40 ning genomi eukariot hujayra genomiga solishtirganda

minixromosoma nomini olgan. Minixromosoma DNK tuzilishi va replikatsiyasini o'rganishda keng qo'llaniladi.

Veruslarning genlar soni sezilarli darajada 3-4 gendan, sodda tuzilgan viruslarda (Parvoviruslar), murakkab viruslarda (chechak virusi) 150 tagacha bo'lishi mumkin. Hayvon viruslarining genomi, reproviruslardan tashqari, ikki zanjirli RNK diploid genomga ega. Ayrim fragmentli genomga ega (gripp, reovirus) viruslarning har bir fragmenti alohida gen hisoblanadi.

Eukariot hujyarasi genomii singari bir qator viruslar DNKsi geni mozaik strukturaga ega bo'lib, unda ma'noli va ma'nosiz qismlar ketma-ket almashinib turadi. Viruslarda iRNK splaying mexanizmi transkripsiya jarayoni yadroda kuzatiladi. Splaying jarayoni RNK tutuvchi viruslarda ham kuzatiladi. Masalan, gripp virusida transcript splaying jarayoni 7- va 8- genlar uchraydi, bu genlarning har biri ikkita unikal oqsil translyatsiyaga javobgar hisoblanadi.

DNK tutuvchi viruslar genlarida regulyator genlari funksiyasini boshqaruvchi uchastkasi, shu jumladan promotor (DNK nukleotidlar ketma-ketligida, RNK-plolimeraza bilan birikadigan translyatsiya boshlanadigan nuqta) ham mavjud bo'ladi. Eng kuchli promotorlar ko'pgina viruslar DNKsi oxiridagi uzun qaytalanuvchi uchaskalar hisoblanadi va bunday promotorlar viruslar timidinkinaza tutadi. Chechak va herpes viruslarida uchraydi. Bu promotorlar gen injineriyasida o'rganilayotgan gen transkripsiyasini kuchaytiradi.

8.2. Virus genom ma'lumotlarining ko'paytirish yo'llari

Prokariotlar polisistronli iRNKsidan farqli o'laroq eukariotlar iRNKsi monosistronli hiosblanadi va realizatsiyasi "bitta gen – bir molekula iRNK – bitta oqsil" tartibida amalga oshadi. Birgina bir qator hujayrali organizmlar iRNK va tez-tez viruslar iRNKsida bu prinsip buziladi va iRNK ikkita oqsil sintezini ta'minlaydi. Viruslarda informatsiyaning ko'paytirishning quyidagi: 1. Bir iRNKning ikki qayta o'qilishi, ammo boshqa inisirlovchi kodondan boshlab; 2. Translaytasiya ramkasining o'zgarishi natijasida; 3. Splaysing; 4. DNKning mos keluvchi uchastkasidan boshlab transkripsiyalanishi kabi yo'llarini ishlatadi. **Inisiatsiya** – DNKga bog'liq bo'lgan RNK polimerazaning promotor bilan translyatsiya boshlanishi uchun stabil kompleks hosil qilish hodisasi hisoblanadi.

Odatda iRNK tarkibida bir nechta inisiatsiya kodoni bo'ladi. Bugungi qabul qilingan "skanerlovchi modelga" muvofiq iRNK 5' - uchiga yaqin bo'lgan kichik ribosomal subbirlik keying inisiatsiyalabuvchi kodonga qadar siljiydi. Ko'p hollarda inisiatsiya birinchi inisiatsiya kodonidan boshlanmasdan keying AUG-kodondan boshlanadi.

Imumna olganda, viruslar ham o'z irsiy informatsiyasini ko'paytrishning oz'iga xos uslublarini tanlagan bo'lib, ular kam irziy meteriladan optimal darajda foydalanish yo'llarini tutadi va ularning qisqa muddat ichida irsiy materialni ko'paytrish imkonini beradi.

8.3. Viruslar irsiyati va o'zgaruvchiligini boshqaruvchi asosiy protsesslar

Modifikatsiya – viruslarda irsiy bo'lmagan (fenotipik) o'zgaruvchanlik bo'lib, xo'jayin hujayrasiga bog'liq holda vujudga keladi. Bunday o'zgaruvchanlik virusning yangi xo'jayinga moslashuvi natijasida vujudga keladi. Viruslar nuklein kislotasining modifikatsiyasi viruslar reproduksiyasiga javobgar bo'lgan hujayra fermentlari ta'sirida vujudga keladi.

Mutatsiyalar viruslar o'zgaruvchanligining asosida virus genomi nukleotidlar ketma-ketligining o'zgarishi asosida vujudga keladi. Mutatsiya genomning DNK yoki RNKdan tashkil topishidan qat'iy nazar barcha viruslarda uchraydi. Natijada viruslarda yangi belgi xususiyatlar vujudga keladi. Bunday viruslarning keyingi taqdiri tabiiy tanlanishga bog'liq bo'lib, yashash uchun kurashda g'olib chiqqanlarigina yashab qoladi.

Mutatsiyalar viruslarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim hollarda blyashkalar (sterill dog') o'lchami yoki kattalashadi yoki kichrayadi; virusning virulentligi o'zgaradi (kuchayadi yoki susayadi); virusning kimyoterapiyaga sezgirlikligining oshishi kabi xususiyatlar paydo bo'ladi.


Boshqacha holatda mutatsiya letal bo'lib, uning ta'sirida virus hayoti uchun zarur bo'lgan oqsillar sintezi va funksiyasining buzilishiga olib keladi. Ayrim hollarda bunga teskari jarayon ham kuzatilishi mumkin.

Ta'sir mexanizmi jihatdan viruslarda mutatsiyalar turli-tuman bo'ladi. Ba'zi hollarda depletsiya hodisasi kuzatiladi (29-rasm) va natijada bitta

nukleotidlarning, boshqa hollarda esa bir nechta nukleotidning tushib qolishi natijasida kelib chiqadi.

Mutatsiyalar qaytar va tog‘ri (qaytmas) xillarga bo‘linadi. Tog‘ri mutatsiyalar fenotipni o‘zgartiradi, qaytar mutatsiyalar esa – reversiya bo‘lib, mutasiyalarning qaytishini ta’minlaydi.

Fizikaviy mutagenlar sifatida ultrabinafsha nurlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari rangen, gamma hurler ham, neytronlar, protonlar, elektronlar ham mutatsiyalarga sabab bo‘lishi mumkin.



29-rasm. Virus genomida depletsiya hodisasi

Kimyoviy mutagenlar sifatida esa bromurasil, bromdezoksiurudin, 2-aminopurin, proflavin, aktinomisin, etidiy bromid, gidroksilamin kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Restriktaza va viruslar fizik kartalari. Viruslar genomini fizik kartalash jarayonida restriktaza va sekvenirlash jarayoning qo‘llanilishi katta revolyutsiyaga sabab bo‘ldi. Restriktazalarning ochilishi genetika, molekulyar biologiya va gen injineriyasida katta kashfiyot bo‘ldi. Restriktazalar yoki endonukleazalar – maxsus oqsillar bo‘lib, genetik prosesslarda aktiv ishtirok etadi. Bugungi kunda ularning soni kundan-kunga oshib bormoqda. Restriksiya jarayonining kashf etilishi viruslar genomi fizik kartasini yaratilishig asos bo‘lib xizmat qildi. Viruslar genomi fizik kartasini virus genomida oqsil sinteziga javobgar bo‘lgan genlarning joylashishini ko‘rsatib beradi. Ularda genning boshlanishi, ekzonlari, intronlari aniq ko‘rsatiladi. Bugungi kungacha sekvenirlash natijasida viruslarning bir qator genlarining nukleotid ketma-ketligi aniqlanadi. Agar virus RNK tutuvchi bo‘lsa, avval undan cDNK sintelab olinadi, undan so‘ng ikkinchi zanjir hosil qilinadi, oxirgi etapda esa sekvenorlash amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida virus genomi fizik kartalarini tuzishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Virus genomi va uning gen injineriyasida qo‘llanilishi. Gen injineriyasi haqidagi birinchi ma’lumotlar 1972 yilda paydo bo‘ldi. Bunda P.Barg tomonidan kimyoviy yo‘l bilan DNK molekulasinig recombinant turini sintezlashga erishildi. Bugungi kungacha gen injineriyasining obykti sifatida eukariot va prokariot hujyaralar, shu bilan bir qatorda bugungi kunda viruslardan ham foydalanish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Genlarni hujyaralrga tashilishida turli vektorlar sifatida viruslardan foydalanishning afzalliklari mavjud.

Gen injineriyasi va virus vaksinalari. Bugungi kungacha vaksinlar olishda prokariot va eukariot hujyralardan foydalanib kelingan. So‘ngi


yillarda vaksinlar tayyorlashda viruslardan foydalanishining bir qator afzalliklari mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi, masalan, ospovaksina virusi juda yirik genomga ega bo'lib (187 kb), unga gepatit B ning struktura oqsili sinteziga javobgar bo'lgan gen (25 kb) kiritilib, uni organizmga yuborilsa bir patning o'zida chechakka emlanish va gepatit B ga qarshi antitanalar (HBs) hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda viruslar genetikasi bu – viruslar irsiyatini ta'minlovchi genetik materiallar, jumladan RNK va DNK ga bog'liq ekanligi va bu genetic material asosida oqsillarning sintezlarnish kuzatiladi. Bu genetik materiallarga turli tashqi muhit omillari ta'sirida viruslarda mutatsiya jarayonlari kuzatiladi va bu mutatsiyalar virulsarning xususiytlariga ta'sir etib, ularni kuchaytrishi yoki susaytrish mumkin. Viruslar irsiyatini o'rganish ularning faik kartalarini tuzish hamda gen injineriyasida vaksina singari zarur dori-darmon vositalarini ishlab chiqsh uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo'llanilgan texnologiyalar: «KLAster» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Ushbu texnologiya ishtirokchilarning taqqoslash va qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalar chiqarish hamda mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyadan amaliy mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

«KLASTER» metodi



Topshiriqlar:

1. Viruslar irsiyatini kash etilishi sabab bo'lgan kashfiyotalrni izohlab bering.

2. Viruslar irsiyatidagi ekzon va intronnining izohlab bering.

3. Viruslar olamida o'zgaruvchanlik hodisasini izohlab bering.

4. Viruslar olamida mutatsiya turlari va uning ahamiyatini izohlang.

Savollar.

1. Viruslar genetikasining kashf qilinishiga biologiyadagi qaysi kashfiyotlar sabab bo'lgan?

2. Hujayra genom tuzilishi qanday?

3. Splaysing jarayoni qanday jarayon hisoblanadi?

4. Virus genom strukturasini qanday?

5. Virus genom ma'lumotlarining ko'paytirish yo'llari qanday?

6. Viruslar irsiyatida bo'ladigan o'zgaruvchiligi xillari?

7. Restriktazalar va viruslarning fizik kartasi qanday yaratiladi?

8. Virus genomining gen injineriyasida qanday maqsadlarda qo'llaniladi?

9-BOB. VIRUSLARGA QARSHI IMMUNITET

9.1. Immunitetning umumiy xususiyatlari, turlari va shakllari

Tugʻma (turga xos yoki nasldan-naslga oʻtuvchi) immunitet organizmning muayyan turdagi kasalliklarga chidamliligini belgilovchi tabiiy xususiyat boʻlib, u irsiy yoʻl bilan nasldan-naslga oʻtadi. Masalan, it, qoramol va tovuqlarda uchraydigan oʻlat kasalligi odamlarga yuqmaydi, xuddi shunday, odamlarning zaxm, qizamiq, virusli gepatit yoki OITS kabi kasalliklari hayvonlarda rivojlanmaydi. Bu immunitet turi uzoq evolutsion jarayonlar davomida makroorganizmlar va patogen mikroorganizmlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar natijasida shakllangan.

Tugʻma immunitet kuchiga koʻra ikki xil boʻladi: **haqiqiy** va **nisbiy**.

Haqiqiy tugʻma immunitet: Ba'zi organizmlar hujayralarida ma'lum kasallik qoʻzgʻatuvchilariga nisbatan retseptorlar mavjud emasligi sababli, ular ushbu kasalliklarga tabiiy chidamlilikka ega boʻladi. Masalan, kalamush hujayralarida boʻgʻma, baliqlarda esa qoqshol toksiniga qarshi retseptorlar yoʻqligi tufayli ular ushbu omillarga nisbatan mutlaq chidamlilikni namoyon etadi.

Nisbiy tugʻma immunitet: Organizmga turli omillar, masalan, yuqori harorat, rentgen nurlari, gormonlar yoki immunosupressantlar ta'sir qilganida, ularning yuqumli kasalliklarga moyilligi oshishi mumkin. Masalan, baqalarning tana harorati oshirilganda, ular kuydirgi qoʻzgʻatuvchisiga nisbatan sezgir boʻlib qoladi.

Tugʻma immunitet mexanizmlari organizmda qoʻzgʻatuvchi mikroorganizmlarning adsorbsiyasi va koʻpayishi uchun zarur retseptor va substratlarning mavjud emasligi, shuningdek, patogenlarning

rivojlanishini to'xtatuvchi moddalar va turli ingibitorlarning sintez qilinishiga asoslanadi. Shu bilan birga, organizm doimiy ravishda mikroorganizmlarga qarshi turli himoya omillarini ishlab chiqaradi.

9.2. Orttirilgan immunitet

Qadimiy xalqlarning kuzatishlariga ko'ra, toun kasalligini boshdan kechirgan insonlar, kasallikka qayta chalinmay, bemorlar bilan muloqotda bo'lishlariga qaramasdan, xavfsiz qolganlar. Shu bilan birga, turli xalqlarda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish uchun emlash usullari qo'llangan. Miloddan avvalgi 200-yillarda Xitoyda bolalarni chinchechak kasalligiga qarshi emlash amaliyoti mavjud bo'lgan. Biroq bunday profilaktik choralar natijasida ayrim hollarda kasalliklarning yangi asoratlari paydo bo'lgan, chunki ushbu usullarni qo'llash mexanizmi to'liq tushunilmagan.

1796-yilda ingliz shifokori E. Jenner sigirda uchraydigan chinchechak kasalligini o'rgandi va bunday kasallikka duch kelgan insonlarning odamlardagi chinchechakka chidamli ekanini aniqladi. Jennerning tadqiqotlari chinchechakka qarshi emlash usulini ishlab chiqishga olib keldi va bu usul tez orada dunyo bo'ylab keng tarqaldi. 1980-yilda emlash natijasida chinchechak butunlay yo'q qilindi.

XIX asrda L. Paster mikroorganizmlarni noqulay sharoitlarda o'stirib, ularning virulentligini (yuqumlilik darajasini) pasaytirish mumkinligini ilmiy asoslab berdi. Ushbu yondashuv asosida u tovuq vabosi, kuydirgi va quturish kasalliklariga qarshi vaksinalar yaratdi. Kuchsizlantirilgan mikroorganizmlar, toksinlar yoki boshqa faol moddalar orqali hosil qilingan himoya vositalari vaksinalar deb ataladi.

Orttirilgan immunitet — organizm yuqumli kasallikni boshdan kechirganidan keyin shakllanadigan himoya mexanizmi hisoblanadi. Bu immunitetning **tabiiy** va **sun'iy** turlari farqlanadi:

Tabiiy immunitet:

Tabiiy faol: Yuqumli kasallikdan so'ng paydo bo'ladi (masalan, qizamiqdan sog'aygan kishilar shu kasallikka qarshi immunitet hosil qiladi).

Tabiiy passiv: Onadan bolaga yo'ldosh orqali yoki ko'krak suti bilan o'tadi.

Sun'iy immunitet:

Sun'iy faol: Vaksinalar yordamida hosil bo'ladi.

Sun'iy passiv: Zardob, qon, immunoglobulin yoki plazma yuborish orqali shakllanadi.

Orttirilgan immunitet irsiy yo'l bilan nasldan-naslga o'tmaydi va faqat aniq bir kasallik qo'zg'atuvchiga qarshi shakllanadi. Shu sababli, u organizmni infeksiyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu immunitet mikroblarga va ularning toksinlariga qarshi shakllanadi. Mikrobg qarshi immunitet o'z navbatida:

Steril: Patogen mikroorganizmlar organizmni butunlay tark etadi (ko'pchilik yuqumli kasalliklar uchun xos).

Nosteril: Kasallik qo'zg'atuvchisi organizmda qoladi, ammo simptomlar kuzatilmaydi (masalan, sil, qorin tifi, gepatit).

Adoptiv immunitet — bir organizm limfotsit hujayralarini ikkinchi organizmga ko'chirib o'tkazish natijasida shakllanadigan immunitetdir. Bu usulda donor organizm limfotsitlari yangi organizmga moslashib, himoya vazifasini bajaradi. Masalan, oq qon kasalligida donor ko'migi

hujayralari ko'chirib o'tkaziladi. Bundan tashqari, limfotsitlar bir organizmdan boshqasiga axborot yetkazish qobiliyatiga ega ekanligi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan.

Orttirilgan immunitet mexanizmi. Immun tizim o'ta muhim sistema bo'lib, organizmni turli yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilaridan himoya qiladi. Odam va hayvonlarda limfotsit to'qimalar o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Immun tizimning asosiy markaziy hujayralari limfotsitlar bo'lib, ular organizmga tushgan yot omillarni taniydi va ularga qarshi immun javob rivojlantiradi. Organizm limfotsit to'qimalarining "o'zinikini begonadan" ajrata olish qobiliyatining yillar oldin paydo bo'lgan, lekin faqat umurtqali organizmlardagina immun omillar sistema sifatida shakllangan. Organizmda, irsiy jihatdan begona bo'lgan antigenlarga qarshi immune javob qon limfotsit a'zolarida maxsus antitelolar va limfotsitlar yordamida amalga oshiriladi. Besh xil immun javob tafovut qilinadi: gumoral, hujayraviiy, immunologik tolerantlik (chidamlilik), tezkor va sustkor giper ta'sirchanlik reaksiyalari.

9.3. Antigenlar

Antigenlarning xususiyatlari va tasnifi. "Antigen" so'zi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "begona" degan ma'noni anglatadi. Antigenlar immun tizimini ishga tushira olish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar hisoblanadi. Immunologik nuqtai nazardan, "irsiy begona antigen" organizm uchun yot bo'lgan va genetik jihatdan boshqa manbadan kelgan organik moddalarni bildiradi. Antigenning immun tizimga ta'sir qilish uchun bir qancha muhim xususiyatlari bo'lishi kerak:

Yotlik: Antigen organizm uchun begona bo'lishi zarur.

Immun javobni rag'batlantirish: Immun tartibni ishga tushira olishi lozim.

Immunogenlik: Mustahkam immun javob hosil qila olish xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Maxsuslik: Antigen faqat gomologik antitelo yoki limfotsitlar bilan birikishi lozim.

Kolloid tuzilmali: Modda kolloid holatda bo'lishi kerak.

Eruvchanlik: Organizm suyuqliklarida eruvchan bo'lishi muhimdir.

Antigenlar kelib chiqishiga ko'ra tabiiy biomolekulalar va tabiatda o'xshashi bo'lmagan sun'iy birikmalarga bo'linadi. Ular organizmga tashqaridan kirishi mumkin (ekzoantigenlar) yoki organizmning o'zida hosil bo'lishi mumkin (endoantigenlar va autoantigenlar).

Ekzoantigenlar: Oziq-ovqat tarkibidagi moddalar, mikroorganizmlar va ularning mahsulotlari.

Endoantigenlar: Nobud bo'lgan hujayralar, oqsil katabolizmi mahsulotlari, yoki to'sqinlik qilingan hujayralar natijasida hosil bo'ladigan moddalar.

Patogen omillar, masalan, kuyish, nurlanish yoki kimyoviy moddalar, organizmning xususiy biomolekulalarining tuzilishini o'zgartirishi yoki yangi antigen hosil qilishi mumkin.

Antigen va immunogenlik xususiyatlari quyidagilarga bog'liq:

Kimyoviy tabiat: Murakkab kimyoviy tuzilishga ega bo'lishi lozim.

Molekulyar og'irlik: Katta molekulyar og'irlik (kamida 10,000 Dalton).

Kolloid holat: Moddaning kolloid holatda bo'lishi.

Organizmga kiritilish usuli va miqdori: Parenteral yoki boshqa yo‘llar bilan kiritish usullari.

Molekulyar og‘irligi kichik bo‘lgan va immun javobni rivojlantira olmaydigan moddalar gaptenlar deb ataladi. Gaptenlar to‘liq antigen bo‘lishi uchun ularga "tashuvchi oqsillar" qo‘shilishi talab qilinadi.

Antigenlarning bir qancha turlari mavjud:

Geteromaksus antigenlar: Har xil turdagi organizmlarda bir-biriga o‘xshash antigenlar.

Turga xos antigenlar: Bitta turga xos bo‘lgan antigenlar.

Guruhga xos antigenlar: Odamning qon guruhlari, rezus omil yoki HLA-sistemi kabi antigenlar.

Tipga xos antigenlar: Mikrobiologik organizmlarning o‘ziga xos antigenlari.

A‘zolarga xos antigenlar: Har xil organizmlarning bir xil vazifani bajaruvchi a‘zolar antigenlari.

Organellalarga xos antigenlar: Hujayra organellalarining antigenlari, masalan, mitoxondriya yoki ribosoma antigenlari.

Funksional antigenlar: Biologik faol moddalarning antigen xususiyatlari.

Bosqichga xos antigenlar: Ontogenezning har xil bosqichlarida hosil bo‘ladigan antigenlar.

Autoantigenlar: Organizmning o‘z antigenlari.

Antigen mimikriyasi: Mikroba va xo‘jayin organizm hujayralari antigenlarining o‘xshashligi.

Antigenlar immun tizimning muhim komponentlaridan biri bo'lib, ular organizmni begona moddalar va kasallik qo'zg'atuvchilarga qarshi samarali himoya qilish imkonini beradi.

Timusga bog'liq antigenlar immun javobni faqat timusga bog'liq limfotsitlar (T-limfotsitlar) orqali yuzaga keltiradi, shuning uchun ular timusga bog'liq antigenlar deb ataladi. Korpuskulyar antigenlar, oqsillar va viruslar bu guruhga kiradi. Shu bilan birga, T-hujayralarning ishtirokisiz immun javobni shakllantiruvchi antigenlar ham mavjud. Ular, odatda, polimerlardan iborat bo'lib, bakteriyalarning lipopolisaxaridlari va polisaxaridlari bunga misol bo'la oladi. Bunday timusga bog'liq bo'lmagan antigenlar to'g'ridan-to'g'ri B-limfotsitlarni faollashtirish xususiyatiga ega. Shuningdek, ularga qarshi immun javobda faqat IgM ishlab chiqariladi.

Mikroorganizmlarning antigenlari. Bitta mikroorganizm tarkibida turli xil tur va tipga xos antigenlar bo'lishi mumkin. Tipga xos antigenlar asosida bakteriyalar serologik variantlar yoki serovarlar deb ataluvchi guruhlarga bo'linadi. Bakteriya hujayrasida quyidagi antigenlar mavjud: somatik **O-antigen**, xivchinli **H-antigen**, kapsulali **K-antigen**, shuningdek, ekzotoksin va endotoksin tarkibidagi hamda protektiv antigenlar.

Somatik O-antigen asosan grammanfiy bakteriyalarning hujayra devoridagi lipopolisaxarid (LPS) moddasida yoki endotoksin tarkibidagi polisaxarid qismlarida joylashgan. Ushbu antigen issiqqa chidamli bo'lib, 100°C haroratda 1-2 soat davomida parchalanmaydi. Formalin va etanol ta'siriga ham chidamli. O-antigen bakteriyalar guruh maxsusligini ta'minlaydi va immunitetni shakllantiradi.

Harakatchan bakteriyalarning xivchinlari tarkibida oqsil tabiatli **H-antigen** bo'lib, u flagellin moddasidan tuzilgan. H-antigen haroratga sezgir: 56-80°C darajada qizdirilganda parchalanadi, ammo fenol ta'sirida antigenlik xususiyatini saqlaydi. H-antigen organizmda immunitet hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Tiriklikultura bilan emlanganda, ham O-, ham H-antigenlarga qarshi antitelolar hosil bo'ladi, lekin qaynatilgan kulturadan foydalanganda faqat O-antigenga qarshi antitelolar shakllanadi.

Kapsulada joylashgan **K-antigen** glikoproteiddan iborat bo'lib, hujayra devorida joylashgan va uron kislotali polisaxaridlarni o'z ichiga oladi (masalan, glyukuron, galakturon). Harorat ta'siriga ko'ra, kapsula antigenlari quyidagicha bo'linadi:

L- va B-antigenlar: haroratga chidamsiz, 60°C da parchalanadi.

A- va M-antigenlar: haroratga chidamli, 100°C da ikki soatgacha bardosh beradi.

K-antigen O-antigendan yuqoriroqda joylashgani uchun, 100°C da qizdirilganda K-antigen parchalanadi va shundan keyin O-antigenni aniqlash mumkin bo'ladi.

Kapsuladan ajratib olingan **Vi-antigen** qorin tifi kabi yuqori virulentlikka ega enterobakteriyalarda uchraydi va virulentlik antigeni sifatida tan olinadi. Kapsula antigenlari kapsulali mikroblarda, masalan, salmonella, esherixiy, pnevmokokk, klebsiyella, va kuydirgi batsillalarida yaxshi o'rganilgan. Ushbu antigenlar yordamida mikrob shtammlari tasniflanadi.

Ba'zi mikroorganizmlarning oqsil tabiatli toksinlari, fermentlari va boshqa patogenlik omillari antigenlik xususiyatga ega. Masalan,

kuydirgi, o‘lat, ko‘kryo‘t, brutsellyoz, va tulyaremiya kabi kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilari xo‘jayin organizmiga tushganda protektiv antigenlar hosil qiladi. Ushbu antigenlar mikroblarning doimiy tuzilmasi bo‘lmasa-da, immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Virus antigenlari. Har bir virion tarkibida bir nechta antigen mavjud bo‘lib, ulardan biri virusga xos antigen hisoblanadi, boshqalari esa xo‘jayin hujayra komponentlaridan (masalan, lipidlar va oqsillar) kelib chiqadi va virus qobig‘ining bir qismi sifatida shakllanadi.

S-antigen (inglizcha *solutio* — eruvchan) kimyoviy tarkibi bo‘yicha ribonukleoproteid yoki dezoksiribonukleoproteidlardan iborat bo‘lib, suvda yaxshi eriydi.

V-antigen gemagglutinin va neyrominidaza fermentlari tarkibida joylashgan bo‘lib, viruslarning tashqi qobig‘ida joylashadi. Gemagglutinin virusning antigenik maxsusligini belgilaydi. Ushbu antigenni gemagglutinatsiya, gemadsorbsiya va gemagglutinatsiyani tormozlash reaksiyalari orqali aniqlash mumkin.

Yuqorida qayd etilgan antigenlar viruslarning guruhga (masalan, bir oila yoki urug‘ning har xil turlarida) va turga (bir tur ichidagi har xil shtammlarda) xosligini belgilaydi. Bu antigenlarning viruslarni aniqlash va ajratib olishdagi ahamiyati juda katta.

Bundan tashqari, viruslarda xo‘jayin antigenlari ham uchraydi. Masalan, agar gripp virusi tovuq embrionining allantois qobig‘ida o‘stirilsa, u faqat shu qobiqning antigenlariga qarshi zardoblar bilan reaksiyaga kirishadi.

9.4. Monoklonal antitelolarni olish

Biotexnologiyada monoklonal antitelolar olish jarayoni **gibridoma texnologiyasi** deb ataladi. Ko'pgina serologik va immunologik tashxis usullari uchun maxsus va yetarli miqdorda antitelolarni o'z ichiga olgan standart immun zardoblari talab etiladi. Immunizatsiya qilingan hayvonlardan olinadigan zardoblardagi antitelolar ko'pincha geterogen bo'ladi, bu esa qiyinchiliklar tug'diradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, organizmda bitta antigen determinantasiga javoban minglab turli xil antitelo molekulalari hosil bo'lishi mumkin.

Ushbu muammo 1975-yilda **G. Kyoler** va **K. Milshteyn** tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion texnologiya yordamida hal etildi. Ular monoklonal antitelolarni olish uchun **gibridoma texnologiyasini** kashf etdilar. Gibridoma — bu cheksiz ko'payish va bir xil turdagi antitelolar ishlab chiqarish xususiyatiga ega gibrid hujayralar kloni bo'lib, bu jarayonda sensibillangan limfotsitlar o'sma hujayralari bilan maxsus muhitda birlashtiriladi. Bunda faqat birlashgan hujayralar hayot faoliyatini davom ettiradi, qo'shilmagan limfotsitlar esa nobud bo'ladi.

Bugungi kunda monoklonal antitelolar ilmiy tadqiqotlarda, tashxis qo'yishda, shuningdek, davolash va profilaktika maqsadlarida keng qo'llanilmoqda. 1984-yilda G. Kyoler va K. Milshteyn ushbu texnologiyani ishlab chiqqani uchun **Nobel mukofotiga** sazovor bo'lishdi.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo'llanilgan texnologiyalar:

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilarning umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash va qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, tahlil qilish hamda xulosalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham zarur vosita hisoblanadi. Bu texnologiya o'quv jarayonini samarali tashkil etishga va o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

«FSMU» metodi

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab bering va misol keltring
U	• fikringizni umumlashtiring

Topshiriqlar:

1. Immunitet va uning shakllanishini FSMU texnologiyasi asosida izohlab bering.
2. Antitana nima va u nimalarga qarshi paydo bo'ladi?
3. Ortirilgan immunitet va uning paydo bo'lish mexanizmini izohlab bering?
4. Antigen va uning qanday turlari mavjud?

Savollar

1. Immunitetning umumiy xususiyatlari va qanday turlari mavjud?
2. Ortirilgan immunitet qanday hosil bo‘ladi va uning ahamiyatini izohlab bering?
3. Ortirilgan immunitet mexanizmini izohlab bering?
4. Antigen va uning qanday turlari mavjud?
5. Timusga bog‘liq antigenlarni izohlab bering.
6. Mikroorganizmlarning antigenlarining virus antigenidan farqlari mavjud?
7. Virus antigenlarining qanday turlari mavjud?
8. Monoklonal antigen olish texnologiyasini izohlab bering?

10-BOB. VIRUSLAR KIMYOTERAPIYASI VA IMMUNOPROFILAKTIKASI

10.1. Viruslar kimyoterapiyasi va immunoprofilaktikasi haqidagi imuniy tushunchlar

Prokariot va eukariot strukturasini va biosintetik jarayonidagi fanlar organism uchun effektiv va zararsiz kimyoterapevt moddalarni izlab topishi muammosini keltirib chiqaradi. Ularning ichidan tabiat antibiotiklar shaklida namoyon qildi. Masalan pensillin bakterialar hujayra davri sintezini buzadi. Shuning uchun bemor uchun bu antibiotikning ma'lum dozasi zararsiz hisoblanadi. Tetrasiklin prokariotlar ribosomasi ishini buzadi va eukariotlar ribosoma sistematikasiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun odam va hayvonlarni kasallantiruvchi virus infeksiyasi kimyo terapiyasi uchun zarur bo'lgan moddalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Viruslar reproduksiyasi va hosil bo'lishi ular parazitlik qiluvchi eukariot hujayraga bog'liq bo'lib oddiy antibiotiklar bakteriyalarga ta'sir qiladi. Ammo virularga ta'sir qilmaydi. Spetsifik bloklaydigan ammo hujayraga ta'sir etmaydigan antivirus moddalarni kimyoterapiya asosi P.Erlichning sehrli o'q prinsipiga asosan moddalarni izlab topishi qiyin vaziyatlardan biri hisoblanadi shuning uchun virus infeksiyasi kimyoterapiyasi yutuqlari uncha ko'p emas hamda effektiv preparatlar tez kashf etilmaydi.

Antivirus preparati ta'sir mexanizmi viruslar reproduksiyasining har bir bo'g'iniga kimyoviy preparat ta'sirini o'rganishi mumkin. Virus infeksiyasi kimyo preparatiga ya'ni yana bir yondashuv virus bilan zararlangan hujayra hisoblanadi. Bunday hujayralar genetik va funktsional jihatdan sog'lom hujayralardan farq qiladi va stimullangan T-

effektlar harakat nishoni hisoblanadi. Infeksiyaning dastlabki fazalarida parchalangan ko'p bo'lmagan hujayra populyatsiyasi bunday virus bilan kasallangan hujayralarni aniqlash birinchidan, immunologik yo'l bilan ya'ni spetsifik virus induisirlangan antigen ta'sirida hosil bo'lgan antitana yordamida aniqlanadi. Ikkinchidan turli bakteriya toksinlar, nukleozid kabi moddalar ta'sirida plazmatik membrananing o'tkazuvchanligini ortib ketishi natijasida hujayraning selektiv o'limi natijasida aniqlanadi. Uchinchi yo'l potensial toksinlar – pretoksinlar kasallangan, kasallangan hujayrada virus spetsifik fermentlar ta'siridatoksinga aylanadi. Bunday virus spetsifik fermentlarga proteinaza, proteinkinaza, nukleotidkinaza kabi fermentlar turli birikmalarni aktivlashtiradi. Natijada pretoksin sifatida ishlatiladi. Shunday qilib antivirus moddalarning ta'sir nishoni quyidaagicha

1. Kasallangan hujayra virussospetsifik jarayonlar
2. Kasallangan hujayralar hisoblanadi.

Antivirus preparatlarni izlab toppish, antivirus preparatlarni yaratish ikki usulda olib boriladi.

Birinchi usuli bir qancha sintetik va tabiiy birikmalar aralashmalarining virusga ta'siri o'rganiladi(skrining). Skrining bir necha etapda olib boriladi. Birinchi bosqich virus reproduksiyasini bloklash bo'lsa ikkinchisi esa preparatlarning normal hujayraga ta'siri o'rganilsa, uchinchisi preparatning minimal aktiv konsentratsiyasi hujayraga toksik tair etmaydigan minimal aktiv konsentratsiyani aniqlash. Shunday yo'l bilan kimyoterapevtik indeks aniqlanadi. Eng oxirgi etapda tanlangan preparatni o'rganish olib boriladi. Masalan amontadin va remontadin A tip viruslarga ta'sir ko'rsatadi B guruxiga esa ta'sir etmaydi,

Antivirus preparatlar bugungi kunda antivirus preparatlarning quyidagi turlari ishlatiladi: anomal nukleozid 2. Sintetik adanantanamin gidrokslorid 3.tiosemikarbazonlar. Virus infeksiyasi ximiyaterapiyasi uchun samarali xisoblangan pereparatlarning rivoji ikki yo'nalishda bo'ladi:1.virus genomini zararlash 2.proteometik jarayonlar ingibirlanishi. Anomal nukleozidlar DNK saqlovchi viruslar (chechakdan tashqari) genom transkripsiyasi va replikatsiyasi xo'jayin hujayrasi DNK va RNK polimerazasiga bog'liq hisoblanadi. Bu bilan bir qatorda xar bir DNK saqlovchi virus DNKsi realikusiyasi va transkripsiyasini xo'jayin hujayrasi DNK va RNK polimerazasiga bog'liq hisoblanadi. Bu bilan bir qatorda xar bir DNK saqlovchi virus DNKsi taminlaydigan o'zining fermentlari ham sintezlangan ferment ko'p xollarda xo'jayin fermentlaridan o'zining termostabilligi pH optimuli kabilar bilanfarqlanadi. Shuning uchun DNK saqlovchi viruslarga qarshi kimyoterapiyada anomal nukleozidlar keng miqyosda qo'llana boshlangan va u nukleotidlar va nukleozidlar sintezidaaktiv ishtirok etadi. Bunday moddalarning olinishi tabiiy moddalarni modifikatsion va biologic aktiv moddalar olish uchunishlatiladi.

Anomal nukleozidlarning antivirus effekti ko'p xollarda noaktiv nukleozidlarning fosforillab aktiv nukleotid xolatiga o'tkazishga asoslangan bo'lib, ular tabiiy nukleotidlar bilan nuklein kislota sintezida ferment uchun raqobatlashadi. Natijada virus polimerazasi funksiyasini ingibitirlaydi hamda hujayra ichida sintezlangan nuklein kislota nofunktional bo'lib, qoladi. Tabiiy bunday xolat faqat virus nuklein kislotasida emas balki hujayra DNK sida RNK sida ham kuzatiladi. Shuning uchun anomal nukleozidlarni qo'llashda selektiv ta'sir

mexanizmiga ega bo'lish muammosini keltirib chiqaradi. Shunday bo'lishiga qaramasdan anomal nukleozidlar virus infeksiyasiga kam samarali bo'lishiga qaramasdan herpes va chechak viruslariga qarshi, ya'ni teri herpes, ko'z herpesi, chechak infeksiyalariga qarshi samarali qo'llanilmoqda.

Izoksiridin (5-yod-2-dezoksiuridin) preparat primidin xalqasi 5-atomida yod tutadi va nukleozid tarkibiga kiruvchi timadin analogi hisoblanadi. Hamda hujayra ichida Dnk sintezida ishtirok etadi. Uning ta'sir mexanizmi hujayra ichida DNK sintezi uchun zarur bo'lgan nukleozidlarni fosforlanishida qatnashadi. Preparat DNK tutuvchi viruslar herpes, sitomegasit, ospovokuina kabilar uchun effektiv hisoblanadi. Qo'llanilishi 0.1 foiz eritmada 0.5 fopiz maz shaklida ishlatiladi. Purin analogi adensen-arabinozid bu nukleozid 60-yillarda antivirus preparat shaklida qo'llanila boshladi. Ara-a dezoksiribonukleozid adenin analogi hisoblanadi.

Asiklovir (asikloguanozin) bu anomal nukleozid 9-(2-gidroksietaksimetil) guanin, bunda anomal nukleozidda uglevod alfa shaklida o'z joylashuvini o'zgartirgan hisoblanadi bu dori oddiy herpesga yaxshi samara beradi va boshqa preparatlarga nisbatan xo'jayin hujayraga kam toksin ta'siriga ega. Preparat ensefali, teri va jinsiy organlar herpesida yaxshi samara beradi. Qo'llanilishi 5 foiz maz, qon tomiriga esa 5 mg/kg dozada ishlatilishi muhim. Ribovirin, adamantanamin, gidroxlorid, teosemikarbazon (metisazon) preparatlarning tarkibi ta'sir mexanizmi va qo'llanilishi yangi antivirus preparatlarni izlab topishi mustaqil izlab toppish.

10.2. Virus infeksiyasi immunoprofilaktikasi

Virus vaksinalari. Vaksinalar viruslar profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Vaksinatsiya organizmda immunitetning paydo bo'lishi va hujayraga bog'liq xolda gumoral holda infeksiyaga qarshilik qilishi mexanizmini shakllantiradi. Bugungi kungacha vaksinatsiya dunyo bo'yicha chechak polimiyelit, qizamiq, gepatit kabi viruslar oldini olishiga erishildi. Bugungi kunda viruslarga qarshi qo'llaniladigan vaksinalarning quyidagi turlari mavjud. 1.viruslarni hayvonlar yordamida attenurlangan virus vaksinasi. 2. Korpuskular o'lik vaksina. 3.subbirliklarda tayyorlangan vaksinalar 4. Geninjeneriya yo'li bilan tayyorlangan vaksinalar. 5.sintetik vaksinalar

Chechak polimiyelit va qizamiqqa qarshi vaksinatsiya zarur hisoblanadi. Chechakning tugatilishi natijasida vaksinatsiya bekor qilingan, vaksinatsiya ayrim havfli hudud aholisida amalga oshiriladi. Gepatit quturish, kana va yapon ensefalitga qarshi yuqish ehtimoli pasaytrish maqsadida amalga oshiriladi. Trik vaksina-attenurlangan viruslarda kichik koloniyalarni tanlash S-mutantlar adaptatsiyalangan mutantlardan tayyorlandi. Vaksina ishlatiladigan shtammlar genetik stabil bo'lishi yovvoyi shtammi bilan reversiya(yovvoyi ajdodga qaytish) bermasligi kerak. Shuning uchun tirik vaksinalar organizmda gumoral immunitetning shakllanishi olib keladi. Ammo bunday vaksinaning bir qadar yetishmovchiligiga ega. Ular yovvoyi ajdodga qaytishi (reversiv) ba'zida boshqa viruslar mikoplazmalar bilan kontaminatsiyasi(qo'shib ketishi) saqlanish muddatining cheklanganligi organizmga allergiya berishi va boshqa tabiiy tirik vaksina sifatida ilk bor E.Djenner tomonidan 1976-yilda bolani vaksinatsiya qilishda qo'llanilgan va

vaksina so'zi vacca- (inglizcha) sigir degan ma'noni anglatadi. Korpuskula o'lik vaksinalar tozalangan va formaldegid va aminometilol UB nurlari bilan inaktivatsiyalarga uchratilgan viruslardan tayyorlanadi. Bu vaksinalarning ustunlik tomoni antigenning aniq dozasi yuqori yoki past immunitetning hosil qila olishi. Uning kamchiligi esa antigenni yuborish va natijada immunoglobulin A sinfining hosil bo'lishini taminlaydi. Bugungi kunda grip va polimiyelit kabi viruslarning korpuskular o'lik vaksinasi tayyorlangan. Kana ensefalitga qarshi korpuskular vaksina 1939-yilda tayyorlangan.

Subbrlikdan iborat vaksinalar. Korpuskular vaksinalar viruslar yuzasida joylashgan. Antigen oqsillari tashkil etadi va uning miqdori virus tarkibida 10 foizni tashkil etadi. Hamda ular virus spetsifik immunitetning hosil bo'lishini taminlaydi. U quyidagicha tayyorlanadi. Tozalangan virus preprati lipidlarni erituvchi kimyoviy moddlar ta'sir ettirilib xromotografik kolonka yordamida ajratib olinadi. Tozalangan preparat sterillanadi va konsentrlanadi va dializ yordamida degergentlardan tozlanadi. Subbirlikli vaksinalar gripp virioni, quturish va chechak viruslariga tayyorlangan.

Sintetik vaksinalar viruslardagi antigen determinant hisoblangan virus oqsilini sintezlash orqali tayyorlanadi. Virus tarkibidan ajratilingan va sintezlangan antigen har doim ham immunogenlikni namoyon qilmaydi. Kuchsiz immun javobni keltirib chiqaruvchi antigenni, immune javobni kuchaytiruvchi immunostimulyator yoki tashuvchiga biriktiriladi ya'ni konyugirlanadi. Bu vaksina kelajak vaksinasi deb yuritiladi.

Gen injener vaksinalar – bunday vaksinalar virus oqsil ekspressiyasiyaga javobgar bo'lgan genini vektorga ekspressis qilish yordamida turli produsent mikroorganizmlar yoki tirik organism hujayralardan oqsil sintezlab olinadi. Bunday hujayralar sifatida achitqi hujayralar yoki bakteriyalardan foydalaniladi.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo'llanilgan texnologiyalar:

«AQLIY HUJUM» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilarning tezkor fikrlash, hozirjavoblik, axborotni o'zlashtirish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiya o'quv jarayonida bilimlarni samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Topshiriqlar:

1. Viruslarga qarshi kimyoterapeya qanday amalag oshiriladi?
2. Viruslarga qarshi vaksinalarning qanday turlari mavjud?
3. Korpuskulyar vaksinalar qanday yaratiladi va uning ahamiyati qanday?
4. Gen injineriyasi yo'li bilan tayyorlanadigan vaksinalar qanday tayyorlanadi?

Savollar?

1. P.Erlix qanday viruslar kimyoterapiyasiga bog'liq qanday tadqiqotlarni olib borgan?
2. Antivirus preparatlarning qanday turlari mavjud?
3. Antivirus preparatlarning ta'sir nishoni nima hisoblanadi?

4. Virus infeksiyasi immunoprofilaktikasi qanday amalga oshiriladi?
5. Virusga qarshi vaksinalar qanday turlarga bo'linadi?
6. Subbirliklardan iborat vaksinalarning qanday turlari mavjud?
7. Sintetik vaksinlar qanday tayyorlanadi?
8. Gen injineriyasi yordamida vaksinlar qanday tayyorlanadi?

11–BOB. VIRUSLAR EKOLOGIYASI VA VIRUS INFEKSIYASI EPIDEMIOLOGIYASINING RIVOJLANISH QONUNIYATLAR

11.1. Viruslar infeksiyasi epidemiologiyasi va ekologiyasi

11.1.1. Viruslar ekonishasi

Viruslar ekologiyasi – viruslarning tirik organizmlar hamda tabiiy muhit bilan munosabatii hamda bu munosabatlar asosida kelib chiqadigan qonuniyatlarini o‘rganadi. Ekologik nisha yoki ekonisha – bu keng tushuncha bo‘lib, organizmlar yashash areali va o‘rganilyatogan taksonomik guruhning boshqa guruh organimlar bilan munosabatini va ularning tabiiy biosenozlardagi roli hamda biosferadagi munosabatlarinng yig‘indisi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida, viruslar hayotning hujayrasi shakli hisoblanib, ular o‘z evolyutsiyasi davomida tashqi muhit omillariga bog‘liq ravishda mustaqil oqsil sintezlash sistemasidan mosuvo bo‘lgan, avtanom genetik strukturalar bo‘lib, butun hayoti davomida eukariot va prokariot organizmlar hujayrasiga bog‘liq ravishda rivojlanadi. Bu organizmlar viruslarning ekonishasi hisoblanadi.

Viruslar bir hujayarali prokariotlar (bakteriyalar va boshq.) va eukariotlar (zamburug’lar, yashil suvo‘tlari va soda hayvonlar), barcha o‘simliklar va hayvonlarni kasallantiradi. Ko‘pgina viruslar organizmdan faqatgina faqatgina bir tur organizmlarni va ayrim hujayralarni kasallantiradi. Bunday viruslarga ayrim faglarni, o‘simlik viruslarini, hayvon chechagi hamda odam gepatit viruslarini misol qilsa bo‘ladi. Ayrim viruslar esa bir nechta yaqin qarindosh bo‘lgan organizmlarni kasallantiradi. Bunday xususiyat ko‘pgina kartoshkani

kasallantiruvchi viruslar, yashur virusi, ko'pgina juft tuyoqli hayvonlarni kasallantiruvchi viruslar, odam va hayvon gripi viruslari mansubdir.

Ikki fazali tarqali xususiyati mavjud bo'lgan biq qancha viruslar guruhi mavjud bo'lib, ularga tirik organizmlar mexanik tashuvchi vazifasini bajarishi mumkin. Ko'pgina hollarda bunday organizmlar hasharotlar hisoblanadi, ular ayrim o'simlik viruslarining ko'payish joyi hisoblanadi. Bu tipik ikki fazali sistema bo'lib, birlamchi biosenoz hosil qiladi va virus doimiy ravishda ikkala xo'jayinni almashtirib turadi. Bu virusning saqlanishi va tabiiy aylanishini ta'minlab beradi. Bunday virslarga hayvonlarni kasallantiruvchi viruslar mansub bo'lib, ular qon so'ruvchi hasharotlar, jumladan, kanalar, chivin, moskitlar orqali tarqaladi.

11.2. Virus infeksiyasi epidemiologiyasi

Virus infeksiyasi epidemiologiyasiga antropogen omil yetakchilik qiladi va virus epidemiologiyasi ko'p hollarda bakteriay va protozoy infeksiyalardan alohida ajralib turuvchi jihatlari mavjud emas.

Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda epidemik (epizootik) jarayonlar doimiy uzilmas yuqumli zanjirga (infeksion jarayonlar) ega bo'lib, natijada tashqi muhit virus infeksiyasini tashqi muhitga yetkazib beradi. Bu zanjurda infeksiya manbai tarqatuvchi omillar va kasallanuvchi organizmlar bilan farqlanadi. Infeksiya manbai inson yoki hayvon bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash mumkinki, qo'zg'atuvchilar yordamida faqat odam organizmini kasallantiruvchi infeksiyalar


“antoponoz” deb ataladi. Agar inson hayvonlar tomonidan kasallantirilsa bunday kasalliklar “zoonoz” kasalliklar deyiladi.

Virus infeksiyalarning orasidan antroponoz kasalliklarga gripp, qizamiq, chechak, uchuq, poliomyelit viruslar keltirib chiqaruvchi kasalliklarni misol keltirish mumkin. Zoonoz virusli kasalliklarga esa kana ensefaliti, moskit bezgagi, lass bezgagi, limfositar xoriomeningit, yashur viruslarini keltirish mumkin. Bunday kasalliklar uchun tashuvchi hasharotlar infeksiya manbai bo‘lishi mumkin, qo‘zg‘atuvchi bilan qo‘llab-quvvatlanmagan bunday infeksiya manbalari rezervator hisoblanmaydi.

Antroponoz infeksiylar rezervatori inson, inson jamiyati hisoblanib, ma’lum tarqalish arealiga ega bo‘ladi. Masalan, Denge bezgagi tropik mintaqalarda tarqalgan. Zoonozlar uchun infeksiya o‘chog‘i bo‘lib virus sirkulyatsiyalanuvchi hayvonlar hisoblanadi. Ularga kanalar, hasharotlar mansub bo‘lib, insonga nisbatan tashuvchi hisoblanadi.

Antroponoz va zoonoz tushunchalari har doim ham tabiatda va jamiyatda haqiqiy jarayonni aks ettira olmaydi. Shunday ekan, sariq bezgak antroponoz infeksiya hisoblanib, bu kasallik chuvinlarning chaqishi orqali odamdan odamga tarqaladi. Ammo ularning birlamchi manbai bo‘lib, o‘rmon bezgagi (changalzor bezgagi) hisoblanadi va virus Markaziy Afrikada tabiiy o‘choqqa ega bo‘lib, inson ishtirokisiz ham o‘z sirkulyatsiyasini ta’minlaydi. Shuning uchun bu tipik zoonoz kasallik hisoblanadi. O‘rmon sariq bezgagining tabiiy o‘chog‘idan inson orasiga o‘tishi uni zoonoz virusdan antroponozga aylantiradi. Yapon ensefaliti virusi ham zoonoz virus hisoblanib, bu zoonoz virus

kasallik qishloq xo'jalik hayvonlari yordamida shaharga odamlar arasiga olib o'tildi hamda vaqtincha antroponozga aylanadi hamda shahar sharoitida chivinlar yordamida odamlar orasida tarqalishini ta'minlaydi. Xuddi shunday jarayon O'rtayer dangizi va Qrim chivin bezgagi hamda maymun chechagi kabi viruslarda ham kuzatiladi (30-rasm).



30-rasm. Maymun chechagi virusining saqlanishi va sirkulyatsiyasi

Gripp qo'zgatuvchisi ham antroponoz hisoblanib, inson faqat insondan zararlanadi. Shu bilan bir qatorda bu virus tomonidan kelib chiqqan epidamiyalar virusning uy yoki yovvoyi hayvonlar (qushlar) orqali sirkulyasiyasi orqali ham kelib chiqishi mumkinligi isbotlangan. Shu bilan bir qatorda, gripp virusi genomining qayta sortirovkasi natijasida virusning yangi shtammlarining paydo bo'lishiga olib kelishi hamda yangi pandemiya va epideiyalarning kelib chiqishiga olib keladi hamda odamlar orasida antroponozda ishtirok etadi. Infeksiya o'chog'i

kasallangan bemorlar, kasallikdan tuzalgan hamda sog‘lom tashuvchilar hisoblanadi. Ko‘pgina virusli infeksiyalar bakterial kasalliklardan farqlanadi.

Infeksiyaning tarqalish omillariga havo, suv, ozuqa, tuproq, kundalik buyumlar va bo‘gimoyoqlilarning ichida qon so‘ruvchi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda havo-tomchi tarqalish mexanizmi, fekal-oral, shukastlangan teri va qon so‘ruvchi hasharotlarning chaqishi yordamida tarqalishi mumkin. Virusli infeksiylarda yana bir yuqish yo‘li, ya’ni vertikal tarqalish yo‘li, ya’ni urug‘ orqali va genetik usulda uzatilishi mumkin. Urug‘ yoki homila orqali (vnutriutrob) infeksiyaning uzatilishi homilador ayollarning qizamiq, sitomegaliya kabi viruslar bilan kasallanishi natijasida uzatilishi mumkin. Bu infeksiyalarning qon orqali sirkulyatsiyasi plansetar parda orqali homilaning zaralanishi hamda ko‘rinishining yominlashishi mumkin.

Infeksiyaning genetik uzatilishi onkogen viruslar uchun xarakterli bo‘lib, ularning jinsiy hujayra genomi bilan integrasiyasi natijasida amalga oshadi. Infeksiya bilan zaralanishi individlarning epidemiologik jarayonlar kechadigan tupqoqqa tushub qolishi natijasida amalga oshadi. Havo-tomchi usuli yordamida tarqaladigan infeksiylarda kasallanishning kollektiv immunitet hosil qilish orqali boshqariladi va bu jarayon vujudga kelgan epidemiya natijasida kuzatiladi. Bunga misol qilib, izolyatsiylangan jarayonda kuzatiladigan qizamiq infeksiyasini misol qilsa bo‘ladi va infeksiya natijasida faqat zoonoz ravishda infeksiyani dastlab yuqtirib olgan jamoadan tashqari boshqa a’zolarining barchasi kasallanadi. Gripp kasalligida ham kasallanish kollektiv immunitetni hosil qilish orqali amalga oshiriladi, ammo virus

antigenida kuzatiladigan o'zgarishlarning paydo bo'lishi kollektiv kollektiv immunitet effektini pasaytiradi. Shuning uchun gripp virusi bilan qayta-qayta kasallanish kuzatiladi.

Kollektiv immunitet yordamida enteroviruslar infeksiyasiga qarshi kurashda, polimiyelit, gepatit A, endemik mahalliy arboviruslar qo'zg'atadigan kasalliklarga qarshi kurashish mumkin. Yuoridagi infeksiylarda maqsadli ravishda amalga oshiriladigan vaksinasiylar kollektiv immunitetni ta'minlab beradi.

Virusli infeksiyalar orasida shunday turlari borki, ular sezgirlik obsolyut va ulardan keyin paydo bo'lgan imminitet uzoq yillar, yoki butun umr damida saqlanishi mumkin. Bunday kasalliklarga qizamiq, kana enjefaliti, chechak virus kasalliklarini misol qilsa bo'ladi. Shunday infeksiyalar mavjud bo'lib, ularga nisbatan sezuvchanlik yuqori emas, ularga nisbatan yaxshi immunitet shakllanadi (polimiyellit, gapai A, enteroviruslar).

Ayrim infeskiyalarga nisbatan muqim immunitet paydo bo'lmaydi, natijada qayta kasallanish kuzatiladi (paromiksoviruslar, rinoveruslar, adenoviruslar) yoki viruslarda kuzatiladigan o'zgaruvchanlik tufayli avvalgi mavjud immunitet effektsiz bo'lib qoladi. BUndan tashqari surunkali infeskiyalr mavjud bo'lib, ular imun reaksiylarning samaradorligi past bo'ladi (gerpes, sitomegaliya, adenovirus infeskiyalari).

Shuning uchun virus infeksiyalari epidemiologiyasini o'rganishda infeskiyaning munosabatiga qarab immunologic statusni o'rganish zarur. Bu o'z navbatdia profilaktik emlash ishlarini olib borishga yordam beradi, buning natijasida poliomiyeelitning tugatilishiga,

qizamiq kasalligini pasaytirish, chechakning global yo‘qolishiga yordam berdi.

11.3. Virus kasalliklari o‘choqlari

Odam va hayvonlar kasalliklarining bir davlat hududida keng tarqalishi **epidemiya** deb ataladi, kasallikning bir davlatdan tashqariga, boshqa davlatlarga ham tarqalishi esa **pandemiya** deb nomlanadi. Shu bilan birga, **epifitotiya** — bu o‘simliklarda tarqaladigan kasalliklarning epidemik ko‘rinishi bo‘lib, uni qo‘zg‘atuvchilar sifatida eukariot, prokariot organizmlar yoki viruslar ishtirok etishi mumkin. Ushbu mavzuda fitovirus kasalliklarining epifitotiyalari haqida fikr yuritiladi.

Virusli kasalliklar odatda ma'lum bir hududda ("o‘choq") yoki ma'lum bir organizm(lar)da bir virusning ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ushbu jarayondan ko‘rinib turibdiki, uch asosiy omil birgalikda kasallikning tarqalishi natijasida epidemiya, pandemiya yoki epifitotiya darajasiga yetib, katta zarar yetkazishi mumkin.

Masalan, tarixda **gripp virusi** 20 millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lib, ulkan ijtimoiy va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelgani ma'lum. Shunga o‘xshash, o‘simlik viruslari ham qishloq xo‘jaligiga katta ziyon yetkazishi mumkin. Fitoviruslarning zararli ta'siri natijasida **g‘o‘za, kartoshka, tamaki, tomat, poliz ekinlari, shaftoli**, va boshqa daraxtlarning hosildorligi keskin kamayadi.

Masalan, Bouden o‘z asarlarida fitoviruslar tufayli qishloq xo‘jaligida millionlab zararlar qayd etilganini ta'kidlagan. Ayrim hududlarda o‘simlik navlarining virusli kasalliklar oqibatida ekilishi butunlay to‘xtatilgan, ayrim noyob o‘simlik navlari esa yo‘qolib ketgan

holatlar ham kuzatilgan. Bunday hodisalar virusli epifitotiyalarning qanchalik xavfli ekanini ko'rsatadi.

Kasallikning zararini kamaytirishda uch asosiy faktorni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu kasallikka qarshi samarali kurash yo'llarini shakllantiradi. Bu faktorlar "virus" (kasallik qo'zg'atuvchi), "tashuvchi omil" (hasharotlar, odamlar, hayvonlar va boshqalar) va kasallikka "moyil organizm" (o'simlik) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdir. Ushbu omillar birgalikda "uch halqalik zanjir"ni hosil qiladi, va uning biror halqasini uzib tashlash kasallikning tarqalish ehtimolini kamaytiradi. Ikki halqani uzish esa kasallik tarqalishini yanada kamaytirishga olib keladi.

Kasallikka moyil organizm, masalan, o'simlikning virusga chidamliligi, immun holati, fiziologik xususiyatlari kasallikning rivojlanishini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, agrotexnik choralarning qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Misol uchun:

- Virus va kasallikka moyil o'simlik o'rtasida himoya qiluvchi o'simliklarni ekish.
- O'simliklarni qalin yoki siyrak ekishning ta'sirini hisobga olish.
- Tashuvchi omillar hali kam uchraydigan davrda ekish muddatlarini o'zgartirish.
- Tashuvchilarni biologik yoki kimyoviy usullar bilan yo'q qilish.
- Virus rezervatorlarini yo'qotish bo'yicha choralar ko'rish.

Misol sifatida, **Q.S. Davranov** tomonidan jo'xorining sariq pakana mozaikasi virusi O'zbekistonda aniqlangani va uni yo'q qilish choralari

ishlab chiqilganini keltirish mumkin. Virus rezervatori sifatida aniqlangan g‘umayga qarshi “Dalapon” preparati, tashuvchi shiralarga qarshi esa “BI-58” preparati qo‘llangan.

Bundan tashqari, **Z.N. Qodirova** tomonidan raps, sholg‘om va redis virus kasalliklariga qarshi kurashda “**Bitoksibatsillin**” biologik preparati (*Bacillus thuringiensis* asosida) ishlab chiqilib, virus tashuvchi shiralarga qarshi muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Ushbu tadbirlar virusli kasalliklarga qarshi kurashda samarali chora-tadbirlar misoli bo‘la oladi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: Yu.I. Vlasov tomonidan E.N. Pavlovskiy nazariyasining fitovirusologiyaga tatbiq etilishi va virus epifitotiyalarining rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganilishi, viruslarga qarshi samarali kurash choralari ishlab chiqishda muhim qadam bo‘lgan. Pavlovskiy nazariyasiga ko‘ra, “har qanday virus kasalligini tabiatda o‘ziga xos o‘choqlari mavjud bo‘lib, ushbu o‘choqlarda kasallik qo‘zg‘atuvchisi (virus), spetsifik tashuvchisi va hayvonlar – virusning rezervuarlari avlodlari birgalikda yashaydi va evolyutsiya davomida, inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda, o‘z tabiiy o‘choqlarida hayotini davom ettiradi.”

Pavlovskiy nazariyasida tabiiy o‘choqli kasalliklarning klassik misoli sifatida uzoq sharq ensefaliti virusi keltiriladi. Bu virus kanalar orqali transovarial yo‘l bilan tarqalib, ularda qishlaydi. Kanalar o‘z navbatida, yovvoyi hayvonlarni kasallantirib, virusni yangi sog‘lom kanalarga yuqishiga sabab bo‘ladi. Ushbu jarayonda inson virusning tabiatda saqlanishiga ta’sir ko‘rsatmaydi va faqat tabiiy o‘choqqa kirganida kasallikni yuqtirishi mumkin. Shunday qilib, “tabiiy o‘choq”

tushunchasi kasallik qo'zg'atuvchisi (virus), tashuvchisi va kasallikka moyil organizm o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglatadi.

Tabiiy o'choqning mavjudligi virusning ushbu hududda doimiy ravishda sirkulyatsiya qilishiga asoslanadi (Yu.I. Vlasov, 1974; 1982; Parshin, 1976; Davranov, Vahobov, 2016). Yu.I. Vlasov ushbu sohada muhim nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazib, virus epifitotiyalarini prognoz qilish va ularga qarshi kurash choralari ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan.


Tabiiy o'choqlarni o'rganishning amaliy ahamiyati qishloq xo'jaligi o'simliklariga xavf tug'diruvchi infeksiya manbalarini aniqlash, patogenning ma'lum o'choqda sirkulyatsiya qilish xususiyatlarini o'rganish va epifitotiyalar rivojlanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Virus epifitotiyalarining rivojlanishi bir qator omillar bilan uzviy bog'liq, jumladan, virusning tabiiy o'choqlari, ekologik sharoitlar, patogenlik darajasi, infeksiyaning yuqish mexanizmi, xo'jayin o'simlikning moyilligi, agrotexnik usullar va boshqa omillar.

11.3.1. O'simlik virus kasalliklarini tabiiy o'choqlari va tiplari

Tabiiy o'choqli kasalliklarning asosiy turlariga yovvoyi o'simliklar – tashuvchilar – yovvoyi o'simliklar sxemasi bo'yicha sirkulyatsiya qiladigan kasalliklar kiradi. Ushbu guruhdagi viruslar ba'zan madaniy o'simliklarda epifitotiyalarga sabab bo'lishi mumkin, ammo viruslarning tabiiy aylanishida madaniy o'simliklar majburiy bo'g'in sifatida ishtirok etmaydi. Viruslarning tabiiy sharoitdagi aylanishida rezervuarlar va

tashuvchilar muhim rol o‘ynaydi (31-rasm). Viruslar yoki ulardan kelib chiqadigan kasalliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Tipik tabiiy o‘choqli kasalliklar
2. Qo‘zg‘atuvchilari madaniy o‘simliklar orasida ham muqim sirkulyatsiya qiladigan tabiiy o‘choqli kasalliklar
3. Qo‘zg‘atuvchilari tabiiy o‘choqlar bilan qisman aloqada bo‘lgan kasalliklar
4. Tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar



31-rasm. Virus sirkulyasiyasining faslga qarab amalga oshishining sxematik ravishda ifodalanishi (Fayziyev, 2020)

11.3.2. Tipik tabiiy-o‘choqli kasalliklar

Virus ko‘p yillik begona o‘tlarda qishlaydi. Bahorda va yozning boshlarida **Aphis fabae** birlamchi xo‘jayinlari (kalina, yasmin) orqali begona o‘tlarga yuqadi va keyinchalik ekilgan dukkakli ekinlarga tarqaladi. Shiralarning bir qismi begona o‘tlarga qaytib, yangi o‘choqlar hosil qiladi. Shunday qilib, virus tabiiy o‘choqlarda "begona o‘t – shira –

begona o't" zanjiri orqali doimiy sirkulyatsiya qiladi. Bu jarayon virusning tabiatda saqlanishini ta'minlaydi va dukkakli ekinlarning mavjudligiga bog'liq emas.

Virus biologiyasini o'rganishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

1. Tabiiy o'choqlarning yashirinligi. Begona o'tlarda kasallik simptomlari ko'pincha sezilmaydi, shuning uchun tabiiy o'choqlar latent holda bo'lishi mumkin.

2. Bir nechta begona o't turlarining roli. Virus tashuvchilar sifatida faqat bitta emas, bir qancha begona o'tlardan foydalanishi mumkin.

Bu omillar dukkakli ekinlar sariqligi virusi va unga yaqin viruslarning tabiiy o'choqlarda barqaror sirkulyatsiya qilishini tasdiqlaydi (5-jadval).

Beda jarohati o'smasi, Oddiy bodring mozaikasi, G'o'za bargini buralishi, Qiltanoqsiz koster mozaikasi, va Sholi pakanaligi viruslari ham "tipik tabiiy o'choqli kasalliklar" guruhiga kiradi. Ushbu viruslarning o'ziga xos kasallantiruvchi o'simliklari, tashuvchi hasharotlari va sirkulyatsiya tizimlari mavjud. Bu qonuniyatlarni va xususiyatlarni o'rganish, ularga amal qilish virus epifitotiyalarining oldini olishga yordam beradi.

Tipik tabiiy-o'choqli kasalliklarni belgilovchi faktorlari

Kasallik-lar (viruslar)	Simptom-lari	Tarqatuv-chi hasharot-lar	Urug' orqali tarqalishi	Rezervatori	Sirkulyasiya si	Adabi -yot
No'xotlar va dukkakli-larni sarg'ayis hi	Xloroz, yuqori barglarini buralishi va maydalashis hi, o'sish va rivojlanishda orqada qolishi	Dukkaklilar ni qora shirasi- Aphis fabae Scop.yana loviya, vika, beda shiralari	Urug' orqali o'tishi isbotlanmag an	Cirsium arvense (L.) Scop., Chenopodiu m album L.ikkilamch i o'chog'i beda	Virus ko'p yillik begona o'tlarda qishlaydi.	Vlaso v, 1964; 1966

11.3.3. Madaniy o'simliklar orasida ham qo'zg'atuvchisi muqim sirkulyasiyaga ega tabiiy o'choqli kasalliklar

Yu.I. Vlasov va uning hamkasblari Ukraina, Kavkazorti va Krasnodar o'lkalarida tomatni dog'li zarhallanishi (so'lishi) virusi (*Lycopersicon virus 3 Smit*) haqida keng tadqiqotlar olib borishgan. Ular virusning rezervuarlarini, tashuvchi hasharotlarini aniqlab, mazkur kasallikni "madaniy o'simliklar orasida muqim sirkulyatsiyaga ega tabiiy o'choqli kasalliklar" guruhiga kirishini tasdiqlashdi.

Begona o'tlar, masalan, *Datura stramonium* L., *Sisymbrium officinale* Perg. (gulyavnik), hamda madaniy o'simliklar, jumladan kartoshka, kartoshkagul va qalampir bu virusning rezervuarlaridan biri ekanligi isbotlandi. Virusning bir yildan ikkinchi yilga tuganaklar orqali tarqalishi kuzatildi. Virus shuningdek, tripslarning bir necha turlari tomonidan tashiladi: ***Thrips tabaci* Lind., *Franklinella insularis* Frank va *Franklinella maltoni* Frank.**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu virus madaniy o'simliklar orasida ham muqim sirkulyatsiya qiladi va tashuvchilar orqali keng tarqaladi. Ushbu guruhga kiruvchi ko'plab virus kasalliklari mavjud bo'lib, ularning sirkulyatsiyasi qonuniyatlari Lycopersicon virus 3 Smit misolida o'rganilgan.

Bu kasallik birinchi marta 1941-yilda Rossiyada E.M. Eristavi tomonidan kashf etilgan. Keyinchalik G.M. Razvyazkina va K.S. Suxov virusning biologik xususiyatlarini tamaki va maxorka o'simliklarida o'rgandilar. **Thrips tabaci Lind.** virusning asosiy tashuvchisi ekanligi aniqlandi, va tripslar virusni tanasida saqlash qobiliyatiga ega ekanligi kuzatildi. Ukrainada maxorka ekinlarida uchraydigan virus shtammi "yuqori xloroz" yoki rus tilida "verxushechny xloroz" deb ataladi. Bu shtamm ham Lycopersicon virus 3 guruhiga kiritilgan.

Virus qishlash davrini tripslar tanasida o'tkazadi, va ba'zi begona o'tlar, masalan, **Sisymbrium officinale Perg.**, virusni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kartoshka bu virusning sezilarli rezervuarlaridan biri sifatida belgilangan. Subtropik iqlim zonalarida, masalan, Abxaziya va Adler hududlarida, gulyavnik bo'lmagan joylarda ham virus tarqalishi qayd etilgan. Bu esa virus tarqalishida **Datura stramonium** kabi o'simliklarning rolini tasdiqlaydi.

Kartoshkagul bu virusning eng muhim xo'jayinlaridan biri hisoblanadi. Virus kartoshkagul tuganaklari orqali keyingi yilga tarqalishi va boshqa hududlarga yuqishi mumkin. Tomat ekinlari kartoshkagul ekilgan maydonlarga yaqin joylashgan bo'lsa, kasallik kengroq tarqaladi, uzoq joylashganda esa kamayadi.

Poltavada virusning rezervuarlariga **qora ituzum** va **mingdevona (belena)** o'simliklari kiradi. G.M. Razvyazkina va K.S. Suxov fikricha, tripslar virusni qish davrida tanasida saqlaydi va uni doimiy o'choq sifatida tarqatishda ishtirok etadi.

Shunday qilib, tomatni dog'li zarhallanishi virusi tabiiy va madaniy o'choqlarda keng tarqalishi bilan muhim ekologik va qishloq xo'jaligi muammosini yuzaga keltiradi. Bu qonuniyatlarni o'rganish va ularga qarshi kurash choralari virus tarqalishini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

11.3.4. Qo'zg'atuvchilari tabiiy o'choqlar bilan qisman aloqani saqlagan kasalliklar

Bu guruhga kontakt orqali yuqadigan viruslar kiradi. Ushbu viruslar tabiiy o'choqlarga ega emas, ammo madaniy o'simliklar orasida muqim tarqalishi mumkin. Biroq, ba'zi virus kasalliklarining tabiiy o'choqlari mavjud. Masalan, tamaki mozaikasi virusining ba'zi shtammlari, xususan, zubturumda tarqalgan shtammi (Goldin, 1953), tabiiy yo'llar orqali tarqalishi mumkin. AQShda bu shtamm fizalis va paslyonda (Dulitl, 1956, Vlasovdan olingan) tarqalishi aniqlangan. Vlasov ishlarida TMV virusining gulyavnik (*Sisymbrium loeselii*) ni kasallantirishi tasdiqlangan (Polak, 1965). KXV virusining bedada uchrashi R. Goth va R. Wilcoxon tomonidan 1960–1961 yillarda o'rganilgan (Vlasovdan olingan, 1974).

Vlasov va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida TMV va KXV viruslarining tabiiy o'choqlari borligi tasdiqlangan. O'zMU aspiranti Fayziev tomonidan ham bu ishlarga asoslangan yangi tabiiy o'choqlar aniqlangan (Fayziev V.B., 2012). Tabiiy o'choqlar bilan

qisman aloqasi saqlanadigan kasalliklarga kartoshkani S virusi va kartoshkani M viruslarini ham kiritish mumkin.

6-jadval

Tabiiy o‘choqlar bilan qisman aloqasi saqlangan kasalliklar

Kasalliklar va viruslari	Simptomlari	Tarqatuvchi hasharotlar	Urug‘ orqali tarqalishi	Rezervatori
TMV	mozaika		Tomat urug‘lari orqaligina	Gulyavnik Sisymbrium Loeseli (Polak,1965)
XVK	Mozaika, xol-xollik	shiralar	tuganaklar	bedada uchrashi R. Gloth, R. Wilcoxon,1960 ; 1961

11.3.5. Tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar

Tabiiy o‘choqlar bilan bog‘liqligi aniqlanmagan virus kasalliklariga soya mozaikasi, oddiy loviya mozaikasi virusi, bodringni och yashil va oq mozaikasi, arpa shtrixli mozaikasi, vigna mozaikasi viruslari hamda bir nechta mevali daraxtlar, buta o‘simliklarining virusli kasalliklari kiradi. Bu guruh viruslarini “ixtisoslashuvi”ni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu termin fitovirusologiyada murakkab va chalkashliklarga ega. Ba’zi tor o‘simlik doirasini kasallantiradigan viruslar, eksperimental kasallantirilganda, kutilmagan o‘simliklarni ham kasallantirishi aniqlangan. Masalan, arpa shtrixli mozaikasi virusi tabiiy sharoitda faqat donli o‘simliklarda tarqalgan bo‘lsa, eksperimental yuqtirilganda sho‘ra o‘simligini ham kasallantirib, nekrozlar hosil qilishi aniqlangan. Ba’zi mevali daraxtlar viruslari, sun’iy yuqtirilganda, bodring o‘simligini va sho‘ra avlodiga kiruvchi o‘simliklarni kasallantiradi. Kartoshkani X virus

kasalligi esa sistematik oʻrni jihatidan juda uzoq boʻlgan qulupnay gulini nekrozlar hosil qilib kasallantiradi. Bunday holatlar adabiyotda koʻplab uchraydi.

7-jadval

Tabiiy oʻchoqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar

Kasalliklar va viruslari	Simptomlari	Tarqatuvchi hasharotlar	Urugʻ orqali tarqalishi
Soya mozaikasi	Tabiatda bu virus faqat soyani mozaika simptomlari hosil qilib kasallantiradi	Har xil shira turlari	Uzoq SHarqda ham virus faqat soyani kasallantiradi.Ukrainada urugʻi orqali. Sobolevani olgan natijalari boʻyicha Oʻzbekistonda ham urugʻi orqali tarqaladi (4 – 56%.)
Vigna mozaikasi	Vignani baʼzi namunalarini mozaika hosil qilib kasallantiradi	Har xil shira turlari	Urugʻi orqali

Urugʻ orqali tarqalishi arpa shtrixli mozaikasi, oq va yashil mozaikali bodring, loviya oddiy mozaikasi viruslarida aniqlangan. Shunday qilib, agar kasallik tabiiy oʻchoqlar bilan bogʻlanmagan boʻlsa, bunday viruslar kasal oʻsimliklar orqali urugʻ yoki boshqa ekish materiallari yordamida sogʻ oʻsimliklarga yuqishi mumkinligini koʻrsatadi. Umumiy xulosa qilib aytish mumkin: bu virus kasalliklarining tarqalishi dastlabki kasallangan materialdan, yaʼni virusli urugʻ yoki ekish materiallaridan boshlanadi, va keyinchalik kasallikning rivojlanishi uchun optimal sharoitlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, virus o'choqlari va ularning tabiati, tashuvchilari, rezervatorlari, turlari va ekologik joylashuvlarini Vlasovning fitoviruslar guruhlarida o'rganish orqali, kasallik qo'zg'atuvchisi, tashuvchisi va kasallantiradigan o'simliklar, shuningdek, ularning sirkulyasiyasi to'liq o'rganildi. Bu ishlar boshqa hududlarda virus kasalliklarini aniqlash, ularning sirkulyasiyasini o'rganish va profilaktikasi, prognozi va epifitotiyalarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Kasalliklarning oldini olish uchun har bir hududda virus, virus tashuvchi va o'simlik tizimi sho'balari bilan ishlash kerakligini ta'kidlaydi.

11.3.6. Epifitotiyalarni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy faktorlar.

Epifitotiyalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'simlik virus kasalliklarining tabiiy o'choqlari, ekologik faktorlar, infeksiyaning tarqalish mexanizmi, xo'jayin o'simlikning kasalliklarga moyilligi, virusning patogenligi va agrotexnik omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillarni chuqur o'rganish va ular asosida xulosalar chiqarish virus epifitotiyalarining rivojlanishini oldini olishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Ekologik omillarning virus kasalliklariga ta'siri ikki yo'nalishda ko'rinadi: a) ekologik omillar (namlik, temperatura, yorug'lik, pH darajasi, virusning holati) virus kasalliklarining rivojlanishiga ta'sir qiladi, b) ekologik omillar tarqalishga ta'sir qiladi.

a) Ekologik omillarning virus kasalliklarining rivojlanishiga ta'siri o'simlik virus bilan kasallangach, tashqi sharoitlarning patologik jarayonga ta'siri bilan namoyon bo'ladi. Bouden F. aytganidek, kasallik

simptomlarini tavsiflashda atrof-muhit sharoitlari ham e'tiborga olinishi kerak. Sharoitlarning o'zgarishi kasal o'simlikning tashqi ko'rinishini to'liq o'zgartirishi mumkin. O'simlikni o'stirish sharoiti, unga virusning yuqish moyilligini va simptomlar paydo bo'lish muddatini o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar natijasida virus va o'simlik orasidagi munosabatlar ham o'zgaradi, kasallanish simptomlari lokal yoki tizimli bo'lishi mumkin. Ba'zan kasallik simptomlari yuzaga chiqmay, latent shaklda qolishi mumkin.

b) Tarqalishiga ta'siri. Tashqi omillar kasallikni tarqatadigan hasharotlarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa kasallikning keng miqyosda tarqalishini to'sib qo'yadi. Tashqi sharoitlar virusning tuproqda saqlanish muddatiga ham ta'sir qiladi. Bu holatlarni tushunmaslik olingan natijalarning noto'g'ri talqin qilishiga olib kelishi mumkin. Yu.I.Vlasovning tomat o'simligi kasalliklariga tashqi omillarni o'rganishdagi ko'p yillik ishlari, virus (TMV) issiqxona sharoitida o'stirilganda, temperatura va yorug'likning ta'sirida turli simptomlarning paydo bo'lishini ko'rsatdi.

11.4. Virus infeksiyasini yuqishi

Patogenning yuqish va tarqalish mexanizmini bilish, virus kasalliklariga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. L.V. Gromashevskiy (1962) kasallikni qo'zg'atuvchini bir organizmdan ikkinchisiga o'tishining uch bosqichdan iborat ekanligini aniqladi: 1) virusning tashqi muhitga chiqishi, 2) tashqi muhitda mavjudligi, 3) yangi organizmga kirishi. Virus kasallangan organizmdan tashqi muhitga chiqishi turli yo'llar orqali amalga oshishi mumkin. Tashuvchi hasharotga virus, odatda, kasal o'simlikdan oziqlanish orqali o'tadi.

Tuproq orqali tarqaladigan viruslarda esa kasal o'simlik ildizidan ajralgan eksudatlardan yoki kasal o'simlik qoldiqlaridan virus ajraladi. Shuningdek, yuqumli shira, ishlov berish asboblari va qo'l orqali ham infeksiya tarqaladi.

M.I. Goldinning maxsus tajribalarida tuproq orqali yuqadigan viruslar kasal o'simlikdan chiqishini ko'rsatib berilgan. Virusning patogenligi, o'simlikning virusga moyilligi va agrotexnik omillar virus kasalliklarining tarqalishiga ta'sir qiladi.

I.A. Kartashova o'zining "Selskoxozyaystvennaya fitovirusologiya" kitobida viruslarni oilalar bo'yicha 4 guruhga bo'lib, ularning qisqacha tavsifini beradi:

1. Bodring mozaikasi virusi, yaltirbosh mozaikasi virusi, no'xot mozaikasi virusi, fizalis virusi.

2. Kartoshkani U virusi, gulkaram mozaikasi virusi, tomat zarxallanishi viruslari.

3. TMV, kartoshkani X virusi, tamaki, tomat, qalampir, kartoshka va yovvoyi o'simliklardagi viruslar.

4. Tobamoviruslar va soya mozaikasi virusi, tor o'simlik doirasida kasalliklarni tarqatadigan viruslar.

Yu.I. Vlasov tomonidan o'rganilgan virus kasalliklarining biologiyasi va tabiiy o'choqlari haqidagi tadqiqotlar virus kasalliklariga qarshi kurash choralari va prognozlashda muhim natijalar berishi mumkin. Viruslar va mikoplazmalar rezervatori sifatida yovvoyi o'simliklar xizmat qilishi mumkin. Bunda, birlamchi tabiiy o'choqlar madaniy o'simliklardan mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan, yovvoyi flora vakillari kasallik qo'zg'atuvchilari bo'lib, madaniy o'simliklarga yangi aloqalar o'rnatilishi mumkin. Bu aloqalar tabiiy o'choqlarni yangi shakllantiradi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar yangi usullar va texnologiyalar yordamida davom ettirilishi kerak. Hozirgi kunda O'zbekistonda o'rganilgan viruslar va ularning tabiiy o'choqlari bo'yicha ma'lumotlar mavjud, ammo bu kasalliklar va ularning yangi o'choqlarini aniqlash hali to'liq o'rganilmagan. Shuning uchun bu masala dolzarb bo'lib, o'rganish zarurati mavjud.

Talaba bilimini mustahkamlash uchun qo'llanilgan texnologiyalar:
«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilarning umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash va qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, tahlil qilish hamda xulosalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham zarur vosita hisoblanadi. Bu texnologiya o'quv jarayonini samarali tashkil etishga va o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

«FSMU» metodi

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab bering va misol keltring
U	• fikringizni umumlashtiring

Topshiriqlar:

1. Tabiiy o'choq nimaligini FSMU metodi yordamida izohlab bering.
2. Pavlovskiyning tabiiy o'choq haqidagi nazariyasini izohlab bering?
3. Yu. Vlasov Pavlovskiyning tabiiy o'choq tipi haqidagi nazariyasiga asosan nimani yaratdi?
4. Epifitotiya nima va uni prognoz qilish mumkinligini asoslab bering?

Savollar?

1. Virus kasalliklarining o'choqlari deganda nimani tushunasiz?
2. Pavlovskiy nazariyasi nima va uni virus tarqalishidagi rolini ko'rsatib bering?
3. Vlasov tomonidan fitoviruslar kasalliklari o'choqlari nazariyasini ishlab chiqish va qo'llashini aytib bering.
4. Tabiiy o'choqli kasalliklar deganda nimani tushunasiz?
5. Ensefalit virusi misolida iabiiy o'choqli kasalliklarni tushuntiroib bering.
6. Tabiiy o'choqli kasalliklarni tiplrinechta va ularni sanab bering.
7. Qo'zg'atuvchisi madaniy o'simliklar orasida ham muqim sirkulyasiyaga ega tabiiy o'choqli kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytiladi?
8. Qo'zg'atuvchilari tabiiy o'choqlar bilan qisman aloqani saqlagan kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytiladi?

9. Tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytiladi?

10. Tabiiy o‘choqlarni o‘rganish, viruslar sirkulyasiyasini aniqlash, va undagi qo‘zg‘atuvchi – tashuvchi – organizm tizimini o‘rganish qanday qonuniyatlarni oqilishiga olib keladi?

11. Epifitotiya nima va uni prognoz qilish mumkinligini asoslarini so‘zlab bering.

12. Epidemiya, pandemiya va epifitotiyalarni o‘rganishni qanday nazariy, amaliy va siyosiy ahamiyatlari borligini tushuntirib bering.

12-BOB. VIRUSLARNING TABIIY MUHITDA TARQALISHI VA DIAGNOSTIKASI

12.1. Tashqi muhitga viruslarning tarqalishi

Aholining yirik shaharlarda to'planishi, sanoatning rivojlanishi va sanoat korxonalarning o'sishi tashqi muhitning biologik ifloslanishiga, shu jumadan ochiq va yopiq suv havzalarining, tuproq hamda yer osti suvlarining va atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda viruslarning tashqi muhitga yashovchanligi va sirkulyatsiyasi ta'minlanadi. Viruslarning suvda, tuproqda, havoda, oziq-ovqat mahsulotlarida saqlanishi asosiy omillardan bir hisoblanadi. Shuning uchun tashqi muhit omillarida inson uchun zararli bo'lgan patogenlarni o'rganish zarur hisoblanadi. Bu masalalar bilan *sanitar virusologiya* shug'ullanadi.

Sanitar virusologiyasining asosiy predmeti bo'lib, inson uchun patogen hisoblangan viruslarning tashqi muhitga (suvda, tuproqda, havo, oziq-ovqat va boshq.) tarqalishi hamda ularning aniqlash metodlarini ishlab chiqish va tashqi muhitdan effektiv yo'qotish chora-tadbirlari ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Tashqi muhitdan viruslarni aniqlash quydagi etaplaridan iborat: 1) tashqi muhitdan viruslarni konsentrlash; 2) namnalarni laboratoriyada tashilishi; 3) viruslarni ajratish va laboratoriya hayvonlari va tovuq embrionida ko'paytirish; 4) ajratilgan virusli antigenlarni identifikatsiya qilish bosqichlardan iborat.

Suv sanitariya virusologiyasi – suvda tarqalgan inson uchun zararli bo'lgan viruslarning uchrashini va uni aniqlash yo'llari hamda yo'qotish choralari bilan shug'ullanadi. Suvga bu viruslarning tushishi turli

biologik chiqindilar bilan tushadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijasida inson chiqindilarida 100 dan ortiq turli-tuman viruslar uchraydi, ulardan ayrimlari pikarniviruslar, adenoviruslar va reoviruslar hisoblanib, ularning ko‘pchiligi termostabil hisoblanib, ancha vaqtgacha hayotchanligini saqlaydi va ularning ko‘pchiligi odatiy dizinfeksiyalovchi vositalar, xlorlashga ham chidamli bo‘lib, suv manbalarida uzoq muddat saqlanadi hamda suv yordamida uzoq masofagacha tarqala oladi.

Suvda inson chiqindilari bilan ifloslanishi natijasida pikarniviruslar, reoviruslar, adenoviruslar uchraydi. Ichak viruslarining suvda eng ko‘p uchraydigan muddati bu – yoz va kuz fasllari hisoblanadi va buning asosiy sababi ichak kasalliklarining ko‘payishi bilan izohlash mumkin. Gastraentritlar ya’ni rotaviruslar qo‘zgatadigan infeksiyalar asosan qishda va erta bahorda ko‘p uchraydi.

Viruslarning suvda saqlanishi muddati turli-tuman bo‘lishi mumkin. Konsentratsiyasi ham 1 g da 1 mln konsentratsiyada uchrashi mumkin, ayrim viruslarning suvda saqlanishi bir necha oygacha bo‘lishi mumkin. Suvda viruslarning saqlanish muddati havo haroratiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, polimiyelit virusi daryo va vodoprovod suvida 4°C 90 kun, 20-37°C da 10-40 kungacha saqlanadi. Virus konsentratsiyasi qancha yuqori bo‘lsa uning yashovchanligi shuncha oshadi. Suvda eng uzoq muddat Koksaki virusining A guruhi, undan kamroq polimiyelit, undan kamroq muddatda Koksaki virusining B guruhi (40-50 kun) saqlanishi mumkin.

Suvda uchraydigan viruslarni konsentrlashning 4 turi mavjud:

1. Fizik usullar (ultrasentrifugalash, ultrafiltratsiyalsh);

2. Fizik-kimyoviy usullar (etil spirit yordamida, sulfat ammoniy va boshq.);
3. Adsorbsion metodlar (marli tamponga adsorbsiyalash, bentonit yoki boshqa ion almashinuvchilarga adsorbsiyalash yordamida);
4. Biologik usullar (achitqi va boshqa mikroorganizm hujayralarga asorbsiyalash).

Tuproq sanitariya virusologiyasi. Ichak viruslari podzol tuproqlarda adsorbsiyalanishi mumkin, ayrim tashqi muhit omillari ta'sirida desorbsiyalanib yana qayta tashqi muhitga tushib qolishi mumkin. Shunday yo'l bilan ichak infeksiylari tuproq va sabzavotlarni virus bilan zararlangan suv bilan sug'orish natijasida yuqtiriladi. Buni sxematik tarzda ifoalanadigan bo'lsa tabiiy suv - tuproq – sabzavotlar – odam tartibida yuqishi mumkin. Ichak infeksiyalari sabzavotlarda saqlanadi. Ularning saqlanish muddati o'simlik turiga, o'stirish sharoiti, virus tipiga va uning dastlabki konsentratsiyasiga bog'liq. Shunday ekan, polimiyelitning 1 tipi rediskaga 6-10°C 2 oy saqlanishi aniqlangan. Sabzavot o'simliklari ichidan viruslarning inaktivatsiyalanishi karamda uning fitonsitlari ta'sirida tez parchalanadi.

Sabzavotlarga infeksiyalar faqat ularning yuzasiga tushmaydi, balki uning ildiz sistemasi yordamida tupqor ostidagi organlariga yuqishi mumkin. Shuning uchun tabiiy suv, tupro va sabzavotlarni sistematik – virusologik tekshiruvlarni olib borsih talab etiladi. Viruslarning tupqor zarrasi bilan tezda asorbsiyalanishi uning turpoqning haydalma qatlamida (0-25 sm) joylashishi, bundan tashqari viruslarni tuproqning chuqur qatlamlarida (75-100 sm) ham uchrashi mumkin.

Tuproqni epidemiologik ko'rsatkichlariga muvofiq o'rganiladi. Tuproq namunlari (10-20 g) 0-20 sm chuqurlikdan, bir nechta nuqtasidan namuna olinadi. Namunalar o'zaro aralashitiriladi va trill polietilen qopchga laboratoriya sharoitiga olib boriladi.

Tuproqqa ishlov berish tuproq zarrasi yuzasidagi viruslarni desorbsiylanishi hamda suyuq fazaga o'tkazish hamda virusni konsentrlash boshqichlarni o'z ichiga oladi.

Havo sanitar virusologiyasi. Havo-tomchi usuli yo'li yordamida juda ko'p nafas olish infeksiyalarining havoda asosiy tarqalish yo'li hisoblanadi. Viruslar havoga aerosol fazasi yordamida aksirish, yo'tal kabilar orqali tarqaladi. Virusning yuqori konsentratsiyasi ularni cho'kishiga olib keladi. Bir qadar kichik virusli aerosol uzoqroq muddat saqlanadi. Aerosol qurib qolishi virusning inaktivatsiyasiga sabab bo'ladi.

Respirator viruslar bilan yopiq binolarda yuqishi aerosol tomchilari yordamida amalga oshadi.

Birinchi navbatda infeksiyaga sezgir odamlar kasallanadi va ular kasallangan odamga yaqin turgan odamlar kasallanadi. Aerosolning bir qadar qurigan turini nafas olish bir qadar xavfsiz hisoblanadi va undagi virus zarralari qisman inaktivatsiyaga uchruga bo'ladi. Havoda virusning tarqalishi shamol tezligiga bog'liq bo'lib, yomg'irli havo bu jarayonga teskari ravishda virus infeksiyasining cho'kishiga sabab bo'ladi.

Viruslar ichidan tashqi muhit omillariga ancha chidamli virus bu – adenovirus hisoblanadi va changzarrachasi hamda havo aerosoli bilan bir necha marta qayta-qayta sirkulyatsiylanishi mumkin.

Viruslarning aerosolda va yuzalarda chidamliligi ikki guruhga bo'linadi: kam chidamlilikka ega bo'lgan infeksiylar, misol tariqasida paromiksoviruslar; bir qadar chidamli bo'lgan viruslar, misol adenoviruslarni keltirish mumkin.

Shuni aytish mumkinki, viruslar yopiq inshoatlarda past konsentratsiyada bo'ladi, shuning uchun ularni ajratsihdan avval konsentrlash zarur bo'ladi.

Kundalik buyumlar sanitariya virusologiyasi. Kundalik buyumlar virus agentlarni kasallangan bemorlardan sog'lom odamlarga o'tishi mumkin. Ayniqsa ularnig roli bolalar bog'chasi buyumlaridan, jumladan: o'yinchoqlar, idish-tovoq, oshxona inventrlari, matolar, daraxtlarida mavjud bo'ladi. Adenoviruslarning 5 tipi o'zining yuqumliligini 7 kungacha, paragripp va respirator-shamollash viruslari esa bir necha minutdan bir necha kungacha saqlanishi mumkin. Adenoviruslar va enteroviruslar buyumlarga yana ikkilamchi tarzda yuqishi mumkin.

Umuman olganda sanitar virusologiya insonni insonni kasallantruvchi viruslarning tashqi muhitda, jumladan, tuproq, suv, havo, suv hamda buyum va ashyolarda saqlanishini hamda ularni zararsizlantirish yo'llarini aniqlash ustida tadqiqotlar olib boradi. Bu viruslarni saqlanishi tashqi muhit omillariga, jumladan harorat, namlik kabilarga bog'liq bo'lib, virusning saqlanishiga ta'sir qiladi. Viruslarning tashqi muhitda saqlanish muddatini bilish ularga qarshi kurahs chorlarini olib borish uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada asosan sanitariya va epidemiologiya hamda aholi osoyishtaligi tashkilotlari xodimlarining sanitar virusologik tushuncharini

shakllantish viruslarga qarshi kursh chorlarini olib borishda muhim hisoblanadi.

12.2. Viruslar laboratoriya diagnostika usullari va ularning qo'llanishi

12.2.1. Immunologik usullar va ularning sezgirliги hamda fitoviruslar diagnostikasidagi roli

Fitopatogen viruslarini diagnostika qilishda qo'llaniladigan immunologik usullar bir nechta namunalarni bir vaqtning o'zida tekshirish, kam mehnat va vaqt sarflash bilan alohida ahamiyatga ega. Bu usullar antigen (AG) va antitananing (AT) o'zaro ta'siriga asoslangan bo'lib, ular agglyutinasiya, presipitasiya, immunodiffuziya va nishonlangan moddalarga asoslangan usullarga bo'linadi, har biri o'zining sezgirlik darajasi bilan farq qiladi. Usullarning sezgirlik darajasi 7-jadvalda ko'rsatilgan. Hozirgi kunda o'simlik viruslarini diagnostika qilishda ishlatiladigan usullarni takomillashtirish, sezgirlik darajasini oshirish va bu ishni arzonroq yo'llar bilan amalga oshirish kabi muammolar mavjud.

Bugungi kunda o'simlik viruslarini diagnostika qilishda indikator o'simliklar elektron mikroskopiya, kiritmalar asosida va immunologik usullardan foydalaniladi. Indikator o'simliklar yordamida viruslarni diagnostika qilish usuli o'simliklarni viruslarga beradigan reaksiyasiga (mozaika, nekroz) asoslangan bo'lib, viruslarini past konsentrasiyada ham aniqlay oladi, bundan tashqari aralash kelgan viruslarni differensial indikator o'simliklar yordamida tozalash hamda ularni shtammlarini aniqlash imkonini beradi.

P.G. Chesnokov (1961) A.Ya. Komeraz (1959) va bir qator mualliflar o‘simliklar yordamida kartoshka viruslarini diagnostika qilish ustida ish olib borgan. Indikator o‘simliklarni yetishtirish, o‘stirish ko‘p ishchi kuchini talab qilishi bilan birga virusni yuqtirish sharoiti va kasallik alomatlarini paydo bo‘lishi ancha vaqt talab qiladi.

8-jadval

Turli immunologik usullar sezgirligini solishtirish

Usullar nomi	Aniqlangan virus	Usul sezgirligi	Namunani tekshirish vaqti
TU	TMV	1-10 mkg/ml	30-60 min
MPR	KXV	0,5 mkg/ml	24 soat
LU	KXV, KSV	0,1-0,5 mkg/ml	10-60 min
PALLAS - test	KYV	0,01-0,5 mkg/ml	4-10 min
Indikator o‘simlik	TMV	0,5 mkg/ml	Bir necha kun
RID	KXV	1 mkg/ml	24-48 soat
IID	KXV	1-10 mkg/ml	24-48 soat
IEF	VTM	0,1-4 mkg/ml	48 soat
TGAR	XVK	0,075mkg/ml	-
BFU	TMV	0,1-0,5 mkg/ml	10-20 min
VBA	JPMV	0,2 mkg/ml	1-2 min
RIA	GKMV	10-300 ng/ml	1-2 soat
IFA	KXV	0,1-1 ng/ml	2-3 soat

Hujayra kiritmalariga asoslangan diagnostika usuli bugungi kunda kam ishlatilib ular birinchidan ko‘p vaqt hamda ko‘p sarmoya, asbob uskunalar talab qilmasdan, usulning sezgirligi ham ancha past.

Elektron mikroskopiya usuli bir qator qimmat asbob uskunalarini va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Ammo usulni qulayligi

shundaki yangi o'rganilayotgan virus hamda ularni tuzilishini va shaklini ham aniqlab beradi.

Viruslarni diagnostika qilishda qo'llaniladigan usullar orasida immunologik usullar bir vaqtning o'zida bir nechta o'simliklarni tekshirishi, kam mehnat va vaqt talab qilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu usullar antigen (AG) va antitana (AT) o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslangan. Tozalangan AG hayvon organizmiga (masalan, quyon) yuborilganda, unga qarshi maxsus (spesifik) ATlarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi virus oqsili molekulasining bir bo'lagi sifatida xizmat qiladi.

Birinci bo'lib M. Dvorak (1927) va keyinchalik (1930) T.I. Fedotova hamda B.L. Masulevich viruslarni ularning ATlari yordamida diagnostika qilish usulini aniqlashdi. Kartoshka X-virusiga qarshi birinchi bo'lib A. Gratia (1933) antizardob (AZ) tayyorladi. Kartoshka viruslarining AG aktivligi va oqsil tarkibi bir-biridan farq qiladi. Eng faol AG xususiyatiga ega bo'lgan X-virus, unga yaqin S va M virusi, keyinchalik Y va oxirgi o'rinda A-virus hisoblanadi.

Immunologik usullar AG va AT o'rtasidagi reaksiyaning sharoitlariga qarab aglyutinasiya, presipitasiya, immunodiffuziya va nishonlangan moddalarga asoslangan usullarga bo'linadi. Bu usullar o'zining sezgirligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Viruslar ham boshqa AG kabi turlicha antigen determinantlarni o'z oqsil qavatida saqlaydi. Ular hayvon organizmiga kiritilsa, ularga qarshi hayvon qonida maxsus AT lar hosil bo'ladi, xuddi shunday xususiyatga virusdan ajratib olingan uning oqsil qismi ham egadir. Ularning antigen determinantlari 3-5 aminokislota qoldiqlaridan iborat. Kimyoviy tabiati

va fizik xususiyatlariga ko'ra AT lar oqsil zardobi globulinlar sinfiga kiradi. Ular o'z antigenlari bilan spesifik munosabatda bo'lishi mumkin. Sun'iy ravishda hayvonlarni immunizasiya qilish natijasida hosil bo'lgan AT lar immunoglobulinlar (IgG) sinfiga kiradi va immunologiya usullarida keng qo'llaniladi. Immunologik usullarning bugungi kungacha printsipitatsiyaga asoslangan, diffuziyaga asoslangan, agglyutinasiya reaksiyalariga va nishonlangan moddalarga asoslangan usullarga bo'linadi. Ulardan so'ngi yillarda nishonlangan moddalarga asoslangan usullar fitoviruslar diagnostikasida keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Shuning uchun ushbu usul haqida quyida ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

Nishonlangan moddalarga asoslangan usullar AT yoki AGni biror modda (ferment, radioaktiv moddalar) bilan nishonlashga asoslanadi, bu esa virus miqdori kam bo'lgan holatlarda ham aniqlanishini ta'minlaydi. Ushbu usullar quyidagi turlarga bo'linadi:

Radioimmun analiz usuli (RIA): Bu usulda virusning ATsi radioaktiv yod (I^{125} yoki I^{131}) bilan nishonlanadi. Avval virus ATlari qattiq fazaga (polistrol platalariga) immobilizasiya qilinadi, keyin AG qo'shiladi va ma'lum vaqt o'tganidan so'ng, yod bilan nishonlangan ATlar qo'shiladi. Ushbu usulni birinchi bo'lib fitovirusologiyada Boll 1973 yilda qo'llagan. Usulning sezgirliги 0,5 mkg/ml dan nanogrammaga ($1\text{ ng} = 0,000000001\text{ g}$) qadar.

Fluoresent zondlash usuli: Bu usulda lyuminesent nishon virusning AT tarkibiga kiritiladi, bu nafaqat virus miqdorini aniqlashga, balki kasallangan o'simlik to'qimalarida virusning joylashgan o'rnini ham aniqlashga imkon beradi.

Immunoferment analizi (IFA): So‘nggi yillarda nishon sifatida biokatalizatorlar, ya'ni fermentlar ishlatilmoqda. Bu fermentlar reaksiyaning molekulyar kuchaytirgichi sifatida xizmat qiladi. IFA mikroorganizmlarini, viruslarni, ayniqsa fitoviruslarni aniqlashda eng sezgir immunologik usul hisoblanadi.

Shunday qilib bugungi kunda fitoviruslarni diagnostika qilishda ishlatiladigan indikator o‘simliklar, elektronmikroskopiya va immunologiya kabi usullar qo‘llaniladi. Bu usullar ichida sezgirligi, kam ishchi kuchi talab qilishi va bir vaqtning o‘zida bir qancha namunani tekshira olishi bilan immunologiya usullarining ichida IFA yetakchi o‘rinni egallaydi.

IFA (Immunoferment Analizi) viruslarni, ayniqsa fitoviruslarni aniqlashda eng sezgir immunologik usul hisoblanadi. Ushbu usul 1970-yillarning boshlarida Shvetsiyalik olimlar Engvell va Rerlmann, Gollandiyalik Schuur va van Weemen, AQShlik olimlar Rubensteinlar tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo‘lib, AG (antigen) va AT (antitela) orasidagi munosabatga asoslanadi. 1976-yilda Adams va Klark o‘simlik viruslarini aniqlashda birinchi bo‘lib bu usulni qo‘llagan. Usulning sezgirligi juda yuqori, ya'ni viruslarning juda kam miqdorini ham aniqlash imkoniyatiga ega. IFA usuli RIA usuliga o‘xshash, ammo bunda radioaktiv izotop o‘rniga ferment ishlatiladi.

Hozirda IFA ning gomogen va geterogen turlari mavjud. Gomogen turida kichik molekulali moddalar, ya'ni gaptenlar aniqlanishi mumkin. Bu moddalar fermentlar bilan birikib, neytrallanadi, ammo eritmadagi erkin yoki birikkan AG ni ajratib olish qiyin. Bunga qarshi, IFA ning

geterogen turida AG yoki AT qattiq fazaga fiksirlanadi va xalaqit beruvchi komponentlar yuvish orqali olib tashlanadi.

IFA ning geterogen turining ikkita turi mavjud: raqobatga asoslangan va asoslanmagan. Raqobatga asoslangan turida dastlab AT qattiq fazaga adsorbsiyalanadi, ortiqcha AT yuvib tashlanadi, keyin esa AG va ferment qo'shib inkubasiyalanadi. Reaksiyaga xalaqit beruvchi moddalar yuvib tashlanadi va substrat solinadi, reaksiya borishi kuzatiladi. Ikkinchi variantda esa, dastlab AG qattiq fazaga adsorbsiyalanadi, ortiqcha AG yuvib tashlanadi, keyin AT va ferment bilan birga o'rganilayotgan AG solinib inkubasiyalanadi va yuvilib substrat solinadi.

IFA (Immunoferment Analizi) ning raqobatga asoslanmagan turida to'g'ri, noto'g'ri va "sendvich" variantlari mavjud. "Sendvich" usuli yuqori sezgirliги bilan alohida ajralib turadi. Ushbu usulda dastlab AT (antitela) qattiq fazaga adsorbsiyalanadi, ortiqcha AT yuvib tashlanadi, keyin AG (antigen) immobillanadi. Ma'lum muddatdan so'ng ortiqcha AG yuvib tashlanadi va ustidan kon'yugat solinadi, 3-4 soat davomida immobillanishi kutiladi. Ortiqcha kon'yugat ham yuvib tashlanadi, so'ngra substrat solinib, reaksiyaning borishi kuzatiladi. Ushbu jarayon buterbrodni eslatgani uchun "sendvich" usuli deb ataladi.

Bu usullarda AT yoki AG ni tashuvchisi sifatida organik polistirol, polivinilxlorid, polipropilen kabi moddalar ishlatiladi. Shuningdek, kon'yugat (birlashish) va substrat ham ishlatiladi. Kon'yugat AT va ferment birikmasi bo'lib, unda fermentga spesifik substrat ishlatiladi. Masalan, peroksidaza fermentiga H_2O_2 orto-dianizidin yoki ortofenilendiamin, 2,2-azino-dietilbenztiazolinsulfat (ABTS), ishqoriy fosfataza fermentiga r-nitrofenilfosfat, glyukozooksidaza fermentiga

H₂O₂ orto-dianizidin, D-β-galaktozidaza fermentiga esa r-nitrofenilfosfat yoki D-β-galaktozid ishlatiladi.

IFA ning yuqori sezgirliigi va bir vaqtning o'zida bir qancha namunani aniqlash imkoniyati boshqa analitik usullardan afzalligini ko'rsatdi. Shuning uchun bugungi kunda IFA meditsina, veterinariya, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, bioximiya, hujayra fiziologiyasi, immunologiya, mikrobiologiya, virusologiya kabi bir qator sohalarda keng qo'llanilmoqda.

Meditsina sohasida bu usul miokard infarkt, allergik, infeksiyon va parazitari kasalliklarni aniqlashda ishlatilmoqda. Miokard infarkti kreatinkinaza (KK) izofermenti miqdori asosida aniqlanadi. Sog'lom odam qonida bu ferment deyarli uchramaydi. Qon plazmasida ferment paydo bo'lishini ushbu usul yordamida aniqlab, miokard infarktning oldi olinmoqda. Shu bilan bir qatorda bu usul yordamida sifilis, OITS, gripp, virusli gepatit, herpes kabi infeksiyon kasalliklarni barvaqt fazalarda aniqlashga imkon yaratilmoqda. IFA usuli turli virusli kasalliklarning, jumladan, virusli gepatitning - A, B, S, D va Ye kabi turlarini differensial diagnostika qilish imkoniyatiga ega.

Veterinariyada infeksiyon kasalliklarni, hayvon mahsulotlari tarkibidan turli zaharli moddalarni aniqlashda hamda bir qator ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida, jumladan fitovirusologiyada IFA keng qo'llaniladi. Bundan tashqari bugungi kunda turli qishloq xo'jalik ekinlarining, jumladan kartoshka o'simligidan apikal meristema usuli yordamida «virussiz o'simlik» yaratilmoqda va keng miqyosda virussiz urug' sifatida tarqatilmoqda. Bu jarayon bir necha bosqichdan iborat bo'lib, bir muncha uzoq vaqtni talab etadi. Bu vaqt davomida yaratilgan

virussiz o'simlik virus bilan ikkilamchi zararlanmaganligi hamda virus kasalliklarining tarqalish areali, rezervator o'simliklarini va tabiiy o'choqlari IFA yordamida nazorat qilib borish bir qator qulayliklarni yaratadi.

Umuman olganda bu usul o'zining tezkorligi, sezgirliги va bir vaqtning o'zida bir qancha namunani aniqlay olish kabi afzalliklarga ega. Shuning uchun bu usul bugungi kunda meditsina, xalq xo'jaligining turli jabhalarida va ilmiy tadqiqotning ko'pgina sohalarida keng qo'llanilmoqda.

12.2.2. Molekulyar-genetik usullar va ularning fitoviruslar diagnostikasida qo'llanilishi

XX asrning 80-90 yillarida molekulyar biologiyaning intensiv rivojlanishi natijasida o'simliklarning kasalliklari qo'zg'atuvchilarini aniqlashning bir qator sezgir va tezkor usullari yaratildi. Shuni ta'kidlash lozimki, molekulyar-genetik usullarning immunologik usullardan fitopatogenlarni aniqlashning genetik informatsiyaga asoslanganligi bo'lib, bu bir qadar yuqori aniqlik va tezkor natijalar olish imkonini beradi.

Molekulyar-biologik texnologiyalarning diagnostik maqsadlarda qo'llanilishi yuqorida keltirilgan immunologik usullarda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etishga olib keladi. Shuni aytish lozimki, DNK yoki RNK analizining ishonchli natijalarini olish uchun bir necha millilitr namuna kifoya qiladi. Shu bilan bir qatorda, ba'zi molekulyar-biologik usullar fitopatogenni tezkor va aniq identifikatsiya qilish imkonini beradi.

Molekulyar-biologik usullar biologiyaning, jumladan fitopatologiyaning turli sohalarida, jumladan, turlarning genetik

xarakteristikasini aniqlash, turli formalarning moslanishini aniqlashda, shtammlar, izolyatlarni aniqlashda, o'simliklarda patogenlarga nisbatan chidamlilik genini (R) aniqlashda, patogenlarda R-geni faoliyatini pasaytiruvchi effektor genlarni, o'simlik va patogenlar orasidagi munosabat asosida paydo bo'ladigan toksik jarayonlar asosida barvaqt aniqlashda va boshqa ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladi. So'nggi o'n yillikda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lami kengaydi.

Nuklein kislotalar asosida fitopatogenlarni aniqlash usullarini ikkita guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, DNK yoki RNKning ma'lum fragmentiga to'g'ri keladigan nuklein kislotalarni molekulyar zond yordamida gibridizatsiyalash, ikkinchisi – polimer zanjir reaksiyasi (PZR) yordamida nuklein kislotalarning ma'lum fragmentini amplifikatsiyalashga asoslangan usullarga bo'linadi. Shunga asosan PZRga asoslangan reaksiyalarga quyida to'xtalib o'tamiz.

Gibridizatsiyaga asoslangan usullar metodikasi 90 yillarning o'rtalarida, PZR usulidan oldinroq qo'llanila boshlangan. Bugungi kunda bu usullar birga, bir-birini to'ldirgan holda PZR imkoniyatini oshirgan holda qo'llanilmoqda.

PZR usuli 1983 yilda Keri Myullis tomonidan taklif qilingan. Ilk bor amaliyotga qo'llanilishi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar 1985 yilda paydo bo'ldi va shundan so'ng bir qator bunday ma'lumotlar chiqa boshladi. Bugungi kunda biologiyaning qator fundamental va amaliy tadqiqotlarida qo'llanilayotganligi to'g'risida juda ko'pgina ma'lumotlar nashr etilgan. Mikroorganizmlarni diagnostika qilishda PZR dastlab meditsina mikrobiologiyasida qo'llanilgan va boshqa

mikroorganizmlarni aniqlash va identifikatsiya qilish usullari ichida liderlik qila boshlagan.

PZR usuli tabiatda uchraydigan DNK molekulasining ikkita zanjirga ajralishi va DNK ga bog‘liq bo‘lgan DNK-polimeraza fermenti yordamida komplementar zanjirning sintezlanishi natijasida replikatsiyalanishiga asoslangan.

PZR usulining mexanizmi yaxshi o‘rganilgan va tavsiflangan. Test-probirkada reaksiyalarning oligonukleotidlar (praymer) ishtirokida o‘kazilganda DNK namunasining majudligini aniqlab beradi. Praymerlar DNKning tanlangan fragmentining sintezlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular fragmentning ikkita 5'- va 3'-uchlari bilan komplementar bo‘lib, DNK qo‘sh zanjirini sintezlash imkonini beradi. Praymerning nukleotid komplementar qismi bilan birikkandan so‘ng (otjig), Taq-polimeraza DNK fragmentining ikkinchi zanjiri sintezlanadi. Taq-polimeraza o‘zi bilan termostabil *Thermus aquaticus* bakteriyasidan ajratilgan optimal fermentativ faolligi 70-72°S bo‘lgan DNK-polimeraza fermentini olib yuradi. Sintezlangan DNK fragmenti sintezlanadigan yangi-yangi zanjirlar amplifikatsiya sikli uchun matritsa vazifasini bajaradi, shunday qilib polimer zanjir reaksiyasi amalga oshadi. Bu jarayonda nusxalar soni geometrik progressiyada ko‘payadi, 25 sikl amplifikatsiyadan so‘ng (30 sekunddan bir necha minutgacha) 100 dan ortiq fragment kopiyasi hosil bo‘ladi. Avtomatik termosiklda 2-3 soat davomida bir nechta sikl davom etib, DNK fragmentining milliondan ortiq nusxalari hosil bo‘ladi. Bu PZR jarayonida DNK fragmentining elektroforez jarayonida ko‘rinadigan darajada ko‘payishiga olib keladi.

PZR-analizini quyidagi uchta bosqichga bo'lish mumkin: namunani tayyorlash (namuna tayyorlash), PZR jarayoni va reaksiya mahsulotini (amplifikatsiya qilingan DNK fragmentini) aniqlash. Reaksiya aralashmasi quyidagi tarkibiy qismlardan: (1) Amplifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan DNK fragmenti; (2) praymerlar jufti; (3) Taq-polimeraza; va (4) komplementar zanjirning amplifikatsiya qilinadigan sayti uchun zarur bo'lgan to'rt tip dezoksiribonukleotiduchfosfatlar (dNTP)dan iborat bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, reaksiya aralashmada Mg^{2+} bo'lishi zarur bo'ladi.

Polimeraza zanjir reaksiyasi sintez mahsulotini (amplifikonni) aniqlash turli yo'llar bilan amalga oshishi mumkin. Bunday tipik usullardan biri bu – elektroforetik yo'l bilan agaroz yoki poliakrilamid gelida ajratish bo'lib, ajratilgan mahsulot brom etidiy kabi flyuoresent bo'yoqlar yordamida amplifikonni vizualizatsiyalash yo'li yordamida aniqlanadi. Brom etidiydan tashqari, PZR mahsulotlari gelda kumush yordamida ham bo'yalishi mumkin. Ayrim hollarda poliakrilamid gelida ajratishga to'g'ri keladi. Bunday holatda amplifikatsiya qilinayotgan DNK restriksiya endonukleazasi bilan amplifikatsiya qilinayotgan mahsulotdagi polimorfizm fragmentini aniqlash uchun ishlov beriladi. Shu bilan bir qatorda DNK amplifikatsiya fragmenti turli nishonlar tutuvchi zondlar bilan gibrizatsiyalash amalga oshiriladi. Bunda suyuq fazadagi yoki maxsus tashuvchidagi gibrizatsiyalangan mahsulotdagi flyuoresent tutuvchi oligonukleotidlar miqdorini aniqlash imkonini beradi (PZRning FLASH turi yoki "Mikroerrey-analiz metodi").

Amplifikatsiya mahsulotlarini tahlil qilishning bir qator usullari mavjud. Ular yuqori samarali suyuq xromatografiya (VEJX), kapillyar

elektroforez va mass-spektrometriya. Yuqoridagi usullarni qo'llanilishi natijalarning avtomatlashishiga olib keladi. Bugungi kunda amplifikatsiya maqsulotlarini aniqlashda biochiplardan foydalanilmoqda.

Zamonaviy virusologiyada PZR usuli turli patogenlarni aniqlash bilan bir qatorda viroidlar, viruslar, mikoplazmalar, bakteriyalar, zamburug'lar va ne'matodalarining taksonomiyasi va kelib chiqishini aniqlash imkonini beradi. Bu metodlar o'simliklar kasalliklarini, kasallik qo'zg'atuvchilarini o'simlikning turli vegetativ organlarida, urug'da, meva va boshqa o'simlikning saqlovchi qismlarida aniqlash imkonini beradi. PZR usuli bugungi kunda bir qator muhim iqtisodiy zarar keltiruvchi viruslarni aniqlashda qo'llanilmoqda.

Bugungi kungacha PZRning bir qator turlari mavjud bo'lib, ular haqida quyida keltirib o'tiladi:

QT-PZR (Qaytalama Transkriptazali - PZR) (Reverse Transcription PCR – RT-PCR) usuli – o'simliklarni kasallantiruvchi viroidlar va RNK tutuvchi fitoviruslarni aniqlashda qo'llaniladi, odatiy PZR dan farqli ravishda Taq-polimeraza RNK asosida DNK ni sintezlay olmaydi. Shuning uchun bunday patogenlarni aniqlashda yana bir ferment, ya'ni RNK ga bog'liq bo'lgan DNK-polimeraza yoki qaytalama transkriptaza (QT) fermenti zarur bo'ladi. QT ishtirokidagi reaksiya keyinchalik Taq-polimeraza yordamida amplifikatsiyalanuvchi bir zanjirli DNK nusxasini (cDNK) sintezlashga olib keladi.

QT-PZR o'simliklarni kasallantiruvchi viruslar va viroidlar, shu bilan bir qatorda viruslarning o'simlik shira bitlari organizmida mavjudligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Ichki juft praymerli PZR (Nested PCR) –PZRning bu varianti uyali PZR yoki nested-PZR ham deb yuritiladi. PZRning bu varianti modifikatsiyalangan usullardan biri bo‘lib, o‘simlik patogenlarini identifikatsiya qilishda tez-tez qo‘llaniladi. PZRning bu variantini o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, reaksiya jarayonida ikki juft praymer ishtirok etadi, praymerlarning ikkinchi jufti tashqi praymer o‘zining funksiyasini bajarib bo‘lgandan so‘ng, sintez mahsuloti ichidan DNK fragmentini amplifikatsiya qilinishida ishtirok etadi. Bu variantni amalga oshirishning ikkita texnik alternativi mavjud bo‘lib, undan biri reaksiya probirkasidan 15-30 sikl amplifikatsiyadan so‘ng tashqi praymer bilan asosiy DNK fragmenti olinadi. So‘ngra uni ichki praymer mavjud bo‘lgan ikkinchi probirkaga o‘tkaziladi va 15-30 sikl amplifikatsiya qilinadi. Nested-PZRning ikkinchi alternativ turida xuddi yuqoridagi haroratda birinchi stadiya (reamplifikatsiya) amalga oshiriladi, bunda ichki praymerlar DNK bilan ta’sirlanmaydi. Bunday holda reamplifikatsiya harorati odatda tashqi praymer qo‘llanilganga nisbatan 10-15°C past ushlanadi.

Boshqa usullar singari ichki praymerli PZRni fitopatogenlarni aniqlashda qo‘llashning bir qator yutuq va kamchiliklari mavjud. Usulning afzallik tomonlaridan, yuqori sezgirligi va reaksiya mahsulotining ozligi, shu bilan bir qatorda to‘liq fragment amplifikatsiyasi spesifikligini kuchayishi va patogenni to‘liq identifikatsiya qilishga olib keladi. Reaksiya mahsulotining birinchi sikldan so‘ng boshqa probirkaga o‘tkazilishi PZR jarayonida ishtirok etadigan ingibitorlar konsentratsiyasining pasayishiga natijada yolg‘on reaksiyalarning kelib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ko‘p hollarda

har ikkala bosqichni bitta probirkaga amalga oshirish samarali hisobalanadi.

QT-uyali PZR mikoplazmalarni aniqlashda juda samarali bo'lib, shu bilan bir qatorda boshqa patogenlarni ham aniqlashda, shu jumladan bakteriyalarni (masalan, *Erwinia amylovora*ning o'simlikda kasallik alomatlarini keltirib chiqarishdan avval, ya'ni ertaroq stadiyalarda) aniqlashda qo'llash mumkin.

Multipleks PZR (Multiplex PCR), ya'ni multipraymerli PZRda reaksiya aralashmada DNKli-matritsalarining koamplifikatsiyasi bir nechta juft praymerlar ishtirokida amalga oshadi. Bu bir vaqtning o'zida bir nechta patogenni bitta tajribaning o'zida aniqlash imkonini beradi. Shuni aytish lozimki, multipleks-PZR uchun zarur bo'lgan praymerlar bir-biriga komplementar emas va ularning barchasi uchun teng va samarali sharoitni tanlash kerakki, ularning barchasida amplifikatsiya jarayoni ketishi lozim. Shu bilan bir qatorda, tahlil natijasini elektroforez yordamida shu narsa zarur bo'lib, turli patogenlardan DNK amplifikatsiya qilish uchun, ular turli o'lchamga ega bo'lishlari lozim. Bugungi kunda multipleks-PZR mikoplazmalar, viruslar va viroidlarni kompleks aniqlashda ishlatilmoqda.

ELISA bilan kompleks PZR (immunocapture PCR) yoki PZR-ELISA kompleksi ikkita, ya'ni immunokimyoviy va molekulyar usullarning fitopatogenlarni kompleks diagnostika qilishda qo'llanilishi hisoblanadi. Immunoferment analizi usuli esa yakunlovchi sifatida yoki oxirgi bosqichda patogenni aniqlashda ishlatiladi. Oxirgi holatda aniqlanishi zarur bo'lgan namuna (masalan, virus tutuvchi ekstrakt) yuzasiga virus zarrachasini tanuvchi antitana immobillangan

mikroprobirkaga yoki mikroplanshet chuqurchasiga solinadi. Keyingi bosqichda ishqoriy muhitda PZR yoki QT-PZRga mos keladigan virus DNK si yoki RNK si ajratib olinadi. Odatda, PZR-ELISA fitopatogenlar diagnostikasini kuchaytiradi. Shu bilan bir qatorda u agar reaksiya tarkibida polimeraza zanjir reaksiyasini ingibirlaydigan ingibitorlar mavjud hollarda juda samarali hisoblanadi. Bu usul ko'pgina, jumladan bir qator viroid va viruslarni aniqlashda samarali qo'llanilgan.

